ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Musurmonova	4	Professional ta'lim muassasalarida yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash
E. Murodov	9	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy kasblarga o'qitishning zaruriyati
Z. Taxirov	12	Til, uslubiyat, nutq madaniyati va adabiy tahrir
R. Musurmonov	18	Maktab o'quvchilarida darsga ijobiy munosabatni shakllantirishda refleksiv ko'nikmalar
Z. Negmatova	22	Etnopedagogik manbalarning turlari va tarbiyaviy imkoniyatlari
U. G'oyimov	26	"Refleksiv qobiliyat" tushunchasining mazmuni va mohiyati
O. Avezmuratov, Z. Avezmuratova	30	Ta'lim-tarbiya jarayonida buyuk ajdodlarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish
M. Usmonova	34	Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mazmuni
I. Oxunov	38	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishning pedagogik asoslari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
N. Abduraimova	42	Adabiyot darslarida loyiha metodining ahamiyati va dolzarbligi
A. Raxmatov	45	Texnologiya darslarida "sodda ko'rinishdagi harakatlanuvchi avtomobil yasash" mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish
M. Mirzakarimova	50	Ingliz tilini tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitishda CLIL texnologiyasi
M. Sharipova	54	Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish mohiyati
K. Kultayev, S. Jumanova	58	Mustaqil ta'lim topshiriqlaridan namunalar uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish mohiyati
M. Qolqonova	63	Tarbiyalanuvchilarda faoliyatli yondashuv asosida ijodiy tasavvurni shakllantirish
R. Ziyayev, M. Umarova	66	Uglevodorodlarning (alkenlar misolida) oksidlanish reaksiyalarini o'rganish
		TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
M. To'ychiyeva, Sh. Naraliyeva,	71	Ta'limda ijodiy fikrlashning ahamiyati
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
J. Hakimov	76	Elektron resurslarni o'quv jarayoniga joriy etishning zarurati
A. Homidov	80	Elektron resurslarni ishlab chiqish, tadbiq etish va baholash
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
G. Mirzayeva, T. Kaxxorova	84	"Do'ppichilik san'ati" mavzusini o'qitish va baholash mezonlari
		TA'LIMDA MENEJMENT

F. Islomova	90	Strategik menejment usullari asosida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari
Q. Oqilov	94	Umumta'lim maktablari boshqaruvini takomillashtirishning dolzarb masalalari
		TA'LIMDA MARKETING
J. Abduhamidov	98	O'zbekiston respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarida savdo va tovar ayirboshlash masalalari
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
U. Rahmonov	102	Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy madaniyatning o'rni va uni takomillashtirish
Ya. Ergashev	106	Jismoniy tarbiya va sport fani o'qituvchilarining kreativ kompetentligini takomillashtirish
X. Maxmarizayev	110	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini intellektual va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish
N. Raxmatova	113	Bo'lajak badiiy gimnastikachilarni saralashning tashkiliy-pedagogik asoslari
Sh. Ruziyev	116	O'quvchilarni voleybol to'garaklariga jalb qilishga oid pedagogik mahorat masalalari
F. Homidjonova	120	Ayol kurashchilarning musobaqa faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
F. Xomudjonova, B. Oralova	124	Qisqa masofaga yugurishda tezkor chidamlilikni tarbiyalash usullari
B. Xolmaxmatov	127	13-15 yoshdagi futbolchilarni jismoniy va funksional tayyorgarligini takomillashtirish
		MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI
O. Ro'ziyeva	130	Integratsiyalashgan mashg'ulotlar vositasida tarbiyalanuvchilarda musiqiy idrokni shakllantirishning ahamiyati
		ПСИХОЛОГИЯ
I. Mustafayeva	133	Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
R. G'ulomova	136	Ijtimoiy-ekologik muammolarni ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganishning ahamiyati
		КУЛЬТУРА, ИСКУССТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
А. Омарова	139	Качественное преподавания физической культуры и спорта в высшем образовании – основа формирования общей и профессиональной культуры личности современного специалиста

Oynisa MUSURMONOVA,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA YIGIT-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada professional ta'lim muassasalarida yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi g'oyalar asosida yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ma'naviy, jismoniy, jinsiy tomondan to'liq tayyorlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif professional ta'lim tizimidagi yosh yigit va qizlar bilan konferensiyalar, o'quv seminarlari, sport turnirlari, munozaralarni o'z vaqtida va yuqori saviyada o'tkazilishi, uslubiy qo'llanmalar, ma'naviy-ma'rifiy xarakterdagi adabiyotlar mutolasini yo'lga qo'yish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqishlariga ko'ra tashkil etishi hamda bu borada ta'lim muassasalari bilan fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yo'lga qo'yilishi bo'yicha tavsiyalar bergan.

Tayanch so'zlar. Professional ta'lim, oilaviy hayotga tayyorlashda huquqiy-me'yoriy hujjatlar, farovonlashtirish va mustahkamlash, profilaktika inspektori, metod va vositalar, uslubiy qo'llanma.

В статье освещаются вопросы полноценной подготовки молодежи к семейной жизни в психологическом, духовном, физическом, сексуальном плане на основе представлений, содержащихся в нормативно-правовых актах по подготовке юношей и девушек к семейной жизни в профессиональных образовательных учреждениях. Также автор дает рекомендации по своевременному и высокому уровню проведения конференций, обучающих семинаров, спортивных турниров, дискуссий с молодыми людьми в системе профессионального образования, организации чтения методических пособий, литературы духовно-просветительского характера, организации их досуга в соответствии с их интересами и налаживанию сотрудничества образовательных учреждений и институтов гражданского общества в этой области. дал.

Ключевые слова. Профессиональное образование, нормативно-правовые акты по подготовке к семейной жизни, благоустройству и укреплению, профилактический осмотр, методы и средства, методическое пособие.

The article covers the issues of the full training of young people on the psychological, spiritual, physical, sexual side of family life on the basis of ideas in legal and regulatory documents in the preparation of young people and girls for family life in professional educational institutions. The author also made recommendations for conferences, training seminars, sports tournaments, discussions with young men and girls in the professional education system to be held on time and at a high level, to establish methodological manuals, readings of literature of a spiritual and educational nature, to organize their free time according to their interests, and to establish cooperation of civil society institutions with educational institutions in this regard.

Key words. Legal and regulatory documents in the preparation for Professional education, family life, well-being and strengthening, preventive inspector, methods and tools, methodological manual.

Mamlakatimizda professional ta'lim tizimida yosh yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashni ta'minlash zamirida ma'nan va jismonan sog'lom komil insonni shakllantirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, bu ta'lim tizimi faoliyatini mazmunan va shaklan samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son, 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni, 2023-yil 21-dekabrdagi ‘‘Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401 sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarorlari normativ-huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatlardagi g‘oyalar asosida yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ma’naviy, jismoniy, jinsiy tomondan to‘liq tayyorlash masalalari quyidagi yo‘nalishlarda bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi:

– oila mustahkamligi, tinchligi, baxtliligini ta’minlashning huquqiy-me’yoriy asoslarini mukammal bilish va amal qilish;

– oiladagi jinslararo munosabatlar va ularning huquq hamda oilaviy majburiyatlari;

– oilaning ma’naviy qadriyatlari, axloq-odob qoidalari va ularga amal qilish tartib-qoidalari;

– oilada ma’naviy va jismoniy sog‘lom farzandni dunyoga keltirish, tarbiyalash mexanizmi;

– oilaviy inqirozlar, tazyiq va zo‘ravonlik, ajrim holatlari va ularning oldini olish hamda oilaviy konfliktlar yechimi;

– oilada sog‘lom muhitning o‘ziga xos xususiyatlari;

– erta turmush, erta tug‘ruq, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi nikoh va ularning salbiy oqibatlari;

– oilada qaynona-kelin, qaynota-kuyov munosabatlari, gender tenglik va ularning o‘ziga xos xususiyatlari;

– oilaning baxtlilik indikatorlari va ularga amal qilish mexanizmi va b.q.

Ushbu yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda jamiyatning barcha institutlari ya’ni, ta’lim tizimi, oila, mahallalar hamkorligi taqozo etiladi.

Mazkur tizimning barchasi yoshlarni farovon oilaga tayyorlashda, oilalardagi turli salbiy holatlarning oldini olishda quyidagi tamoyillariga amal qilish taqozo etiladi:

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash;

– demokratlashtirish, insonparvarlashtirish;

– ta’lim-tarbiyada izchillik, sistemalilik, bosqichma-bosqichlikni ta’minlash;

– ijtimoiy ehtiyoj, oila a’zolarining talablari, mintaqa hamda hududning manfaatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiyaga yaxlit yondashish;

– yigit va qizlarga qo‘yiladigan ta’lim-tarbiyaviy talablarning bir xilligi va natijadorligi;

– ta’lim-tarbiyaviy ish mazmuni shakl, metod va vositalarining yigit va qizlarning qiziqishi, mayli, intilishi, yosh va psixologik xususiyatiga mosligi;

– yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda umuminsoniy va milliy qadriyatlar qadriyatlardan foydalangan holda tarbiyaga tabaqalashgan yondashuv;

– ta’lim-tarbiyaviy ishlarni maqsad sari yo‘naltirish, rejali tarbiyaviy dastur asosida tashkil etish;

– ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni boshqarishda adolatlilik, demokratik yondashuv; barkamol avlod tarbiyasiga fanlar integratsiyasi asosida yondashish;

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda yakka, guruhli, jamoaviy, ommaviy tadbirlar o‘tkazish orqali shaxs faol bo‘sh vaqtni tashkil etish; tarbiyaviy ishni tashkil etishda g‘oyaviylik, ilmiylik, hayotiylik, shaxsiy mas’ullik;

– ta’lim-tarbiyada kommunikativlik, bola shaxsiga differensial munosabat;

– barkamol avlodga ta’lim va tarbiya berishda ota-ona, tarbiyachi-o‘qituvchi, jamoatchilikning tarbiyaviy-ta’limiy ishi har bir obyektning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qilishi;

– ta’lim-tarbiya shakl, metod va vositalarining shaxs yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligi;

– oilaga tayyorlashning natijadorligini ta’minlashda OAV, yangi axborot texnologiyasidan unumli foydalanish, jarayonni doimiy kuzatish, nazorat qilish, monitoring olib borish;

– ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash mazmuni, shakl va metodlari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, omillari, vositalarini o‘zaro hamkorlik nuqtayi nazaridan tanlash va boshqalar.

Ushbu tamoyillar asosida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning samaradorligi professional ta’lim tizimidagi yigit va qizlarni pedagogik va psixologik jihatdan o‘rganish natijasi asosida tashkil etish bilan bog‘liq. O‘rganish maxsus dastur asosida tashkil etilishi va unda yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash omillari, insonlar bilan muloqot tajribasi, atrof-muhit, bo‘layotgan voqea-hodisalarga, mehnatga munosabati, ichki va tashqi dunyosi, hatti-harakati, ongi va tafakkuri darajasi, axloq-odobi aks etishi lozim. U yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ehtiyojlarida, qiziqishlarida, xarakteri va temperamentida, urf-odatlarida, fikrlash xususiyatlarida, muloqotida, munosabatida namoyon bo‘ladi. Shundagina professional ta’lim tizimidagi yigit va qizlarning mustaqil oilaviy hayotga qay darajada tayyorligi, intilishlari, qaysi guruhga mansubligi yoki maylini bilish va tarbiyaviy ta’sir yo‘llarini aniqlash mumkin.

Buning uchun professional bilim yurtlari, akademik litseylarda avvalo o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ushbu masala bo‘yicha ustuvorlik berish talab etiladi. Darhaqiqat, professional bilim yurtlari, akademik litseylarda yosh yigit va qizlarning ushbu yo‘nalishlarda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali qo‘yidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash nazarda tutiladi:

– oila pedagogikasi, oila psixologiyasi, oila iqtisodi, oila salomatligi, oila huquqi, oila demografiyasi, oila ma’naviyati, oila qonunchiligi, oila tadbirkorligi, oilada bola tarbiyasi, oilada turli illatlarning paydo bo‘lishi va ularning oldini olish mexanizmlari bo‘yicha bilim,malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish;

– o‘zbek xalqida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari, oila muqaddas dargoh ekanligi haqida ma’lumotlar;

– yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda zamon talablari va ehtiyojlarini hisobga olish;

– yoshlarning ma’naviy savodxonligini rivojlantirish;

– turmush qurishda qarindosh-urug‘chilikka yo‘l qo‘ymaslik;

– oilaviy hayotda ayollarning turmush sharoitini yaxshilashning o‘ziga xos xususiyatlari;

– yoshlarni oilaviy qadriyatlar vositasida ma’naviy-ma’rifiy bilim bilan qurollantirishda professional ta’lim tizimida yosh yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashni

ta’minlashni ma’naviy negizini takomillashtirish yuzasidan sa’y-harakatlar rejasining maqsadlari, vazifalari va yo‘nalishlari, uni amalga oshirib borishining takomillashtirishda ular yashaydigan shahar, tuman, mahallalar, ta’lim muassasalarida jtimoiy-ma’naviy targ‘ibot ishlarini olib borish. Shuningdek, televideniye va radioda maxsus ko‘rsatuv va eshittirishlar hamda ruknlar, mamlakat bolalari va yoshlari hayotini yoritadigan ommaviy axborot vositalarida mavzuli maqolalar turkumini yaratish, ommabop, ixcham, buklet va risolalar tayyorlash va chop etish, ota-onalarning va keng jamoatchilikning mazkur yo‘nalish bo‘yicha savodxonlik madaniyatini oshirish, bu jarayonga fuqarolik jamiyati subyektlarini keng jalb etish, bu jarayonda ijtimoiy faol yoshlar kuchidan keng foydalanish mazkur faoliyatda samaralar garovidir.

Chunki, oilaviy qadriyat har qanday xalqning, davlatning asosiy kuchi va ijtimoiy-ma’rifiy qudratining timsolidir. Oilalar ma’naviy jihatdan mustahkam va tinch bo‘lgan yurtda yosh oilalar taraqqiyotga, farovonlikka osonroq erishiladi, odamiylik, umuminsoniy fazilatlar va yuksak qadriyatlar gullab yashnaydi.

“Professional ta’lim tizimida yosh yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash” yoki “Oilaviy hayot pedagogikasi”, “Oilaviy hayot psixologiyasi” kabi maxsus o‘quv kurslarini hamda “Yosh oila maktabi” nazariy-amaliy laboratoriyalari, pedagogik-psixologik, tibbiy maslahatxonalari tashkil etish orqali yosh yigit va qizlar bilan oila, nikoh masalalari bo‘yicha suhbatlar, uchrashuvlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirish, shuningdek, bu borada o‘quv fanlari mazmunini (dastur, reja,o‘quv qo‘llanmalar va b.q.)takomillashtirish talab etiladi.

Shuningdek, mahallaning ajralmas qismi bo‘lgan o‘n ming nafarga yaqin xotin-qizlar faollari bilan birgalikda minglab Otinoyilar, “Oqila ayollar” harakati a’zolari, “Ayollar maslahat kengashlari”, “Buvijonlar” maktabi, ko‘chaboshilar kabi jamoatchilik fidoyilari, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotchilar hamkorligi asosida yosh yigit va qizlar bilan farovon oila borasida targ‘ibot ishlari olib borish, o‘tkaziladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning maqsadi va mazmuniga ko‘ra kichik guruhlarda savol-javob, hikoya, davra suhbati, munozara, klaster, aqliy hujum, turli mavzularda tanlovlar, viktorinalar, olimpiadalar, seminar-treninglar va boshqa ta’lim-tarbiya metodlaridan foydalanish yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda ijobiy samaralar beradi.

Buning uchun esa ruknli risolalar, esdaliklar, videomateriallar, onlayn dasturlar, ko‘rgazmali targ‘ibot mahsulotlari (plakatlar, bukletlar) va boshqalarni yaratish yoshlarni mustaqil oilaga tayyorlash talab etiladi.

Professional ta’lim yigit va qizlar uchun namunali oilalarning ilg‘or tajribalarini keng ommalashtirish, oila muammolariga oid qiziqtirgan savollar bo‘yicha maslahatlar olish va berish maqsadida Ommaviy ochiq onlayn saytlarini yo‘lga qo‘yish, vebinarlar (veb-seminarlar, veb-konferensiyalar, veb-debatlar, veb-murojaatlar, metodik veb-sahifalar va boshqa), internet tarmoqlarida “Oilaviy qadriyat sirlari” maxsus saytlarini yaratish davr talabidir. Bu jarayonda esa yoshlarni sog‘lom oilaviy hayotga tayorlash masalalari borasida qiziqtirgan savollariga javoblar topishda, oila, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining kengayishida, namunali oilalarning hayotiy tajribalaridan xabardor bo‘lishda juda keng auditoriya (turli toifa oilalar, yoshlar, turli kasbli ota-onalar, qaynona-kelinlar, yigitlar va qizlar, mutaxassislar)ning qamrab olinish imkoniyati vujudga keladi.

Shunday qilib, professional ta’lim tizimidagi yosh yigit va qizlar bilan konferensiyalar, o‘quv seminarlari, sport turnirlari, munozaralarni o‘z vaqtida va yuqori saviyada o‘tkazilishi, uslubiy qo‘llanmalar, ma’naviy-ma’rifiy xarakterdagi adabiyotlar mutolasini

yo‘lga qo‘yish, ularning bo‘sh vaqtlarini qiziqishlariga ko‘ra tashkil etish hamda bu borada ta’lim muassasalari bilan fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ilg‘or tajribalarni muntazam ravishda umumlashtirish hamda ular faoliyatidagi ijobiy natijalarni OAV da keng yoritish, bola farovonligini ta’minlashning ma’naviy asoslarini yoshlar ongiga singdirish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi “Maslahat markazlari”, “Yoshlar ijtimoiy xizmat markazlari” faoliyatini yo‘lga qo‘yish ijobiy natija beradi.

Bu o‘rinda jamiyatdagi barcha institutlarning o‘zaro aloqasi hamda hamkorligi taqozo etiladi. Ushbu hamkorlik quyidagi zanjir asosida amalga oshiriladi: oila – mahalla bog‘cha – maktab – o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi – oliy ta’lim – “mustaqil” ta’lim – mehnat va kasbga tayyorlash – maktabdan tashqari muassasalar – ijtimoiy - huquqiy muhofaza tashkilotlari – mutasaddi tashkilot va idoralar – keng jamoatchilik (NNT). Bu o‘rinda ularning o‘zaro kuzatish, nazorat qilish, aniqlash, suhbat, dialog, munozara, intervyu, qiyosiy tahlil, og‘zaki va yozma so‘rov, test savollari o‘tkazish kabi metodlar ijobiy natija beradi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda professional ta’lim tizimida yosh yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashni ta’minlashni takomillashtirish, bu sohada yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni ma’naviy va jismoniy kamol toptirishga qaratilgan ishlarning samaradorligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlar samaradorligini ta’minlash garovidir. Bu esa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5938-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chorak-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son Qarori.

5. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O. Musurmanova.-T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.-252 b.

6. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi //–T.: O‘qituvchi;. – 1996. – T., 97.

7. Musurmanova A. Marosimlar – ma’naviyatimiz ko‘zgusi. Metodik qo‘llanma. “Istiqlol nashriyoti”, –T., 2012-yil.

8. Кожина Е. V. Психолого-педагогические аспекты проблемы репродуктивного здоровя подростков// Материалы интернет-сайта: ҳттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/психолого-педагогические-аспектй-проблемй-репродуктивного-здоровя-подростков/виewер.

Erkin MURODOV,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINI ZAMONAVIY KASBLARGA O‘QITISHNING ZARURIYATI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish va tayyorlash jarayonida yaratilayotgan milliy tizimning amaliyotga joriy etish tartibi, uni amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, bugungi kunda respublikaning har bir hududida yuqori sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tashkil etilgan tayanch maktablar faoliyati va undagi ta’lim jarayonlari tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish, biznes va kasb-hunarga o‘rgatish, amaliy kasblar, zamonaviy kasblar, kreativ industriya, kasb-hunar o‘rgatish bo‘yicha tayanch maktablar.

В статье излагается порядок внедрения в практику создаваемой национальной системы обучения и подготовки учащихся общеобразовательных учреждений к современной профессии, механизмы ее реализации. Также проанализирована деятельность базовых школ, организованных сегодня в каждом регионе республики по профориентации старшеклассников, и образовательные процессы в них.

Ключевые слова. Базовые школы с углубленным изучением предметов в общеобразовательных школах, бизнес и профессиональное обучение, прикладные профессии, современные профессии, креативная индустрия, профессиональное обучение.

The article describes the procedure for the introduction into practice of the national system, the mechanisms for its implementation, which are being created in the process of training and training students of general secondary educational institutions for the modern profession. Also, today in each region of the Republic, the activities of base schools and educational processes in it are analyzed, which are organized to target upper-class students to the profession.n.

Key words. Base schools for deepening teaching of subjects, business and vocational training, practical professions, modern professions, creative industries, vocational training in general secondary schools.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining xorijiy tillar va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida 1–4-sinflarda o‘quvchilarga boshlang‘ich, 5–9-sinflarida tayanch hamda 10–11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari joriy etilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, kelgusi 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinov tariqasida o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlash borasida quyidagi tartibni joriy qilish belgilandi:

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinflarida tayanch o‘quv rejasi asosida o‘qitish bilan bir qatorda “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” hamda “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha ham ta’lim dasturlarini joriy qilish;

– “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yo‘nalishi doirasida – o‘quv jarayonini tashkil etishda asosiy e’tiborni aniq, tabiiy fanlar yoki xorijiy tillarga qaratish, “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishi doirasida esa – o‘quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasblarga o‘qitish.

Shu bilan birga, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning quyidagi tartibi joriy etilishi nazarda tutilmoqda:

5–9-sinflarda xorijiy tilga o‘qitish intensivligini oshirish orqali o‘quvchilarda bazaviy bilim va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

10–11-sinflarda xorijiy tilni o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning akademik yozuv va so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratish.

“Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yo‘nalishi doirasida xorijiy til fanini tanlagan o‘quvchilar 10–11-sinflarda ikkinchi xorijiy tilga o‘qitiladi.

Buning uchun 2024-yil 1-mayga qadar mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xorijiy til fani bo‘yicha o‘quv reja va dasturlar takomillashtiriladi. Bunda, o‘quvchilar tomonidan 11-sinfda ikkinchi xorijiy tilning kamida A2 darajada o‘zlashtirilishini nazarda tutiladi.

2024-yil yakuniga qadar xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha xalqaro nashriyotlar darsliklarini xarid qilish va mahalliylashtirish hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tilni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari bo‘yicha malakali mutaxassislarni jalb qilish choralari ko‘riladi.

Ayni vaqtda respublika umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 500 nafar ingliz, fransuz va nemis tillaridan xorijlik mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Kelgusi yilda ularning sonini 1500 nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda, o‘quvchilarni zamonaviy kasblarlarga o‘qitish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta’lim tizimi bilan uzviylik ta’minlanmagan. Ta’limning uzviyligini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarining o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirib, ularni umumiy o‘rta ta’limning xorijiy tilni o‘qitish dasturiga muvofiqlashtiriladi.

2024/2025-o‘quv yilidan boshlab xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan, xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga bir vaqtning o‘zida ham o‘qish, ham pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi moslashuvchan dars jadvali joriy etiladi.

O‘quvchilarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bunda o‘quvchilar Milliy malakalar ramkasining 2-darajasiga mos bo‘lgan kasblarga o‘qitiladi.

O‘quvchilarni kasblarga o‘qitish ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ustaxonalar tashkil etiladi va oylik ish haqi oliy ma’lumotli umumta’lim maktabi o‘qituvchisiga tenglashtirilgan “Kasbiy ta’lim ustasi” lavozimi joriy qilinadi.

– Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini zamonaviy kasblarga tayyorlashda quyidagi yo‘nalishlarning biri bo‘yicha kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitiladi:

– birinchi yo‘nalish – tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb qilish orqali o‘quvchilarni ishchi kasblarga o‘qitish;

– ikkinchi yo‘nalish – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan kurslarda o‘quvchilarni axborot texnologiyalariga oid zamonaviy kasblarga o‘qitish.

Bu borada tadbirkorlarni keng jalb etish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh binolarini “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchilariga amaliy monomarkazni tashkil qilish va keyinchalik o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida tekin foydalanishga berishga ruxsat beriladi.

Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun uning moliyaviy manbalari ham hal etilgan. Xususan,

– ustaxonalarni yirik jihozlar (kompyuter texnikasi, elektron doska, tikuv mashinasi va hokazo) bilan ta’minlash hamda kasbiy ta’lim ustalari mehnatiga haq to‘lash – O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga qo‘shimcha ajratiladigan mablag‘lar hisobidan;

– mavjud ustaxonalarni joriy ta’mirlash, zarur hollarda yengil tipdagi ustaxonalarni qurish hamda ular uchun kichik asbob-uskunalarni xarid qilish – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasi hamda Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan;

– kasb-hunarga o‘qitishda talab etiladigan zarur xomashyo materiallarini xarid qilish – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

2024-yil 1-aprelga qadar o‘quv jarayoni “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yoki “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun amaldagi tayanch o‘quv rejasi doirasida moslashuvchan o‘quv reja tasdiqlanadi.

2025-yil 1-iyulga qadar tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqib, “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yoki “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish amaliyotini boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga tatbiq etish bo‘yicha takliflar tayyorlanadi.

Hududiy hokimliklar bilan birgalikda 208 ta umumta’lim maktablari tanlab olinib, mazkur maktablarda 2023–2024-o‘quv yilidan boshlab 7-sinflarda ikkinchi xorijiy til va 10-sinflarda kasb-hunar o‘rgatish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Maktablarda o‘rgatiladigan jami 6 ta xorijiy til va 27 turdagi kasb-hunarlarning o‘quv dasturlari va taqvim-mavzu rejalari, shuningdek, kasb-hunar xonalarini jihozlashga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Toshkent sh, 2024-yil 2-fevral, RQ-53-son, https://lex.uz/docs/6787995

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 14-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli tashkil etish to‘g‘risida”gi 238-sonli buyrug‘i.

3. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarini hunarga tayyorlash bo‘yicha 46 ta kasb ro‘yxati tuzildi, 12.08.2022-yil. https://kun.uz/news/2022/08/12/bitiruvchi-sinf-o‘quvchilarini-hunarga-tayyorlash-bo‘yicha-46-ta-kasb-ro‘yxati-tuzildi.

4. 21st Century Competencies, https://www.moe.gov.sg/education-in-sg/21st-century-competencies.

Zoir TAXIROV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori

TIL, USLUBIYAT, NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TAHRIR

Annotatsiya

Maqolada funksiyaviy uslublar hamda adabiy tahrir aloqadorligi haqida fikr yuritiladi.Shuningdek, filologik fanlarning tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, uslubiyat, nutq madaniyati, adabiy tahrir xususida so‘z boradi va ular turli matn tuzishda bir-biri bilan jips bog‘liqligi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Tilshunoslik, adabiy nutq, matn, tahrir, muloqot, mavhum otlar, psixolingvistika, lingvistika, uslubiyat, madaniyat.

В статье рассматриваются функциональные стили, а также взаимосвязь литературного редактирования.Также рассматриваются вопросы языкознания, прикладной лингвистики, методологии, культуры речи, литературного редактирования филологических наук и освещается их взаимосвязь при составлении различных текстов.

Ключевые слова. Лингвистика, литературная речь, текст, редактирование, общение, абстрактные существительные, психолингвистика, лингвистика, методология, культура.

The article reflects on the involvement of functional styles as well as literary Editing.The philological sciences are also focused on linguistics, Applied Linguistics, methodology, culture of speech, literary editing, and they are illuminated by the connection of chips with each other in the construction of various texts**.**

Key words. Linguistics, literary speech, text, editing, communication, abstract nouns, Psycholinguistics, linguistics, methodology, culture.

Tasviriy tilshunoslik, kategoriya, til tizimi til birliklari, uslub, nutq, nutqiy muloqot, nutq shakli, funksiyaviy-kommunikativ tur, matn, funksiyaviy tur, tahrir, matn uslubi.

Umumxalq tili tilshunoslik (lingvistika)ning tadqiq etish obyekti hisoblanadi. Tilni o‘rganish jihatlari nuqtayi nazaridan esa tilshunoslik shartli ravishda ichki va tashqi tilshunoslikka ajratiladi.

Umumiy tilshunoslik (tasviriy tilshunoslik) ichki lingvistikaga kiradi umumtil kategoriyalari, turli darajalarini o‘rganadi.

Tashqi lingvistika (paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, neyrolingvistika va b.) so‘zlovchining jamiyatdagi faoliyati bilan tilning bevosita bog‘liqligini o‘rganadi.

Tasviriy tilshunoslik “til tuzilishi” haqidagi fandir. Bu fan til ichida nima bor ekanligini, fikr, his-hayajon (emotsiya), ma’lumot (xabar) yetkazishni o‘rganadi va o‘rgatadi.

Tasviriy tilshunoslik bilan uslubiyatning o‘rganish obyekti bitta ayni bir tildir, ammo predmeti boshqa-boshqa. Aytish joizki til tizimidagi birliklar va kategoriyalar tasviriy tilshunoslikning tadqiqot predmeti hisoblanadi. “Tildan, ayniqsa adabiy nutqdan foydalanishning barcha usullari uslubiyatning tadqiqot predmeti” bo‘ladi.

Uslubiyatning nutqiy muloqatda tildan foydalanish haqidagi fan ekanligini mohiyatini ochib berish uchun adabiy nutq tushunchasini aniqlashtirib olish kerak.

Turli manbalarda adabiy nutq terminiga quyidagicha tariflar beriladi:

“... umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma’lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi formasi”.

“... o‘zbek tilining dialektlari, oddiy so‘zlashuv tili va jargonlaridan tamoman farqlanadi, shu xalq vakillari uchun umumiylik bilan xarakterlanadi”.

“... muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va meyorlashtirilgan mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli”.

“Umummilliy tilning meyorlashtirilgan shakli, yozma va og‘zaki ko‘rinishga ega ijtimoiy sohalar barchasida amalda bo‘ladi hamda milliy madaniy hayotga xizmat qiladi”.

Adabiy nutq ijtimoiy lingvistikaning asosiy tushunchasi. U milliy til egalari tomonidan namuna sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy (ijtimoiy-madaniy) mavjud (amalda bo‘lish) shakli. Uning asosiy vazifasi milliy tilda so‘zlashuvchilarning tarixan shakillangan jamoasi barcha a’zolari faoliyatining barcha sohasida to‘laqonli aloqa-aralashuvi (muloqot)ni ta’minlashdan iborat. Adabiy nutq bajarishi lozim bo‘lgan “... ana shu asosiy vazifa uni mohiyatan adabiy nutqga aylantiradi, ya’ni umumqabul qilingan, umumtushunarli bo‘lishini ta’minlaydi”.

Yuqorida aytilganlarning barchasiga bitta qo‘shimcha qilish mumkin: *umummajburiy.*

Nutq jarayonida adabiy nutqdan, umuman tildan foydalanish umumiy nomda uslubiyat ataladi. U – nutqiy (yozma, og‘zaki) muloqat vaqtida til (birliklari, kategoriyalari) dan foydalanish haqidagi mustaqil fan.

Uslubiyatda, asosan, til birliklaridan foydalanish yoki “til birliklarining muayyan vazifani bajarishi” haqida so‘z boradi. Ana shu vazifa bajarishligiga ko‘ra u funksiyaviy (vazifaviy) uslubiyat deb ataladi.

Til vositalari muayyan vazifa bajarar ekan, nutq egasining maqsadiga ko‘ra ma’lum o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar ayrim til birliklari, kategoriyalari, so‘zlar guruhi, grammatik shakllar, konstruksiyalar (tuzilmalar) va fonemalarda yuz beradi.

Uslubiyat tilshunoslik fanlari orasida alohida o‘rinni egallaydi. Boshqa tilshunoslik fanlari tilda nima borligini o‘rgansa, uslubiyat til birliklari va kategoriyalardan qanday foydalanishni tadqiq etadi. Nutq (og‘zaki, yozma)da fikr, his-hayajon, fikr almashish, informatsiya yetkazish qanday kechadi, mana shular uslubiyatning mohiyatini tashkil etadi. Bir so‘z bilan aytganda, harakatdagi tilni o‘rganadi.

Tilda shakllangan birliklar va kategoriyalar nutqiy muloqot jarayonida quyidagilarga bog‘liq ravishda muayyan funksiya (vazifa)ni bajaradi:

– xabarlar mazmuniga;

– matn (umumiy nutqiy muloqot)ga;

– nutqiy muloqot amalga oshirilayotgan sharoitlarga.

Tilning qanday vositalari birikmaga kirishishi, bir-birlari bilan bog‘lanishi, bir-biriga moslashishi, muloqot sohasi, nutq shakli (og‘zaki, yozma), matn mavzusi, muhokamaning mohiyati, “gaplashish” va h. ga ko‘ra uslubiyat quyidagilarni aniqlashtiradi:

– tildan kishilarning birgalikda faoliyat olib borishlari, ish yuritishlari, umuman, turmush kechirishlari kabi jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishda qanday foydalanishini ;

– har bir til birligi qanday vazifani bajarishligini;

– muayyan matn tarkibida (yoki muayyan matn turida), u yoki bu muloqiy sharoitda til birliklari mutanosiblashishi yoki bir-biriga ta’sir etishligini.

Uslubiyat tildan foydalanish masalasini aniqlashtiradi, tadqiq etadi. Bu uning predmetini tashkil etadi. Uning tilshunoslikning boshqa fan sifatidagi mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Ana shunga ko‘ra uslubiyat tilshunoslikning funksiyaviy-kommunikativ (vazifaviy-muloqot) turi hisoblanadi va nutq madaniyatini, ortologiya (to‘g‘ri nutq ha-

qidagi fan)ni, til me’yorlari to‘g‘risidagi ma’lumotni, ijtimoiy lingvistikani, adabiy nutq nazariyasini o‘z ichiga oladi.

Uslubiyatga oid mashg‘ulotlarda quyidagilarni a’lo darajada bilish (o‘rgatish) nazarda tutiladi.

1. Til “material”ini, kategoriyalarini, birliklarini – uning tizimini tashkil etuvchilarni;
2. O‘zbek tili fonetikasi, leksikasi, grammatikasi (morfologiya, sintaksis), frazeologiyasi, so‘z yasalishi va b. ni;
3. Uslubga ko‘ra ega va kesim moslashuvini.
4. Sodda va qo‘shma gaplar tuzilishini.
5. Tildagi obyektiv va subyektiv munosabatni.
6. O‘timli va o‘timsiz fe’llarni.
7. Qaratqich va tushum kelishiklarining farqini.
8. Mavhum otlar, shakllar omonimiyasi va h. ni.

Uslubiyatda, avvalo, mikromatn, shuningdek, muallifning umumiy fikri, kontekst ta’siriga ko‘ra tahlil etilayotgan matnda til birliklaridan foydalanishdagi me’yordan chetlanish – sintaktik konstruksiyalardagi kamchiliklar, frazeologizmlarning xato qo‘llanganligi, so‘zlarning birikmaga noto‘g‘ri kiritilganligi, so‘zning o‘z ma’nosida qo‘llanilmaganligi, ma’nodan noto‘g‘ri foydalanilganligi e’tiborga olinadi.

Havo bulut edi. Oq bulutlar bo‘lganlikdan quyoshning nuri uncha kesilmagan, quyosh to‘r ro‘mol ichida o‘tirgan kelinlar kabi yer yuziga suzilib qarar edi. (A.Qodiriy).

Tabiat manzarasini chizar ekan, adib *quyosh kelinlar kabi suzilib qarar edi* o‘xshatish konstruksiyasini tuzadi.

Uslubiy nuqtayi nazardan bu konstruksiya e’tiborni o‘ziga tortadi. Grammatika bo‘yicha mutaxassislarning fikricha, bu konstruksiya grammatik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Leksikolog esa, *suzilmoq* so‘zini qo‘llashda me’yordan chekinish bor, deydi.

Uslubiyat bo‘yicha mutaxassis esa mazkur konstruksiyadagi me’yordan chekinishlikni aniqlay boshlaydi: nima uchun, nega? Matn uchun bu nima beradi, muayyan aniq ifodaga yana qanday yangi ifoda (ottenka) bag‘ishlaydi.

Mazkur konstruksiya tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, aslida, *quyosh kelinlar kabi qaraydi.* Konstruksiya to‘rt komponentdan tashkil topadi: *quyosh, kelin, kabi, qaraydi.* Bu konstruksiyada *quyosh, kelin* – ot, *kabi* – ko‘makchi, *qaradi* – fe’l (o‘tgan zamon). Ulug‘ adib quyoshning nur taratishini inson qarashiga o‘xshatar ekan, qarashga xos ko‘plab belgilar orasidan faqat bittasini tanlaydi: *suzilib.* Ana endi tasviriy tilshunoslikdan uslubiyatga o‘tiladi: nega? Inson qarashiga turli belgilar xos: *kulib qarash, xo‘mrayib qarash, bezrayib* qarash, tirjayib qarash, jilmayib qarash, tumshayib qarash, tersayib qarash, ola *qarash, irjayib qarash, sirli qarash, shubhali qarash, ishonqiramay qarash, ishonib qarash, chaqchayib qarash, baqrayib qarash, yovqarash, do‘stona qarash, bo‘zrayib qarash, iljayib qarash, yotsirab qarash, yig‘lamsirab qarash* va h. Nega yozuvchi qarashga xos ko‘pgina belgilar ichidan faqat *suzilibni* tanladi. Ana shu tanlash ayni uslubni anglatadi.

Agar *suzilib* so‘zi – ravishdoshning nominativ (atash) ma’nosiga e’tibor bersak, u *insonga xos qarash* belgisini anglatadi, ma’no bo‘yog‘i, tabiiyki, ijobiy. Bunday qara–shga insonlar yoshi, jinsidan qat’i nazar, barchasi ham ega bo‘lishi mumkin. Lekin ular barchasi birdek ijobiy emas. Adib yuqorida ayol zotiga mansub tur – kelin qarashiga quyoshning nur sochishini o‘xshatadi. Nega kelinning, nega qizlarning, nega katta yo–shdagilar (kampirlar)ning? Vaholanki, ular ham ayol! Chunki qizlarning suzilib qarashi

– odobsizlik, yoshi kattalarniki – yarashmagan qiliq. Kelinlarning bu xil qarashlari ham ma'lum davrda (yangi kelinlik davrida), shunda ham o'z jufti halollariga nisbatan bo'lsa, ijobiy sanaladi. Yuqoridagi parcha badiiy matn ekanligini hisobga olsak, unda muallif quyosh nurlarini oq bulut to'sib qo'yganligi va uning ham yorug'ligi xira tortgan, hovuri pasayganligi va bu kishiga yoqishlik darajasida ekanligini ta'kid etmoqchi bo'ladi va buni kelinlarning suzilib boqishligi yoqimliligiga o'xshatadi.

Uslubiyat tildagi bu hodisani tadqiq etarkan, tasviriy tilshunoslik bilan o'zaro jips bog'liqdir, chunki u mohiyatan tilni tadqiq etishni nihoyasiga yetkazadi. Uslubiyat tilni tizimli-tuzilmaviy tahlil qilish vazifasi (tasviriy tahlil)dan o'tib, lingvistika qismlariga asoslangan holda quyidagilarni tadqiq etadi:

– fikrni ifoda etishning yondosh (parallel) usullaridan, til vositalari yordamida yuzaga chiqadigan his-hayajonlarni;

– turli maqsadlarda va nutqiy muloqot sharoitlarida til vositalarining turli yo'sinda birikuvi, qo'shiluvi usullari, tartibini;

– nutqiy muloqotda, yozma va og'zaki nutqda til unsurlari, kategoriyalarining amalda qo'llanilish qonuniyatlari va o'ziga xosliklarini.

U darvozaga yaqinlashayotgan edi, nimadandir cho'chib chetga burildi. Chunki darvozadan chiqib qolgan ikki kishini ko'rib, bularning birini qayin otasi bo'lib chiqmagidan hurkkan edi. (Abdulla Qodiriy).

Mazkur parchadagi jumlalar grammatika nuqtayi nazaridan to'g'ri ekanligini hech bir tilshunos inkor etmaydi. Faqat leksikolog so'z qo'llash xususida me'yordan ma'lum darajada chetlashish borligini qayd etadi va shu bilan cheklanadi. Faqat uslubiyatchi mutaxassisgina birinchi jumlada *cho'chimoq,* ikkinchi jumlada *hurkmoq* so'zining qo'llanilganiga nega deya e'tibor beradi va uning tahliliga kirishadi, bunday ikki xil qo'llash mohiyatini ochib beradi.

Birinchi jumladagi *cho'chimoq* fe'lining genetik ma'nosi kutilmagan holatdan xavotirga tushmoq ifodasini beradi, ya'ni holat, harakat xavotir bilan bog'liq va bu holat ayni insonlarga xos.

Ikkinchi jumladagi *hurkmoq* so'zining genetik ma'nosi jonivorlarga, ularning ham muayyan turi – ot, eshak, qora mol, tuyaga xos holat, harakat ifodasini beradi va bu holat, harakat qo'rquv bilan bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi har ikki jumla grammatika qoidalariga muvofiq tuzilgani, ya'ni ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar o'z o'rnida, so'zlarning birikmaga kirishuvi ham me'yorida ekanligi tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan to'g'ri, deya tan olinadi va bular uning o'rganish obyekti hamda predmeti hisoblanadi.

Leksikologlar c*ho'chimoq, hurkmoq* so'zlarining bir-biriga sinonim ekanligi, faqat *cho'chimoq* so'zining ma'no ifodasi betaraf, hurkmoq so'zi ma'nosi (insonga nisbatan qo'llanganda) bo'yoqqa egaligini ta'kidlash bilan kifoyalanadilar.

Uslubiyat bo'yicha mutaxassislar, boshqacha aytganda, semik tahlil bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar esa, har ikki so'z, garchi sinonim bo'lsa-da, nega qo'llanildi, degan savolni qo'yadi va leksik birliklar grammatik kategoriyalarni semik tahlil qilishga o'tadi. Tilshunoslikdagi semik tahlil "Adabiy tahrir" fanida mantiqiy tahlil deyiladi – har ikki ibora teng ma'noga ega. Tajribasiz muharrir (uslubiyat, semik tahlil, mantiqiy tahlildan xabarsiz) nega endi insonga xos holat, harakat belgisini jonivorlarga xos holat, harakat belgisini ifoda etuvchi so'z bilan atash kerak, deya *hurkmoq* so'zini *qo'rqmoq* so'zi bilan almashtirsa yoki konstruksiyani o'zgartirsa, tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qoidadan tashqari hisoblanmaydi. Mikrotahrir nuqtayi nazaridan ham shunday.

Ammo uslubiyat nuqtayi nazaridan qaralsa, boshqa holat ayon bo‘ladi.

Adib badiiy matn yaratishdan avval, albatta, uning kompozitsiyasi, o‘z maqsadi va bu maqsadni amalga oshirishda tildagi vositalardan qanday foydalanish va boshqalar haqida chuqur mulohaza yuritadi. Natijada muallifning individual uslubi yuzaga keladi.

Abdulla Qodiriy birinchi jumlada *cho‘chib* ravishdoshini qo‘llaganining boisi, uni cho‘chitgan narsa, hodisa hali ma’lum emasdi. Ana shu nogahoniy ta’sirdan Otabek cho‘chib tushadi. Albatta, cho‘chishlikka qo‘rquv sabab bo‘ladi. Keyingi jumlada esa hurkib ravishdoshi – cho‘chibning sinonimidan foydalanadi. Nega? Uslubiyat ana shu negaligini tadqiq etadi va quyidagi xulosaga keladi:

– cho‘chib so‘zi ma’no ifodasida hali qo‘rqish hissi yo‘q, u xavotirlanish, sergaklanish ma’no ifodasini beradi;

– hurkib so‘zi ma’no ifodasida esa qo‘rqish hissi ma’no ifodasi ayon seziladi;

– birinchi holatda xavotirga solgan, sergaklantirgan obyekt noma’lum;

– ikkinchi holatda qo‘rquvga sabab bo‘lgan obyekt – ikki kishi ma’lum;

– ikki kishidan biri “qayin otasi bo‘lib chiqmog‘i”.

Otabek, agar har ikki kishi begona ekanini avvaldan bilganda edi qo‘rqib o‘tirmasdi. Chunki ular Otabekka tanish bo‘lmagan bir yo‘lovchi sifatida qarar va ahamiyat bermas, to‘qnash kelganda ham salom-alikdan nariga o‘tmasdi. Lekin, ikki kishidan biri qayin otasi bo‘lsa-chi, ...

Ot, tuya ... lar uncha-munchaga hurkimaydi. Ularni hurkituvchi ta’sir, ya’ni qo‘rqinch kuchli bo‘lishi kerak. Qayin otasi bilan uchrashib qolish Otabek uchun kuchli qo‘rqinch edi. Undagi ana shu qo‘rqinchni ifoda etish uchun Abdulla Qodiriy *hurkib* ravishdoshidan foydalanadi. Aslida *hurkib* so‘zini kishilar tushib qolgan holat va ularga xos harakat ifodasi uchun qo‘llash faqat salbiy ma’noda bo‘lishi mumkin. Lekin Abdulla Qodiriy o‘z ijobiy qahramoniga nisbatan qo‘llaydi va qayin otasidan dashnom olib, qattiq izza bo‘lgani uchun bunday uchrashuv qay darajada og‘ir ekanini ifodalash maqsadida hurkib so‘zini – ijobiy ma’no bo‘yog‘iga ega bo‘lishga “majbur” etadi. Uslubiyat ana shuni tadqiq etadi, adib individual uslubini ochib beradi.

Biz yuqorida uslubiyat nutq madaniyati bilan jips aloqada degan edik. Zero, uslubiyat funksiyaviy-kommunikativ fanlar sirasiga kiradi.

Bu fanlarni tilga bo‘lgan umumiy asosiy yondashuv birlashtiradi. Mavzkur fanlar til egalarining nutqiy muloqot jarayonida til vositalaridan foydalanishlaridagi o‘ziga xoslik va qonuniyatni o‘rganadi.

Demak, uslubiyat, nutq madaniyati, ortologiya, ritorika, til unsurlari va kategoriyalaridan adabiy nutq doirasida oqilona, me’yorida foydalanishni tahlil etadi.

Nutq madaniyati haqidagi ta’limda til birliklaridan kundalik nutqiy muloqotda, yozma va og‘zaki tarzda adabiy jihatlari doirasida foydalanish ko‘rib chiqiladi.

Nutq madaniyati deyilganda alohida olingan bir kishi va aholi nutq madaniyatining umumiy darajasi ham nazarda tutiladi.

Nutq madaniyati bo‘yicha mutaxassislar amaldagi adabiy nutq me’yorlari tizimi nuqtayi nazaridangina emas, balki, individual hamda umumiy nutqiy madaniyatga uning qanchalik mantiqiy bayonidagi aniq-tiniqlik va ifodalilik (estetik) ekanligini ham nazarda tutadilar.

Adabiy me’yorlar nuqtayi nazaridan nutq madaniyatiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– til vositalaridan foydalanishning asoslangan bo‘lishi;

– matn tuzilishi mantiqan izchillikka ega bo‘lishi;

– bayon aniq-tiniq, tushunarli bo‘lishi.

Shunday qilib, nutq madaniyati sohasidagi tadqiqot o‘z ichiga faqat adabiy nutqnigina emas, balki xalq so‘zlashuv tilini ham to‘liq qamrab oladi, demak, oddiy og‘zaki so‘zlashuv unsurlari, xalq shevalari, jargonlar-jinoyatchilar argosidan tortib, to kasb-hunarga oid nutqdagi bilgan-bilmagan holda og‘zaki, yozma nutqqa, shu jumladan adabiy nutqqa o‘tadigan barcha-barcha unsurlar tahlil etiladi.

Ayni mana shu masalalar bilan shug‘ullanishiga ko‘ra nutq madaniyati uslubiyatga yaqinlashadi.

Uslubiyat esa nutq madaniyatidan farqli o‘laroq asosiy e’tiborni adabiy nutqqa qaratadi. Adabiy nutqqa xos bo‘lmagan hodisalarga ular tufayli erishilgan uslubiy samara nuqtayi nazaridan qaraydi va unga qanchalik erishilgani (yoki erishilmagani)ni, adabiy nutq me’yorlariga asoslangan matnga qancha o‘rinli yoki o‘rinsiz kiritilganini baholaydi.

Nutq madaniyati tadqiq etadigan adabiy nutqqa xos bo‘lmagan hodisalar doirasi uslubiyatdagidan kengdir. Buni kundalik nutqda me’yorlashmagan hodisalar cheklanmagan miqdorda uchrashi bilan izohlash mumkin. Hatto, shaxsiy yozishmalar ham bundan holi emas. Agar kundalik nutqiy muloqotda me’yorlashmagan nutqdan bevosita turmush tashvishlari xususidagi suhbatlarda, nutqiy muloqot vaziyatga ko‘ra bo‘lganda foydalanilsa, adabiy matnga ular muayyan uslubiy maqsadga ko‘ra kiritiladi.

Individual nutq ham, umumiy nutqiy madaniyat ham til egasining saviyasiga, ijtimoiy ongga, adabiy nutq rivoji va uning hozirgi darajasiga bog‘liq.

Adabiy tahrir – filologiyaning amaliy fanlararo tarmoqlaridan biri. Bu fan uslubiyatni, uning asosiy tuzilmaviy qismlarini, shuningdek, nutq madaniyatini, asosiy tasviriy lingvistik fanlarni chuqur bilishni talab etadi.

Adabiy tahrir matn, qo‘lyozma maqsadga muvofiqligi, aniq maqsadga qaratilganligi masalalari bilan ular intellektual, ekspressiv (ham estetik, agar matn badiiy bo‘lsa), mazmuni, muallifning o‘ylagani, muayyan matn, qo‘lyozma nimaga mo‘ljallanganligi, hammasi to‘g‘ri bo‘lishligi masalalari bilan shug‘ullanadi.

Demak, matn, qo‘lyozmani adabiy tahrirdan chiqarish turdosh fanlar – tasviriy tilshunoslik (leksikologiya, frazeologiya, grammatika, punktuatsiya va b.), funksiyaviy uslublar (umuman uslubiyat), semantologiya, ortologiya va nutq madaniyati kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq ekan. Adabiy tahrir muvaffaqiyati tahrirchidan chuqur bilimli bo‘lishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Винокур Г.О. Филологические исследования. – Москва, 1989. –221-б.
2. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – Москва, 1981. –173-б.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985.
4. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Xojiev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 1980. –7-b.
5. O‘zME, 1-j. –127-b.
6.Энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1984.–716-б.
7. Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – Москва.1978.–117-б.
8. Qodiriy H. Otam haqida. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti , 1983. – 46-b.

Rahmatilla MUSURMONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Maktab menejmenti” kafedrasi dotsenti, p.f.n.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDA REFLEKSIV KO‘NIKMALAR

Annotatsiya

Maqolada maktab o‘quvchilarida dars jarayoniga ijobiy munosabatni barqarorlashtirishda o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklarini aniqlash va korreksiyalash (refleksiv faoliyat) ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari to‘g‘risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Modernizatsiyalashgan ta’lim, darsga ijobiy munosabat, refleksiv ko‘nikmalar, o‘quvchilar, pedagogik xodimlar, tizimli yondashuv.

В статье рассмотрены и даны рекомендации по педагогическим условиям формирования у школьников навыков выявления и коррекции ошибок-недостатков (рефлексивной деятельности), допущенных посредством самоанализа в стабилизации положительного отношения к процессу урока.

Ключевые слова. Модернизированное образование, позитивное отношение к уроку, рефлексивные умения, учащиеся, педагогический коллектив, системный подход.

The article reflects on the pedagogical conditions for identifying and correcting (reflexive activity) skills that schoolchildren have made by self-analysis in stabilizing a positive attitude towards the course of the lesson and gives recommendations.

Key words. Modernized education, positive attitude to the lesson, reflective skills, students, teaching staff, systematic approach.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlarida ularda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish uchun ularni tahliliy fikrlashga o‘rgatish asosida refleksiv faoliyatini tashkil etish zarur, chunki ko‘proq tahliliy fikrlash ularning o‘zi tomonidan mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonlarida, ya’ni o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. O‘quvchi tomonidan ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish yo‘nalishidagi o‘zining irodaviy xatti-harakatlarining amaliy ahamiyatini va zaruratini mustaqil ravishda tahlil qilishi hamda tushunishi ularning refleksiv faoliyati jarayonlari hisoblanadi.

Refleksiv yondashuv asosda tashkil etilgan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlari o‘quvchilarni o‘z faoliyati va faolligini, bilimi va dunyoqarashini o‘zi tomonidan tahlil qilishga, darsga bo‘lgan munosabatini mustaqil ravishda obyektiv baholashga undaydi.

Demak, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlarida refleksiv yondashuv o‘quvchilarning o‘z faoliyati natijalarini hech qanday qarshiliksiz o‘zi tomonidan mustaqil o‘rganish, o‘z shaxsiy imkoniyatlari va undan foydalanish samaradorligini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholashga undovchi vaziyatlarni vujudga keltirishi bilan bir qatorda, o‘qituvchi tomonidan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarni mustaqil ta’lim olishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida motivlashtirish jarayonlarini tashkil etishga keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o‘quvchilarni tahliliy faoliyatga undashga xizmat qiluvchi qulay refleksiv ta’limiy muhit vujudga keladi. Refleksiv ta’limiy muhitni vujudga keltirish o‘quvchilarning ta’lim olishga shaxsiy moyilligi va qiziqishi darajasini aniqlash va o‘rganilayotgan mavzuga, uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqish shakllantirish asosida ularning refleksiv faoliyatini amalga oshirishga, faolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyat jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi rivojlanib borib, ularda o‘qish va o‘rganishga moyillik o‘z faoliyatini tahlil qilish asosida shakllanadi. Refleksiv faoliyat jarayonida dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar o‘qish va o‘rganishi uchun qanday to‘siqlar xalaqit berayotgani, o‘zi nimaga ko‘proq qiziqayotgani, ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishning amaliy ahamiyati nimadan iborat ekanligini mustaqil tushunib yetadi. Refleksiv faoliyat jarayonida nafaqat dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar, balki faol o‘quvchilar ham o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qiladi hamda obyektiv baholaydi. Shuningdek, ularda o‘qish va o‘rganishga moyillik va qiziqishlar shakllanishi bilan bir qatorda, ularda to‘g‘ri kasb tanlash va kasb-hunar o‘rganish mas’uliyati shakllanadi.

Demak, refleksiv faoliyat jarayonlarida o‘quvchilarning refleksiv qobiliyatlari rivojlanib borib, ularda refleksiv ko‘nikmalar shakllanadi. Refleksiv ko‘nikmalar shakllangan o‘quvchi o‘qish va o‘rganish, o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish va obyektiv baholash qobiliyatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida unda ma’lum bir voqelik yoki hodisani, o‘tmishni yoki o‘tmishdagi jarayonlarning oqibatlarini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash kabi fazilatlar shakllangan bo‘ladi.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi esa qo‘llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlariga hamda tatbiq etiladigan yondashuvlarni vaziyatlarga ko‘ra to‘g‘ri tanlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, beriladigan axborot va ma’lumotlar hajmi hamda mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarning moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlariga mos kelishi, axborot va ma’lumotlarning aniqligi, ishonchli dalillar asosida qiyosiy tahlil qilinishi ham samaradorlikni ta’minlashiga xizmat qiladi.

Demak, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining sifat va samaradorligi, eng avvalo, mazkur jarayon subyektlarining mahorati, tashkilotchilik, ijodkorlik va izlanuvchanlik qobiliyati, bir so‘z bilan aytganda ularning kasbiy kompetentliligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish texnologiyalarining maqsadi va vazifasiga ko‘ra ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlarda refleksiya, pedagogik refleksiya, refleksiv faoliyat, o‘qituvchining refleksiv faoliyati tushunchalari turlicha talqin qilinsa-da, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari o‘quvchilar tomonidan o‘zini o‘zi va o‘z faoliyati natijalarini o‘zi tomonidan mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirish jarayonlari ma’nosida qo‘llaniladi.

O‘qituvchining refleksiv faoliyati haqida fikr yuritilganda esa, eng avvalo uning mazkur jarayondagi prinsipialligi, ya’ni dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabatlar va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlaridagi prinsipiallikni tushunish mumkin. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonidagi prinsipiallik o‘quvchilarning o‘z faoliyati yoki xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish, ishonchli dalillar vositasida taqqoslash, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirishga o‘rgatishda o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lishidir.

O‘quvchining refleksiv faoliyati esa o‘z faoliyati yoki xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish, ishonchli dalillar vositasida taqqoslash, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirish asosida o‘z o‘quv faoliyati ahamiyatini tushinishi va ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish yo‘nalishida yangi pozitsiyasining shakllanishidir. Shunday ekan, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining refleksiv faoliyati tushunchasi o‘quvchining refleksiv faoliyati (o‘quvchi pozitsiyasi) tushunchasidan farq qiladi. O‘quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, murakkab pedagogik tizim hisoblanadi.

Demak, innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish zarur. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga tizimli yondashuvni tatbiq etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sifat va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashqi muhitda xizmat qilayotgan innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish, tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish zarur. O‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyati yo‘nalishida vaziyatlarga ko‘ra vujudga kelayotgan talablar hamda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish zaruriyati samaradorlikni ta’minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlari samaradorligi dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari majmui hisoblangan tizim komponentlarini o‘zgartirish, ularni qayta tashkil etish va moslashtirishga bog‘liq bo‘lib, o‘zgartirish, qayta tashkil etish va moslashtirishda ham tizim komponentlari hisoblangan jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Xususan, ta’lim va mustaqil ta’lim jarayonlari, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, motivlashtirish jarayonlarining har birining o‘ziga xos xususiyatlarini misol keltirish mumkin.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda, yaxlit tizim sifatida tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda mazkur jarayonlar samaradorligini ta’minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq etishning ahamiyatini quyidagi tamoyillar orqali asoslash mumkin:

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari subyektlari sifatida o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat ko‘rsatishi, ya’ni mazkur jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion murakkab pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi ahamiyatlidir.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ana shu sifat va vositalarga jiddiy e’tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talabalik davrida ularda refleksiv faoliyat yuritish ko‘nikmalari shakllanmagan bo‘lsa, bu juda katta yo‘qotish, bo‘lajak o‘qituvchining kompetentlik darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktab menejmenti” kafedrasi professor-o‘qituvchilari talabalarga o‘z faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilish, erishilgan yutuqlarning sabab oqibatlari va yo‘l qo‘yilgan kamchilik-nuqsonlarga barham berish uchun mustaqil ta’lim olish, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning sabablarini tafakkur qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida e’tibor berib kelmoqdalar. Professor-o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorlikda klaster metodi asosida olib borayotgan faoliyatlari natijasi o‘laroq, darsdan tashqari maktab menejmenti yo‘nalishi talabalari bilan tashkil etilgan to‘garaklarda ta’lim samaradorligini ta’minlashning nozik jihatlari o‘rgatilib kelinmoqda. Bu borada pedagogika fanlari doktori, professor Himmataliyev Do‘stnazar Omonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Rahmatilla Musurmonov, pedagogika bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Akbar Nomozovich Rasulovlarning olib borayotgan amaliy ishlari va nazariy ma’ruzalari boshqalarga o‘rnak bo‘lib, o‘zining samarali natijalarini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov J., To‘raqulov X.A., Alqarov Sh., Usmonov N.O‘., Pedagogika. – T.: “Noshir”, 2011.

2. Abdullayeva D., Yorqulov R., Atabayeva N. Oila psixologiyasi. – T.: “Tafakkur Bo‘stoni”, 2015.

3. Asqarova. O‘.M., Xayitboev M., Nishonov M.S. Pedagogika. – T.: “Talqin”, 2008.

4. G‘oziyev E.F., Meliboeva R.N. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Faxrizoda”, 2009.

5. Musurmonov R., Musurmonova M. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabatlarini klaster asosida o‘rganish. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “ZEBO PRINT” MCHJ, 145 b.

Zulayho NEGMATOVA,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

ETNOPEDAGOGIK MANBALARNING TURLARI VA TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada etnopedagogik manbalarning turlari, ta’lim jarayonida qo‘llanishi, tarbiyaviy imkoniyatlarining o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy kamoloti, badiiy-ijodiy tasavvurlarini shakllantirishdagi ahamiyati muammo sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Etnopedagogika, manba, tarbiyaviy imkoniyat, badiiy-ijodiy, yosh xususiyat, ta’sirchanlik, umuminsoniy g‘oyalar.

В статье научно-теоретически проанализированы виды этнопедагогических ресурсов, их применение в образовательном процессе, значение их воспитательных возможностей в воспитании, духовном совершенствовании, формировании художественно-творческого воображения учащихся как проблемы

Ключевые слова. Этнопедагогика, источник, образовательная возможность, художественно-творческий, молодой характер, вплечатлительность, общечеловеческие идеи

The article analyzed the types of ethnopedagogical resources, their application in the educational process, the importance of educational opportunities in the formation of students ' educational education, spiritual maturation, artistic-creative imagination as a problem scientifically-theoretically.

Key words. Ethnopedagogy, source, educational opportunity, artistic-creative, young character, impressionability, universal ideas.

Ma’lumki, etnopedagogik manbalar uzoq asrlik tarixga ega bo‘lib, ular xalqimiz yaratgan, ijod qilgan og‘zaki va yozma yodgorlik namunalari hisoblanib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Etnopedagogik yoki unga muqobil atama sifatida qo‘llanuvchi xalq pedagogikasiga doir asarlardan ta’lim jarayonida foydalanishning bir qator ustuvor maqsadlari bo‘lib, ularning o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasida, ma’naviy kamolot darajasining yuksalishidagi ahamiyatlari quyidagilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Birinchidan, etnopedagogik asarlarni o‘quvchilarga o‘rgatish asosida ularning milliy qadriyat, an’ana va marosimlariga bo‘lgan tushunchalari kengaytiriladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilar etnopedagogik asarlarni o‘qish va o‘rganish asosida o‘zlaridagi milliy ruh va e’tiqodiy ko‘nikmalarini o‘stiradi.

Uchinchidan, etnopedagogik asarlarda shakllangan xalqchil g‘oyalar, ularning tarixiy ildizi, tarbiyaviy maqsadi o‘quvchilarni ona-Vatanga muhabbat, mehnatga da’vat hamda axloqiy ko‘nikmalar yordamida aqliy qobiliyatini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, o‘quvchilar etnopedagogik asarlarni o‘rganish orqali tevarak-atrofdagi narsa-hodisalarning yaxshi va yomon xislatlarini anglashga, badiiy-ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish uchun muhim amaliy va nazariy qurol vazifasini o‘taydi.

Shuningdek, etnopedagogik asarlardan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati, asosan, o‘quvchilarda insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishi, mehnatsevarlik, do‘stlik, ahllik, jasurlik kabi ijobiy fazilatlar ulug‘lanib, dangasalik, qo‘rqoqlik, adolatsizlik kabi salbiy qusurlar qoralanadi. Dastlab biz etnopedagogika, uning o‘rganish obyekti va

vazifalari borasida fikr yuritsak.

“Etnopedagogika – etnik guruhlarning ta’lim tarbiyalari, oila, urug‘, avlod, millatning qadimiy qadriyatlariga ma’naviy, Botiniy va Zohiriy qarashlari haqidagi fandir. U xalq pedagogikasidan zamonaviy sharoitlarda foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi, etnik guruhlarning bu boradagi tajribalarini tatbiq etadi. Boshqacha qilib aytganda, etnopedagogikaning turli xalqlar tarbiyasining tarixi va nazariyasi sifatida ko‘rish mumkin. Barcha xalqlarda benazir aql, xushmuomalalik, mardlik, haqqo‘ylik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi”.

Shulardan ko‘rinib turibdiki, etnopedagogika fan sifatida xalqimiz aqliy shuuri asosida yaratilgan, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy yodgorliklar bo‘lib, yosh avlodni axloqiy va aqliy kamolotga undovchi, sog‘lom turmush tarzini yuzaga keltiruvchi didaktik qarashlar nazariy jihatdan mujassamlashtirilgan majmuadir. Xalq pedagogikasining ta’sir kuchi va ahamiyati esa, “birinchidan uning hayotiyligi, ta’sirchanligi, serqirra, serma’noligida bo‘lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an’analarda yaratilishi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo‘nalishga, umumbashariy g‘oya maqsadlarga qaratilganidadir”.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari ajdodlarimiz bebaho tafakkur mevasi hisoblanib, ular xotira manbai sifatida ajdodlardan avlodlarga og‘zaki o‘tib kelmoqda. Folklor asarlari turli tuman bo‘lib, har bir janr o‘ziga xos didaktik g‘oyani mujassamlashtirganligi, badiiy yuksakligi bilan ajralib turadi. Ta’lim jarayonida folklor asarlaridan foydalanish o‘quvchilarning har tomonlama badiiy-ijodiy tafakkuri, aqliy salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, folklor asarlarini o‘quvchilarga, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishning ham ilmiy-metodologik ahamiyati bo‘lib, u dastlab o‘quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olganda holda yondashuvni talab etadi. Chunki folklor asarlaridan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish hayotdagi narsa va hodisalarning yaxshisi nima-yu, yomoni nima degan qarash yetakchilik qilib, ular o‘quvchilarni asar matnida qo‘yilgan g‘oyaviy maqsadni anglashga, mustaqil fikr yuritish hamda qo‘yilayotgan muammo borasida ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Ikkinchidan, bu xususiyat boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarning folklor asarlarini o‘zlashtirish, ularni tushunib olish, fikr yuritish qobiliyatini kengaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga folklor asarlarini o‘rgatish jarayonida dastlab ularning pedagogik-psixologik yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashuv talab etiladi. Pedagoglar bolalarning yosh xususiyatiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladilar. M. Jumaboyev bolalar adabiyotini o‘quvchilarning yosh xususiyatiga ko‘ra o‘rgatish jarayonini uch guruhga ajratish mumkinligini ta’kidlaydi:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2-7 yosh).
2. Kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (7-10-11).
3. O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (12-14 va undan yuqori).

O‘z navbatida boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarga tavsiya etiladigan adabiy-badiiy matnlar, ya’ni xalq og‘zaki ijodi asarlarining mavzusi, hajmi va turiga nisbatan ham ularni 1–2-sinflar hamda 3–4-sinf o‘quvchlariga mos keluvchi etnopedagogik asarlar sifatida tasniflash mumkin. Chunki darslikda keltirilgan folklor asarlari bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiyati, o‘ziga xos tabiati, qiziqish doiralarini qamrab olgan bo‘lib, ular turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, 1–2-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan asarlar qiziqarli, ixcham, bir syujetli, tili sodda va ravon bo‘lishini talab etadi. “Kichkintoylarga bag‘ishlangan asarlar syujetining muhim xususiyatlaridan biri, o‘quvchi diqqatini tutib turuvchi qiziqtiruvchanligidir. Chindan ham badiiy asarning

syujeti qiziqarli bo‘lsagina o‘z vazifasini to‘la bajarishi mumkin. Kitobxonni zerikarli voqealar tasviri orqali dunyoni bilib olishga majbur qilib bo‘lmaydi. Bunday asarning yosh avlod uchun hech qanday manfaati yo‘q. Demak, qiziqtiruvchanlik o‘z-o‘zicha bo‘lmay, balki ijodkor g‘oyasining kitobxon hissiyotiga faol ta’sir ko‘rsatishiga mo‘ljallanishi bilan xarakterlanadi. Avvalo, qiziqarlilik, - deb yozgan edi bolalar adabiyotining tadqiqotchisi I.Motyashov, - kitob qaysi yoshdagi bolalarga mo‘ljallab yozilgan bo‘lsa, ularni qiziqtira bilishi lozim. Tushunarli bo‘lmagan va zerikarli kitob yaxshi, muhim narsalar haqida hikoya qilishiga qaramay, jonsizdir. Ikkinchi haqiqat.

Bolalar kitobi o‘ziga xos oyna bo‘lib, yosh kitobxon dunyoni birinchi marta shu oyna orqali kuzatadi... Bolalar hayot qanday bo‘lsa, shunday – go‘zal va xunuk, quvonchli va qayg‘uli, yorqin va qabih tomonlarini ko‘ra bilsin”. Bu yosh o‘quvchilarda diqqat, idrok etish, tafakkur, xotira, xayol kabi ruhiy jarayonlar to‘liq rivojlanmaganligi bois kattaroq hajmli asarlarni qabul qilishda qiynaladilar. 1–2-sinflar uchun mo‘ljallangan “O‘qish savodxonligi” darsligida shuning uchun ham mana shu kabi folklor asarlariga e’tibor qaratilgan. Maqol, topishmoq, ertak, rivoyat va bolalar qo‘shiqlariga doir namunalarning keltirilganligi fikrimizning asosidir.

2-sinf darsligida keltirilgan “Ilmsizlik zulmati” rivoyati personajlarning ota-ona, chol va bola timsolida keltirilishi, hajmining ixchamligi ushbu yosh bolalar uchun har taraflama mos keladi. Darslikning o‘ziga xos jihatlaridan biri dastlab rivoyat tushunchasiga izoh keltirilib, o‘quvchilarning nazariy jihatdan savodxonlik darajasini oshirishga harakat qildiriladi. Ikkinchidan, rivoyat matni orqali o‘quvchilarga ilmning afzalligi, ilmsizlik zulmat, qabohat, razolat ramzi ekanligi uqtiriladi. O‘quvchilar rivoyat matnida tasvirga olingan ota-onasining tanbehiga quloq solmagan farzandining “Men katta bo‘lsam, cho‘pon bo‘laman, qo‘y boqish uchun o‘qish kerak emas”, degan fikrini anglab, unga munosabat bildirishga o‘rganadilar. Syujetining qiziqarliligi esa bolaning muammoga duch kelish tasviri orqali badiiy aksini topgan. Bu esa o‘quvchini tinglash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Rivoyat voqealaridagi bolaning qo‘ziqorin terish orqali tepalikka chiqishi va yo‘ldan adashib, ko‘prik yoniga borishi, uning atrofida ko‘rsatilgan ogohlantirish yozuvini o‘qiy olmaganligi, bu esa bilimsizlikning natijasi ekanligining yaqqol ifodasi bo‘lib, rivoyatda g‘oyaviy va badiiy jihatdan tasvirlangan.

Rivoyatdagi “ko‘prikdan o‘tilmasin” yozuvini o‘qiy olmagan bolaning suvga cho‘kishi, yordam qo‘lini cho‘zgan cho‘ponning: “Nega bu ko‘prikdan o‘tding?! Ko‘prik ustidagi “Bu ko‘prikdan yurmang, nariroqda yangi ko‘prik bor” degan yozuvni ko‘rmadingmi?” degan fikridagi savol ohangi bolaning o‘qishni bilmasam nima qilay javobida yechimini topadi. Rivoyatdagi voqealarning aql bilan ish tutish, uning uchun bilimli bo‘lish kerak degan g‘oyasida mujassamlashgan xulosada o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy hayotlariga tayana boradi. Rivoyat mazmuni orqali o‘zlari ko‘rgan va bilgan narsalar asosida tasavvurlarini shakllantiradilar. Umuman, folklor asarlarining darslikda keltirilishi bu yosh bolalarini har tomonlama qiziqishini orttirishga harakat qildiradi.

3-4-sinflar uchun tanlangan xalq og‘zaki ijodi namunalari garchi quyi sinflardagi kabi ertak, rivoyat, maqol, topishmoq va tez aytish kabi janrlardan iborat bo‘lsa-da, ular mavzu, g‘oya, syujetdagi voqealar qamrovining ancha sermahsulligi bilan ajralib turadi. Chunki bu yosh o‘quvchilarda mustaqil faoliyat nisbatan rivojlangan, diqqat barqarorlashganligi, ruhiy jarayonga aloqador iroda, xayol, xotira ancha shakllangan bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tinglayotgan o‘quvchilar bexosdan chalg‘imasdan diqqatli bo‘ladi hamda biror narsa uchun fikr bo‘lmaydi. Shuningdek, bu yosh o‘quvchilariga ham kattaroq hajmdagi asarlar qismlarga bo‘lib, o‘qib berilishi tavsiya etiladi. Misol uchun 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida keltirilgan. “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Xo‘p hayda” kabi she’riy matnlar bilan bir qatorda xalq ertaklari o‘quv-biluv materiali sifatida tanlangan. Chunki bu yosh o‘quvchilar

ushbu matnlar haqida tushuncha va fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Matnlarning g‘oyaviy mazmuni, badiiy shakli va tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarning har tomonlama qanoatlantirib, ularni nazariy jihatdan ham boyitadi.

Darslikda keltirilgan “Boychechak” qo‘shig‘i bolalarning mavsumiy-marosim namunasi bo‘lib, u bahorgi mavsumni tasvirlovchi, bolalarga bahorning ilk namunasi sifatida ko‘z-ko‘z qilinuvchi poetik obraz sifatida gavdalanadi. O‘quvchilar boychechak orqali tabiatdagi o‘zgarishlarga, qolaversa, matndagi naqarot bo‘lib keluvchi boychechakning qattiq yerdan unib o‘sish holatini muqoyasalaydilar.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak (42-bet).

Shu bilan bir qatorda “Boychechak” qo‘shig‘i marosimga aloqadorligi o‘qituvchi tomonidan izohlanib, qo‘shiqning mavsum-marosim ekanligi aniqlashtiriladi. Qo‘shiqdagi:

Boychechagim boylandi,

Qozon to‘la ayrondir.

Ayroningdan bermasang,

Qozon-tovog‘ing vayrondir (42-bet), – kabi misrlardagi bolalarning bahor fasli o‘zgarishlariga hamohang bo‘lishlari, dala-qirlarning ko‘klamga burkanishi, nafaqat chiroy baxsh etishi, balki hayvonlar uchun ham ozuqa manbai bo‘lishi qozonda ayronning to‘lishiga ishora ekanligini poetik nuqtayi nazardan asoslamoqda. Qo‘shiqni o‘qib berish jarayonida ham ushbu holatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, lirik mazmunga xos badiiy-estetik zavqni o‘quvchi anglashi, ongli tushunishi ta’lim jarayonidagi asosiy masalalardandir. “Lirik she’rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bunday holda she’riy san’at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, she’r ma’nosining satrlar, so‘zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o‘quvchilar she’rdagi obrazlilikning mag‘zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma’noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta’limning maqsadi ham amalga oshmaydi. She’riy ohangni his qilmaslik, matndagi so‘zlarning ma’nosini to‘la tushunib yetmaslik she’r yodlashni zerikarli mashg‘ulotga aylantiradi. Ma’nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi”.

Xulosa qilganda, etnopedagogik manbalarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Etnopedagogik manbalar bolalarning ruhiy olami, dunyoqarashining shakllanishi, shuningdek, asardagi mazmun va g‘oyalarni qiziqarli va ta’sirchan ifoda etilishida muhim ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda o‘quvchilarning jismoniy va aqliy jihatdan sog‘lom avlod sifatida tarbiyalashni ham qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2015. – B. 7.

2. Hoshimov K., Ochil. S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1995. – B.14.

3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2015. –B. 10-11.

4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2010. – B.4.

5. Safo Matjon. Kitob o‘qishni bilasizmi? –T.: O‘qituvchi, 1993. – B.68.

Umar G‘OYIMOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

“REFLEKSIV QOBILIYAT” TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada refliksiya va qobiliyat tuchunchalarining mazmun va mohiyati hamda refleksiya qobiliyat bugungi kunda yangiliklar yaratuvchi yoshlarni yetishtirib berishda nihoyatda muhim ekanligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, muallif refleksiya tushunchasi, so‘ngra qobiliyat tushunchasiga olimlar tomonidan aytilgan fikrlarni keltirib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Refleksiya, qobiliyat, tasavvur, o‘qituvchi, mahorat, rivojlanish, tashkiliy, psixologik, pedagog, qobiliyat turi, fikrlash, ortga qatish.

В статье говорится о содержании и природе концепций рефлексии и способностей, а также о том, что рефлексия способность чрезвычайно важна для воспитания молодежи, которая сегодня занимается инновациями. Автор также привел мнения, высказанные учеными относительно понятия рефлексии, а затем понятия способности.

Ключевые слова. Рефлексия, способности, воображение, педагог, умение, развитие, организаторские, психологические, педагогические, тип способностей, мышление, обратная связь.

The article mentioned the content and essence of the tuchunchas of reflectivity and ability, and the ability to reflexion are extremely important in raising young people who make news today. The author also cited the concept of reflection, followed by the concept of ability, as expressed by scientists.

Key words. Reflection, ability, imagination, teacher, skill, development, organizational, psychological, pedagogue, type of ability, thinking, feedback.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minlash”[1] kabi muhim vazifalar keltirib o‘tildi.

Hozirgi kunda ilm-fanning rivojlanishi shiddat bilan kechayotgan bir paytda, o‘quvchilarda yangiliklar yarata olish ko‘nikmasini shakllantirish uchun avvalo o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tushuntira olish, yetkaza olish qobiliyatiga bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllanishi kerak bo‘lgan refleksiv qobiliyatni shaklantirishni taqozo etadi. Demak, o‘qituvchiga nisbatan qo‘llaniladigan – refleksiv qobiliyat atamasi hech qachon yoqolmaydi, balki tobora rivojlanib, boyib va zamon talablariga mos bo‘lib boraveradi.

Insonning o‘z faoliyati va “hayot sohibi” sifatida o‘ziga nisbatan ongli munosabati refleksiya orqali takomillashtiriladi, chunki aynan refleksiya anglab yetiladigan voqelikka

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz

nisbatan o‘z munosabatini o‘zi rivojlantiradi. Olimlar B.Z.Vulfov va V.D.Ivanov insonning ichki nazoratning roliga katta e’tibor beradi: o‘zini tahlil qilish, kasbni va u bilan yashash usullarini ongli ravishda tanlash”, bu yerda refleksiya o‘z o‘rniga munosib bo‘lishning faol omilidir, chunki u raqobatbardoshlikning erkinlik, moslashuvchanlik, belgilangan maqsadlarga erishishda qat’iylik kabi muhim sifatlarini rag‘batlantiradi[2].

Avvalo, “refleksiv qobiliyat” tushunchasini aniqlashtirish uchun uning tarkibiy asosi hisoblangan “refleksiv” va “qobiliyat” atamalariga aniqlik kiritish lozim.

Refleksiya muammosi turli olimlar tomonidan turlicha ilgari surilgan va uning rivojlanishida sifat o‘zgarishlari yuz bergan. “Refleksiya” atamasidan fanning ko‘plab sohalarida foydalaniladi, bu esa ushbu atama ko‘p ma’noga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ushbu atama birinchi marta falsafada amaliyot, predmetli moddiy dunyo, madaniyatni yoki kognitiv faoliyatni aks ettirish va o‘rganish; insonning ma’naviy dunyosining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan mustaqil harakatlari va ularning ko‘rinishlari, o‘zini o‘zi anglash faoliyatini tushunib yetishga qaratilgan ijtimoiy rivojlangan insonning nazariy faoliyatining shakli sifatida qo‘llanilgan[3]. Refleksiya falsafiy nuqtayi nazardan tushunib yetish, ongning o‘zini, o‘z qobiliyatlarini, holatini va namoyon bo‘lishini ko‘z oldiga keltirish qobiliyatidir, “nafaqat shunchaki bilib olish, balki o‘zligini bilish qobiliyati; shunchaki bilish emas, balki o‘zing kimligingni bilishing zarurligi”ni[4] ifoda etadi.

Refleksiya (lot.reflexio – ortga qaytish, aks etish).

1. Kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli;

2) fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish;

3) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli;

4) o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi[5].

Refleksiv vazifa bu: muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar tahlili; o‘z faoliyati va kasbiy jihatdan kamol topishidagi korreksion yo‘nalishni aniqlash.

Ko‘plab pedagogik tadqiqotlarda refleksiyani fikrlash, o‘z-o‘zini kuzatish, insonning o‘z e’tiqodlari va qadriyatli munosabatlarini yangicha tushunish, baholash va asoslash uchun o‘z tajribasini o‘ylab ko‘rish, “xulosa, umumlashma, taqqoslash va baholash layoqati; o‘z harakatlarining keltirib chiqarayotgan asoslarga murojaat qilish, yangi vazifani bajarish sharoitida avval foydalanilgan vosita va usullarning yetarli emasligini aniqlash hamda yangi bilimlarni izlashda muvaffaqiyatli harakatlanish imkonini bermaydigan mavjud bilim va ko‘nikmalar doirasidan chetga chiqish qobiliyati ekanligi ko‘rsatilgan.

Psixologik tadqiqotlarda ko‘pincha refleksiya insonning tug‘ma qobiliyati deya keltiriladi, u bilimlar, insonning o‘z ichki dunyosi va shaxslararo munosabatlardagi o‘rni, shuningdek, bilish va o‘zgartirish kiritishga asoslangan faoliyat shakllari va usullariga murojaat qilishda namoyon bo‘ladi. B.Xodjayevning ta’riflashicha individning o‘z ichki dunyosiga, fikrlash tajribasiga, kechinmalar va faoliyatiga, boshqacha qilib aytganda, u ko‘rgan, eshitgan, o‘qigan, o‘ylagan, his qilgan barcha narsalarga murojaat qilishi,

[2] Вулфов Б.З. Иванов В.Д. Основы педагогики: учебное пособие. – М.: УРАО, 1999. – С. 438-439.

[3] Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.

[4] Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.

[5] Педагогика: педагогические теории, системы, технологии / Под ред. С.А.Смирнова. – М.: Академия, 1998. – 510 с. – С.132.

qanday qilib, nima sababdan, nima uchun u bunday qaraydi, harakat qiladi, fikrlaydi, his qiladi kabi savollarga javob topishga undaydi.

Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to‘ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko‘ra bir-biri bilan chambarchas bog‘liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkoni aslo yo‘q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma’lum darajada bilim olish uchun imkoniyat yaratadi. Umumiy va maxsus bilimlarni egallash, shuningdek, kasbiy mahoratni o‘zlashtirish jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivoj topib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko‘nikma va malaka hisoblanadi.

Ko‘nikmalar – o‘qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o‘qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisi.

Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladi. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to‘g‘risida mulohaza yuritishga asos yaratadi.

Bundan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba’zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; a) shaxsning muayyan sifatlari yig‘indisi belgilangan vaqt oralig‘ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya’ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko‘nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma’no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho‘zilib uzoqlashib ketadi, xolos.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki qobiliyatni biz “har bir insonning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari” deb aniqlashtirdik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo‘lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo‘lib faqat anatomo-fiziologik hususiyatlar, ya’ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste’dod bo‘lishi mumkin, qobiliyatning o‘zi ham doimiy rivojlanish natijasida yuzaga chiqadi.

Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshishini nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo‘lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo‘li bilan biz ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo‘llaniladi, degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go‘dakda absolyut eshitish qobiliyati, tovush balandligini bilish dunyoga kelishidan oldin mavjud bo‘lmaydi. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste’dod nishonasi mavjud bo‘lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo‘lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidadir.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham bir tekisda bo‘lmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning

turli bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lishi mumkin. Lekin bo‘lishi mumkin bo‘lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan paydo bo‘lib qolmaydi.

Qobiliyatlar sifatida ro‘yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o‘ziga xos tarzda qo‘yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o‘tamiz:

1) matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish – amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o‘rtasida aloqa o‘rnatish, to‘g‘ri va teskari fikr yuritishdan o‘tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko‘rgazmali obrazlarning jonliligi, “til zehni”, behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o‘zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko‘rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko‘rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o‘zaro bir-biriga o‘xshamagan talablari bilan tafovutga egadir.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o‘xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo‘lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yuqoridagilardan aniq bo‘ladiki refleksiv qobiliyat bu o‘qituvchining o‘z-o‘ziga baho berish qobiliyati, ya’ni oldin o‘tib ketilgan narsa yoki jarayonga qatishi va undagi kamchiliklarni tuzatish, hamda yutuqlarni aniqlay olish qobiliyatidir. Deylik o‘qituvchi darsdan chiqqandan so‘ng o‘zi o‘tgan darsini tahlil qiladi, ya’ni ortga qaytadi. Bunda u darsdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlay boshlaydi. Masalan, bugun darsda 30 ta boladan 22 tasi darsga diqqat bilan quloq soldi, ammo qolgan 8 ta bolada bu holat kuzatilmadi. Shu jarayonda o‘qituvchi o‘ziga-o‘zi savol beradi. Nima qilganimda o‘quvchilarning diqqat e’tibori mendan ketmasdi? Nima qilganimda o‘sh 8 ta bolani ham mavzuni o‘ylashga qarata olardim? Bu yerda qanday xatoga yo‘l qo‘ydim? Mavzuni boshqacha usulda tushuntirganimda o‘quvchilarning hammasini diqqat e’tibori qochmasdi? Mavzuni eshitishni ham xohlamagan Azimjonga darsda turg‘izib gapirishim kerak edimi yoki darsdan keyin alohida gaplashishim kerakmidi? Darsni qanday tushuntirganimda dars hamma uchun bundanda qiziqarli bo‘lardi? Kabi savollar o‘qituvchini o‘z-o‘zini nazorat qilishiga va ortga nazar solib o‘z darsini tahlil qilishga undaydi. Bu esa refleksiv qobiliyatni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz

2. Вулфов Б.З. Иванов В.Д. Основы педагогики: учебное пособие. – М.: УРАО, 1999. – С. 438-439.

3. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии / Под ред. С.А.Смирнова. – М.: Академия, 1998. – 510 с. – С.132.

4. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1997. – 136 с.

Ollayor AVEZMURATOV,
Urganch davlat universiteti, “Fizika” kafedrasi dotsenti
Zebo AVEZMURATOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti, “Fizika-matematika va texnologik ta’lim fanlari” kafedrasi dotsenti

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida uchinchi Renessans davri poydevori qurilayotgan yangi O‘zbekistonda birinchi Renessans davrining buyuk namoyondalaridan bo‘lgan ajdodlarimiz Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Renessans, Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Akademiya, Ma’mun akademiyasi, Oy tutilishlari, Quyosh tizimi, ekliptika, sayyoralar, sirtmoqsimon, Qo‘yqirilgan qal’a, Kitobu surat al-arz, algoritm, Geliosentrik, “Tafxim” asari, Al-jabr, Xristofor Kolumb.

В статье показано глубокое изучение и широкая пропаганда в новом Узбекистане богатого научного наследия наших предков Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми и Абу Райхана Беруни, великих деятелей эпохи первого возрождения.

Ключевые слова. Возрождение, Мухаммад ибн Муса Аль-Хорезми, Абу Райхан Берунидир, Академия, Академия Мамуна, Лунные затмения, Солнечная система, эклиптика, планеты, загадочные, Названный замок, Китаб сурат аль-арз, алгоритм, Гелиоцентрика, работа “Тафхим”, Аль-Джабр, Христофор Колумб.

The article shows an in-depth study and extensive promotion of the rich scientific heritage of our ancestors Muhammad ibn Musa Al-Khwarazmi and Abu Rayhon Beruni, who were among the great exponents of the first Renaissance in New Uzbekistan, where the foundation of the third Renaissance was being built on the basis of Uzbekistan's development strategy..

Key words. Renaissance, Muhammad ibn Musa Al-Khwarazmi, Abu Rayhan Berunidir, Academy, Academy of Ma’mun, Lunar eclipses, Solar system, ecliptic, planets, cryptic, Called castle, Kitab surat al-arz, algorithm, Heliocentric, “Tafkhim” work, Al-jabr, Christopher Columbus.

Respublika Ma’naviy va ma’rifiy markazning kengaytirilgan majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”, “Ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat biz uchun ustuvor masaladir”, “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan 10 qadam oldinda yurishi kerak”, shuningdek “Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi bosqichga qaytarishimiz lozim”- degan hozirgi jamiyatimiz uchun zarur bo‘lgan fikrlarni aytib o‘tdi. Shuningdek 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 73-maqsadida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish ko‘rsatib o‘tilgan.

Bugun mamlakatimiz O‘zbekiston qadimiy ma’naviy qadriyatlarga boy, insoniyat sivilizatsiyasining tarixida o‘z o‘rniga ega davlatdir. Biz bunday qadriyatlarimizni ba’zilarini keltirib o‘tamiz. Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy (783-850). Al-Xorazmiy 783-yilda Xivada tug‘ilgan va 850- yilda Bog‘dodda vafot etgan. Xorazm ilmiy maktabining ilk ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Al-Xorazmiy bo‘lib, u Amerikalik sharqshunos D.Sarton ta’biri

bilan aytganda “Barcha zamonlarning eng ulug‘ matematiklaridan biri” edi. Qadimiy Xorazm, Sharqda ilm fanning rivojlanishida juda katta o‘rin tutgan. Xorazmda aniq fanlar – geometriya, trigonometriya, astronomiya, kimyo, minerologiya, tibbiyot va boshqa tabiiy fanlar VIII-XI asrlardayoq yuksak darajada taraqqiy etgan.

Al-Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya sohasida katta ishlarni amalga oshirgan. IX asr boshlarida Bog‘dodda Al-Ma’mun xalifaligi davrida “Bayt al-hikma” ya’ni “Donishmandlar uyi” keyinchalik Bog‘dod yoki Ma’mun akademiyasi - deb atalgan kutubxona tashkil etilgan. Bu Akademiyaga sivilizatsiya markazlari hisoblangan Yunoniston, Misr, Xitoy Hindiston (bular qatoriga Xorazmni ham qo‘shish mumkin) davlatlardan olimlar yig‘ilgan. Akademiyani asosiy ishi yuqorida aytilgan sivilizatsiya markazlaridagi ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlari va kashfiyotlarni Arab tiliga o‘girish bo‘lgan. Bu esa keyinchalik Sharq-Renessansi nomini oldi. Bu Akademiyada 200 dan ortiq olimlar ish olib borgan va ularga Al-Xorazmiy rahbarlik qilgan va boshqargan. Al-Xorazmiy Hindistonning San-skrit tilidagi matematika va arifmetikasini o‘rganadi.

O‘sha paytda ma’lum bo‘lgan hindlarni 1,2,3,4,5,6,7,8,9 belgilarini va bu raqamlar yordamida 3 lik, 6 lik son pozitsiyalarini o‘rganadi, ularni arab tiliga o‘giradi. Bu raqamlar bilan matematik tenglamalar, arifmetik amallarni bajarishda muammolar yuzaga keldi. Al-Xorazmiy bu raqamlar qatoriga 0 ni kiritdi va sanoq boshini 1 dan emas 0 dan boshlash kerakligini tushuntirdi. Bu raqamlar yordamida o‘zining 10 lik pozitsiyasi (tizimlarini) yaratdi. Unga ko‘ra 9 raqamidan keyin 10 ko‘rinishida davom etish mumkin ekanligi, 100, 1000 va 106, 109, 1012 katta sonlarni qisqa yozish mumkinligi, shuningdek, 0 bilan 1 o‘rtasida kichik sonlarni yozish mumkinligini tushuntirdi. Masalan, uzunlik birligi 1 m, 1m/10=1 dm , 1m/100=1 cm, 1m/1000=1 mm, 10-6 m= 1 mikrometr, 10-9 m= 1 nanometr, 10-12 m = 1 pikometr va hakozo.

Bundan ko‘rinib turibdiki Al-Xorazmiyni 10 lik tizimi eng katta sonlarni yozishda va 0 bilan 1 orasidagi eng kichik sonlarni yozishda eng qulay tizim hisoblanadi. Masalan hozir, insoniyatni bilim chegarasi koinotda 1025 m (4000 Mps) bo‘lgan kvazarlarni o‘rganmoqda. Bizni koinotimizning yoshi 13,7 mlrd yil bo‘lgan, u “Katta portlash”dan boshlangan. Koinotni boshida uning zichligi 1094 gr/cm3 bo‘lgan. Agar atom ichidagi zarralarni o‘lchamlarini keltirsak atomlarni o‘lchami 10-9 m – nanometer(1/1000000000 m) atom yadrosini o‘lchami 10-15 m, proton yoki neytronlarni o‘lchami 10-19m, kvarklarni o‘lchami 10-25 m ni tashkil etadi. Insoniyatni bilimi katta tomoni 1025m dan, kichik tomoni 10-25 m ga yetdi. Agar Al-Xorazmiyni 10 lik sistemasi bo‘lmaganda bu o‘lchamlarni hozir insoniyat ifodalab bera olmas edi. Al-Xorazmiy ” Al-jabr va muqobala” asarida, kvadrat tenglamalarni yechimini hozirgi til bilan aytganda “algoritmini” bergan. Bu so‘zni hozir masala yechimini, biror qonuniyat ketma- ketligi yoki dasturi (programmasi) (ayniqsa EHM mashinalar, komputerlar chiqqanidan keyin) -deb biladilar. Aslida esa bu so‘z “algoritm” – Al-Xorazmiy so‘zini o‘zidir ya’ni Al-Xorazmiy bobomizning nomidir.

Al-Xorazmiyni asarlari XII asr boshlarida Ispan-lotin tiliga tarjima qilingan. Uni asarlarida nomi Algoritmos, Algorismus, Alhorismus, Alkauresmus kabi so‘zlar bilan atalgan va nihoyat butun dunyoga “Algoritm“ so‘zi bilan uning “Al-jabr “ asari ispan-lotin tilida j harfi g bilan o‘qilib “ Algebra” sozi kelib chiqqan. Bu yuqoridagi atamalar hozirgi kunda shu qadar muhimki, dunyoda 8 mlrd kishini hammasi shu 10 lik sistemada gaplashadi, ilmda “Algebra” “Algoritm” atamalaridan foydalanishadi.

Ptolomeyning “Buyuk tuzilish” asari Bog‘dod akademiyasida arab tiliga tarjima qilindi va “Al majistiy “ – deb ataldi. Al-Xorazmiy astronomiya sohasida ungacha hech kim qilmagan ishlarni amalga oshirdi. 37 bobdan iborat “ Zij “ yozgan. Bu asarda 116 jadvali va ko‘pgina astronomik hodisalar tushuntirilgan. Eralar haqida, Quyosh tizimi va unda Quyosh, Oy tutilishlari, joylarni geografik tenglamasini aniqlash usullari haqida ilmiy asosda tushuntirishlar beradi.

Al-Xorazmiy birinchi bo‘lib Yerni shar shaklida ekanligiga uzil-kesil xulosaga kelib Yerni radiusini o‘lchaydi. Bu radius orqali Yer yuzidagi har bir gradus(1) yoyga to‘g‘ri keladigan yoy uzunligini hisoblaydi. Uni hisobicha 1=111,8 km, hozirgi qiymati esa 1 = 111,5 km ni tashkil qiladi. 300 m ga xatolik bo‘lgan. Bu xatolik, Yerning hamma joyi aniq shar shaklida emasligi, shundan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. 500 ga yaqin joyni, shaharlarni Quyoshni tush paytidagi balandligiga qarab () geografik kengligini topish uslubini bergan. Shuningdek, geografik kengliklar farqiga qarab ular o‘rtasida masofani hisoblash usulini ko‘rsatib bergan. Bu metod 1957 – yil Yerning sun’iy yo‘ldoshi uchirilib, keyinchalik hozirgi JPS lar ishga tushguncha ishlab kelgan.

Yuqorida keltirilgan uslublar asosida, Al-Xorazmiy hamda Al-Ma’mun topshirig‘iga ko‘ra 70 ga yaqin olimlar bilan birga “Jahon xaritalari” Dunyo atlasi tuzish ustida ish olib boradi. Keyinchalik bu xarita “ Ma’mun dunyo xaritasi” nomi bilan ataladi. Shu asosda “Kitobu surat al – arz” – deb atalgan asari “Yerning qiyofasi kitobi” yoki hozirgi til bilan aytganda “ Geografiya “ ma’nosini beradi. Ko‘pgina olimlar Al-Xorazmiyni geografiyani asoschisi- deb tan oladi. Uning xaritasidan Kolumb va Magellan ham foydalangan, ular borgan joylarida materik orollarini koordinatalarini belgilab borgan, Al-Xorazmiyni hisoblari to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilganlar.

Al-Xorazmiyning bu kashfiyotlarini undan 200 yil keyin yana bir xorazmlik alloma, qomusiy olim, I- Renessans davrining buyuk namoyandasi Abu Rayhon Beruniydir. Abu Rayhon Beruniy qomusiy ensiklopedik olim. Uning hozirgacha 160 dan ortiq asarlar yozganligi aniqlangan. Shundan bizgacha 33 tasi yetib kelgan. Uning eng kop asarlari astronomiyaga bag‘ishlangan bo‘lib (60 dan ortiq), u fizika, matematika, trigonometriya, geografiya, mineralogiya, tarix va xronologiya, tibbiyot fanlari bilan shug‘ullangan. 2023-yil Abu Rayhon Beruniyning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustda “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risidagi” qarori asosida, bu yubiley keng nishonlandi. Toshkent, Nukus, Beruniy, Urganch, Xiva shaharlarida 2023-yil 25–28-sentabr sanalarida “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni” – mavzusida katta xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Bu konferensiyada AQSh, Indoneziya, Italiya, Malayziya, Marokash, Misr, Pokiston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Eron, Hindiston kabi davlatlardan olimlar qatnashdi. Allomaning hayoti va ilmiy faoliyatini turli qirralari yorituvchi maqolalar, ingliz, rus, o‘zbek tillarida to‘plam qilindi. Beruniy ham Al-Xorazmiy kabi, Yerning uzil - kesil shar shaklida ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Al-Xorazmiyni Yer shari haqidagi ishlarini davom ettirib, o‘zining usuli (“Soyalar nazariyasi”) asosida Yer sharining radiusini aniq o‘lchagan. O‘zining “Qonuniy Ma’sudiy” va “Tafxim” asarida Beruniy Yer shari o‘z o‘qida aylanishini 1-bo‘lib aytgan va ekvatordagi nuqtalarni aylanish chiziqli tezligini hisoblab bergan. U aytadi “Agar Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi-deb faraz qilsak, osmondagi harakatlarni, osmonni aylanishini, kecha bilan kunduz almashinish hodisalarini oson tushuntirsa bo‘ladi” - deb ko‘rsatadi.

“Tafxim” asarida “Agar Yer Quyosh atrofida aylanadi deb qarasak, ekliptika, sayyoralarni sirtmoqsimon harakatlarini oson tushuntirish mumkin”- degan xulosaga keladi. Bu fikrlar bilan u 1000 yillar boshida, undan 500 yil keyin ochilgan, Nikolay Kopernikni “Geliosentrik” ta’limotiga asoslar yaratgan edi. Beruniy 22 yoshida 995-yillar 1-bo‘lib diametri 5 m bo‘lgan katta Yernung globusini yasagan. Bu globusni yasashda u albatta Al-Xorazmiyning Yer haqidagi va xarita ma’lumotlaridan foydalanganiga shubha yo‘q. Bu globusda shaharlar, tog‘lar, orollarni φ geografik kengligi, ƛ – geografik uzoqliklari ko‘rsatilgan. Atlantika, Tinch, Hind okeanlari ko‘rsatilgan bo‘lib, Atlantika okeani orqasida uzun quruqlik bor- deb bashorat qiladi. Bu Amerika materigi edi. Hozirgi kunda Amerikani “Kim ochgan”- degan savol ustida Yevropa va Amerika olimlari tortishmoqda. Bir guruh olimlar Amerikani Xristofor Kolumb 1492-yil sayyohlik yo‘li bilan ochgan desalar, 2-guruh olimlar

Amerikani 995-yilda o‘zining globusi oldida, xonasida o‘tirib nazariy yo‘l bilan Beruniy ochgan demoqdalar.

Albatta bu tortishuvlar o‘z samarasini bermoqda. Yaqinda 2024-yil 23-yanvar sanasida Abu-Rayhon-Beruniyga AQSh poytaxti Vashington shahrida, byust haykal o‘rnatildi. Byustni ochilish marosimida AQShning nufuzli davlat arboblari qatnashdi. Unda Xristofor Kolumbdan 500 yil oldin Abu Rayhon Beruniy okean orqasida Amerika materigi borligi haqidagi gipotezasini ilgari surgan degan fikrlar aytildi va tan olinmoqda.

O‘zbekistondan, Xorazmdan tarixda ko‘p daholar yetishib chiqqan. Albatta Xorazmda qadimda ilm-fan, madaniyat rivojlangan bo‘lgan va insoniyat sivilizatsiyasi markazlaridan bo‘lgan deyishga asoslar bor. Bunga qadimgi Xorazm qal’alarini misol qilish mumkin. Bu qal’alarni arxitekturaviy va madaniy qurilishlari qadimiy xorazmliklarni manaviyati va madaniyati haqida xabar beradi. Bunday qal’alar hozirda 50 dan ortiq. Bu qal’alarni ko‘pchiligi Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan, shulardan bittasi To‘rtko‘l tumanida joylashgan “Qo‘yqirilgan qal’a” haqida to‘xtalamiz. Manbalarda aytishlaricha Qo‘yqirilgan qal’a eramizdan oldingi III-VIII asrlarda Xorazmning madaniy ma’rifiy, ilm-fan markazi bo‘lgan, yana manbalarda Xorazmda dehqonchilik madaniyati miloddan oldingi 3000-yillarda vujudga kelgan deyiladi. Dehqonchilik bilan bog‘liq yil fasllarini oldindan aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu esa astronomiya fani bilan bog‘liqdir. Qo‘yqirilgan qal’a o‘z davrida kalendar vazifasini bajargan. Qo‘yqirilgan qal’a 1957-yillar, arxeolog, sharqshunos olim S.P. Tolstov tomonidan qum barxonlari ostidan topilgan va o‘rganilgan. Bu qal’adan eramizdan oldingi I-II ming yilliklar davrida ishlangan sopol idishlar topilgan.

Ba’zi manbalarda Qo‘yqirilgan qal’ani faoliyati eramizdan oldingi I-II hunarmandchilik davrlarida boshlangan va eramizni IV-asrigacha davom etgan deyiladi. Qo‘yqirilgan qal’ada yilning bahorgi (21–22-mart), kuzgi (21-22-sentabr) teng kunliklari, yozgi (21–22-iyun) va qishgi(21-22-dekabr) Quyosh turish kunlari aks etgan. Demak, bu aniq kalendar vazifasini bajarganligiga shubha yo‘q. Albatta u paytlarda hozirgi Yulian- Grigoryan kalendari bo‘lmagan. Uning tarixi 2000-yil. Ba’zi manbalarda Xorazmliklarni 10 kunlik bayrami bo‘lgan. Agar uni hozirgi kalendar bilan solishtirsak 25-dekabrdan 5-yanvargacha bo‘lgan davirga to‘g‘ri keladi. Bu bayram Quyoshni qaytishiga bag‘ishlangan, chunki Avestoda Xorazmliklar Quyoshga sig‘ingan, hozirgi Yangi yil bayramiga to‘g‘ri keladi. Bundan ko‘rinadiki, hozirgi Yangi yil bayramini Xorazmliklar 3000 yillar oldin ham bayram qilganlar va asta-sekin Dunyoga tarqalgan bo‘lishi mumkin. Mana shunday ma’naviy qadriyatlarimizni yoshlar o‘rganishi va rivojlantirishi kerak. Hozir ko‘plab OTM larda yoshlar arab tilini o‘rganmoqda.

Yuqorida aytib o‘tilgan allomalarimizni asarlari arab tilida yozilgan. Abu Rayhon Beruniyni 160 dan ortiq asari ma’lum, shundan 33 tasi bizgacha yetib kelgan. Al-Xorazmiyning 20 ga yaqin yirik asarlari bo‘lgan, shundan 8 tasi bizgacha yetib kelgan, Qo‘yqirilgan qal’ani nomi avval boshqa bo‘lgan. Mana shu muammolarni yoshlarimiz kelajakda yechadilar va boy ma’naviyatimizni kelgusi avlodlarga yana ham boyitib etkazishda o‘z hissalarini qo‘shadilar degan umiddamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Johongashta sayyoh-olimlar. –T.: O‘zbekiston, 2012-y. K. Gadoev, S. Berdiyeva.
2. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. –T.: Fan 1968.
3. Abu Rayxon Beruniy. Tafxim tanlangan asarlar. –T.: Urganch-Xiva-2006 y.
4. “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari Nukus, Urganch, –T.: “Ma’naviyat” nashriyoti 2023 y. 25-26-27-sentabr. Qahhorov S.Q., Avezmurotov O., Avezmuratova Z.A.

Matluba USMONOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internat oliy toifali tarix fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNAT O‘QUVCHILARINI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish, ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni va rolini to‘g‘ri aniqlash, ular o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘lanishlarni, urf-odatlar, marosimlar, qoidalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash muhim o‘rin tutishi aytib o‘tilgan. Shuningdek, mamlakatimiz fuqarolari va o‘quvchilari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, bugungi kunda jamiyatda kuchayib borayotgan loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun zararli ekanligini yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, oila, mahalla, ahloqiy madaniyat, tarix o‘qitish metodikasi

В статье отмечается, что в современных условиях важное место занимает глубокое и всестороннее изучение национальных и общечеловеческих ценностей, правильное определение их места и роли в воспитании подрастающего поколения, выявление специфических связей между ними, их отношения к обычаям, обрядам, правилам. Также было освещено совершенствование национально-идеологической воспитательной работы среди граждан и учащихся нашей страны, выявлено, что социальные пороки, такие как апатия, безразличие, пренебрежение национальными ценностями, которые сегодня усиливаются в обществе, вредны для общества и государства.-.

Ключевые слова. Национальные и общечеловеческие ценности, национальные традиции, семья, соседство, нравственная культура, методика преподавания истории.

The article mentions that in modern conditions an important place is occupied by a deep and comprehensive study of national and universal values, the correct identification of their role and role in the upbringing of the younger generation, the identification of specific ties between them, their attitude to traditions, rituals, rules. It has also been highlighted that social vices such as improving the work of national-ideological education among the citizens and students of our country, increased loyalty in society today, negligence, infertility to our national values are harmful to society and the state.

Key words. National and universal values, national traditions, family, neighborhood, moral culture, history teaching methodology

Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qarshi tahdidlar ortib bormoqda. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan qadriyatlar xalqimizni, millatimizni birlashtiruvchi kuchdir. Shuning uchun ham o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularda millat kelajagi va taqdiri uchun immunitet hosil qilish masalasi biz pedagog o‘qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifalardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘sib kelayotgan yosh-avlod tarbiyasiga to‘xtalar ekan: “Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga mustaqillik g‘oyalariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va

tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatni to‘liq ta’minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega xalqimizning ma’naviyatini asrlar mobaynida mustahkamlashga xizmat qilib kelgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, azaliy an’ana va urf-odatlarning qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo‘l qo‘yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma’nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g‘oyaviy tarbiya mexanizmining ta’siri kamaygani sezilmoqda. Jumladan, uzluksiz ta’lim tizimida milliy g‘oya turkumidagi fanlarga yetarlicha e’tibor berilmayotganligi yosh avlod qalbi va ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantrish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda” deb takidlaganlari ham bejiz emas. Shu maqsadda yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalaridagi o‘quvchi-yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali Vatan taqdiriga mas’uliyat hissini, ertangi kunga ishonchni kuchaytirish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish davr talabi hisoblanadi.

Shunday ekan, Respublikamizda ayni damda 45 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning metodikasi va modelini, mezonlarini ishlab chiqish va pedagogik shart-sharoitlarini yaratish pedagogika nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Respublikamizdagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari ta’lim-tarbiya jarayonida qay darajada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning metodik xizmati asosan o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirilgandir. Viloyat va tumanlarda metodik xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning asosiy vazifasi o‘qituvchilarning ma’naviy-siyosiy saviyasini va pedagogik mahoratini oshirib borishdan iborat. Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablarida muammoliva mavzuli seminarlar, ilmiy-metodik konferensiyalar, pedagogik o‘qishlar, ilg‘or-tajriba maktabi, ochiq-ijodiy namunaviy darslar, trening-seminarlar tashkil etilgan bo‘lib, bunda o‘quvchi shaxsini kamol toptirishda kerak bo‘ladigan barcha metod va texnologiyalar yuqori malakali mutaxassislar tomonidan o‘tkazib kelinmoqda.

Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ijtimoiy fanlarni o‘qitish orqali “Tarix”, “O‘zbekiston tarixi”, “Adabiyot”, “Tarbiya”, “Davlat va huquq asoslari” darslarining yillik kalendar rejalari asos sifatida didaktik xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsa-da, ular asosan amaliy mashg‘ulotlar shaklida beriladi. Bugungi keskin davr barchamizdan ma’naviy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada faollashtirishni talab qilmoqda. Ma’naviyatsiz inson ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham sinf rahbarlari, tarbiyachilar va butun o‘qituvchilar jamoasi oldiga o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhini singdirish asosida yashashga o‘rgatish kabi oddiy, lekin juda muhim vazifa turibdi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari kuchayib, turli g‘oyalar o‘rtasidagi kurash kuchaygan, ommaviy madaniyat xurujlari dunyo bo‘ylab keng tarqalayotgan, internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi axborot inson qalbi va ongini qullikka aylantirishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va usullarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan. Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda “Tarbiya” darsligi, Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtrilgan maktab-internati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyida 2021-yildan boshlab, “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish Konsepsiyasi”ga muvofiq “Vatanparvarlik asoslari”, “Ma’naviyat asoslari” fanlari orqali singdirilib kelinmoqda.

O‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda eng avvalo, ularning asosiy manbalari milliy-axloqiy, diniy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar va marosimlar, tarixiy yodgorliklar, o‘zbek va jahon mutafakkirlarining asarlari orqali o‘quvchi bilimini oshirishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni ham kamol toptirish muhimdir. Shuningdek, maktablarda “Ma’naviyat oyliklari”ni tashkil etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quvchilar bilimi va mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda madaniyat uylari, teatrlar, muzeylarga sayohatlar tashkil etish, to‘garaklar faoliyatini tashkil etish, milliy va ahamiyatga molik umuminsoniy bayramlarni nishonlash, “Ma’naviyat-milliylikda” nomli xalq sayillari, etnik tomoshalar o‘tkazish, ajdodlarning yerga, xalqqa, vatanga, oilaga, mehnatga, dunyoga va san’atga muhabbatlarini aks ettiruvchi fazilatlarini, odob xususiyatlari – salomlashish, mehmondo‘stlik, dasturxon odobi (dasturxonda o‘tirish) kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan usullar orqali yondashish yo‘llarini o‘rgatish zarur.

Shu sababli ham o‘quvchilani milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oilaviy qadriyatlar bilan birgalikda mahallalalardagi oqsoqollar, onaxonlar bilan “Uch avlod uchrashuvlari”ni muntazam o‘tkazish, umumxalq saylovlari va bayramlarni o‘tkazish, milliy marosimlarda qatnashish, tarbiyaviy ishlarni milliy va umuminsoniy fazilatlarni hisobga olgan holda samarali tashkil etish va olib borish uchun maktabning pedagogik ishini oila, maktabgacha ta’lim muassasalari, butun jamoatchilik bilan hamkorlikda tegishli darajada yo‘lga qo‘yish g‘am o‘z samarasini ko‘rsatmay qolmaydi.

Farzandlarimizning kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishi avvalo, uning yoshligida olgan odob-axloqi hamda ilm-ma’rifatiga bog‘liqdir. Shuning uchun bir hadisi sharifda shunday deyiladi: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”. To‘g‘ri, bola yoshlik qilib ta’lim-tarbiya olishning ahamiyatini to‘liq anglamasligi, tushunmasligi mumkin. Shuning uchun barcha ota-onalar farzandlarini yoshlik chog‘laridan boshlab odob-axloqli qilib tarbiyalash bilan birga, ilm-u fanning barcha qirralarini egallashga qiziqtirib borishlari lozim. Ta’lim muassasasida berilayotgan darslarni o‘quvchilar puxta o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratish har bir ota-ona va ustozlarning mas’uliyatli burchidir. Mustaqilligimizni asrab-avaylash, uning qadriga yetadigan, o‘z bilimi va mehnati bilan uni mustahkamlab, Uchinchi renessans poydevorini yaratadigan barkamol avlod tarbiyasi haqida qayg‘urar ekanmiz, diqqat markazimizda hamisha ana shunday sog‘-lom dunyoqarashga ega yoshlarimiz kamol topadigan ma’naviy muhitni barpo etish muhim vazifa bo‘lib qolaveradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tarbiyalash va kamol toptirishda – barkamol shaxs tarbiyasi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bola shaxsi faqat jamoadagina, uning ta’siridagina haqiqiy shaxs sifatida shakllanadi. Hozirgi sharoitda jamiyatning har bir a’zosi biror bir pedagogik jamoaning faol a’zosi bo‘lishi zarur.

Ilg‘or pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ahil jamoada tashkil etilgandagina tarbiyaviy ishlarni olib borish va muvaffaqiyatni ta’minlash osonroq bo‘ladi. Yaxshi tashkil etilgan, sog‘lom jamoada o‘quvchilarning fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘lib, tarbiya jarayonida pedagoglarning asosiy tayanchiga aylanadi. Shu bilan birga aytish kerakki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va qadriyatlarni ta’lim muassasalarida tarbiyalashning o‘ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

Bu borada tadqiqotlar olib borgan H.Giesecke o‘z tadqiqotlarida maktablarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta’limi o‘quvchilarda shakllantirilishi kerak bo‘lgan qadriyatlarni uzatishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligining uchta jihatini ko‘rsatib o‘tadi. Unga ko‘ra, birinchi navbatda, bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning

shakllanishining asosiy qismi ularning yoshi va zamon modasidan kelib chiqadigan tanlovlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning bir qismi ommaviy axborot vositalari, ya’ni bolalar o‘z hayotlarini olib boradigan ijtimoiy sohalar, faqat kichik bir qismini o‘qituvchilar tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchilar o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini mustaqil shaklda yarata olmaydilar, ular faqat to‘ldiruvchi va tuzatuvchi pozitsiyada aralashishlari mumkin. O‘qituvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va qadriyatlar nuqtayi nazaridan maktabdan tashqarida ta’sir o‘tkaza olmasligi bu sohadagi pedagoglarning ta’sirini cheklaydi.

Ikkinchidan, xolislik tamoyiliga ko‘ra, o‘qituvchilar mafkuradan yuqori darajada, asosan kasbiy tashvishlar bilan ishlaydilar. Maktabning maqsadi “to‘g‘ri” qadriyatlarni targ‘ib qilish yoki ularni o‘quvchilarning ongi va qalbiga o‘tkazish bo‘lishi bilan birga, maktablar davlat muassasasi bo‘lganligi sababli, ular konstitutsiya ko‘rsatmalarga, umumiy huquqiy qoidalar va qarorlarga va shundan kelib chiquvchi qadriyatlar va me’yorlarga bog‘liqdir. Ammo bu milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasida maktablarning rolini ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini anglatmaydi. Maktablar vositachi va tarbiyachi rolida mustahkam pozitsiyada qolaveradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolalikdan mavhum emas, balki ularni hayotda ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida idrok etishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy ta’lim va qadriyatlar ta’limi ikki xil tushuncha sifatida bir-biriga bog‘langan. Qadriyatlarni o‘rganish, asosan, shaxsiy harakatlar chegaraga, ya’ni qoidalar va me’yorlarga yetib kelganida va o‘zaro ta’sir bilan muvozanatlashganda sodir bo‘ladi. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolaning ichki dunyosini xushmuomalalik bilan bog‘laydigan ichki hisobkitoblarga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, maktablarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta’limi maxsus va yangi soha emas, u allaqachon qilingan yoki qilinishi kerak bo‘lgan narsalarni, mavzularni ta’kidlash va tushuntirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar asosida o‘quvchilarni milliy va umuinsoniy qadriyatlar ruhida tarbyalash metodikasini takomillashtirish orqali o‘quvchilarda yaxshi fazilat, xulq, odatlarni shakllantirish mumkin. Aynan ixtisoslashtrilgan maktab-internat o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda yangi zamonaviy metodikalarga tayanadigan o‘qitish usullarini takomillashtirish zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 298-299 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-iyul 2021-yildagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori //PQ-5188-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-aprel 2021-yildagi “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish Konsepsiyasi”//PQ-5050

4. Giesecke H. Was kann die Schule zur Werteerziehung beitragen?, (Eds: Sabine Gruehn, Gerhard Kluchert, Thomas Koinzer), Was Schule macht: Schule, Unterricht und Werteerziehung. Basel:Beltz Verlag, 2004, p. 236.

Ilxomjon OXUNOV,
Andijon davat pedagogika instituti, ‘‘Maktabgacha ta’lim nazariyasi’’ kafedrasi v.b.dotsenti, PhD

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirishning ayrim pedagogik shartlari xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ijtimoiy ong, rivojlantirish, tanqidiy-tahliliy fikr yuritishga undash, o‘quv-tarbiya jarayonga integrativ yondashuv, “o‘rganishga o‘rgatish” tamoyili, o‘quv-tarbiya jarayonga integrativ yondashuv.

В статье освещаются педагогико-психологические основы развития общественного сознания учащихся. Также рассматривались некоторые педагогические условия развития общественного сознания учащихся.

Ключевые слова. Социальное сознание, развитие, стимулирование критико-аналитического мышления, интегративный подход к учебно-воспитательному процессу, принцип “учить учиться”, интегративный подход к учебно-воспитательному процессу.

The article covers the pedagogical and psychological foundations of the development of social consciousness in students. It was also thought about some pedagogical conditions for the development of social consciousness in students.

Key words. Social awareness, development, encouragement of critical-analytical thinking, an integrative approach to the educational process, the principle of “teaching to learn”, an integrative approach to the educational process.

Boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchilarni o‘qish, yozish, sanash, o‘quv famoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o‘zini-o‘zi nazorat qilish o‘quvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslari egallab olinishini ta’minlashga va shu bilan mustaqil hayotga tayyorla shga yo‘naltiradi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim mazmuniga, sifatiga zamonaviy talablar qo‘yilmoqda va ularga tegishli davlat me’yoriy hujjatlari (Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Nizomlar, Konsepsiyalar, Davlat ta’lim standartlari, uzviylashtirilgan davlat ta’lim standartlari va ularga mos o‘quv dasturlari va shu kabilar) tayyorlangan. Bunda boshlang‘ich sinflar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar 1–4-sinf davomida bitta o‘qituvchi tomonidan o‘qitilishi maqsadga muvofiq ko‘riladi. Shu orqali boshlang‘ich ta’lim mazmunini o‘quvchilar ongiga singdirishda o‘qituvchining ma’lumotlar uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashi o‘quvchilarning o‘zlashtirishini rejalashtirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bu bilan oddiydan murakkabga (osondan qiyinga) qarab bayon qilinayotgan ma’lumotlarni o‘rganishga mustahkam didaktik asos yaratiladi.

Ta’lim va tarbiya jarayoni orqali o‘quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirishning maqsadi “o‘quv jarayonining g‘oyalari” bilan mazmunan mos keladi. Bu orqali o‘quv-chilar chuqur tahliliy o‘qishga, o‘quvchilarda yangi fikrlarni paydo qilish, ijodkorlikning elementlarini tarkib toptirish, o‘qishni o‘quv fanlarini o‘rganish jarayoni deb emas, balki uni fikrlashni rivojlantirish, dunyoni bilishning hamda tafakkur qamrovini yuksaltirishning asosiy poydevori deb bilish, o‘qib-o‘rganishga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirish.

O‘quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirish ularning qobiliyatiga bog‘liq ravishda davlat ta’lim standarti doirasida o‘qitish jarayoni mazmuni va usullarining xilma-xilligini ko‘rsatadi, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olishini ta’minlaydi. Quyida o‘quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirishning ayrim pedagogik shartlari aytib o‘tilgan.

Tanqidiy-tahliliy fikr yuritishga undash. O‘quvchilarni fikr yuritishga, o‘z g‘oyasi va fikrlari bilan o‘zaro o‘rtoqlashishga da’vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o‘stiradi. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida o‘quvchilarning fikrlari, o‘z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O‘qituvchi o‘quvchilardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo‘lishi lozim. Bu esa o‘quvchilarda o‘zgalar g‘oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida o‘quvchilarga o‘z fikri, o‘ziga taalluqli bo‘lgan g‘oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko‘rsata olish kerak. O‘quvchilarning o‘zlari ham o‘z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o‘ta muhim va katta hissa bo‘lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko‘zda tutadi. O‘zaro fikr almashishda o‘quvchilardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlari tizimini so‘rovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban o‘quvchilar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o‘laroq, o‘quvchilar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalari tizimiga tirkab boradi. Umuman olganda, o‘quvchilarning tanqidiy-tahliliy fikrini rivojlantirish maktablardagi o‘quv-tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirishda, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarishida, pirovardida ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tanqidiy-tahliliy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘p fikrlilik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi. Tanqidiy-tahliliy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi. Tanqidiy-tahliliy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilar bo‘lishi kerak:

– o‘quvchida o‘ziga xos nuqtayi nazarni paydo qilish;

– bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;

– murakkab muammolarni yechish mahorati;

– bahsni dalillab olib borish, yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;

– qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta’sir qilishini tushunish;

– tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish.

O‘quvchilarda tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish oson jarayon emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan jarayon emas, shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Tanqidiy-tahliliy fikrlash tajribasini egallashi uchun o‘quvchilarga vaqt va imkoniyat berish zarur, ya’ni o‘quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish, turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish, o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir o‘quvchining tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga uning o‘zida ishonch hissini uyg‘otish, tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Tanqidiy-tahliliy fikrlash o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi

bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim jarayonidagi o‘quvchilarning faol ishtiroki va ta’limga o‘zlarining mas’ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy-tahliliy fikrlash strategiyalarini o‘zlashtirishi kutilgan natijalarni beradi.

O‘quv-tarbiya jarayonga integrativ yondashuv. O‘quvchida mantiqiy tafakkur, turli tushuncha, voqea-hodisa, buyumlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushuna olishi, ijtimoiy hayotda kuzatuvchanlik, tahlil va sintez qila olish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda mustahkamlaydi. O‘quvchilar integrativ darslar davomida qarama-qarshiliklarni topa olish, muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish, o‘z nuqtayi nazarini bildira olishni o‘rganadi. Jamiyat hodisalarining barcha vositalari va aloqalarida ko‘rish qobiliyati dialektik tafakkurning muhim jihatlaridan biridir. Integrativ darslarning yana bir muhim jihatlaridan biri o‘quvchilarning kelgusida ma’lum fan tarmog‘ini chuqur o‘rganish yoki kasbni egallashida muhim bilimlar asosini berishga xizmat qiladi. O‘quv fanlarining hozirgi zamondagi dolzarb mavzular bilan boyitilishi, shuningdek, ularga ilmiy yondashilgan holda yetkazilishi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi.

Kichik maktab yoshidan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv amaliy xarakterga ega. Zamonaviy innovatsion jamiyat talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida umumta’lim davlat ta’lim standartlari tizimini muntazam takomillashtirib borishda ijtimoiy ong shakllarining rivojlanishi, globallashuv jarayonlari, jamiyatdagi voqea-hodisalarni, avlodlar almashinuvi kabi jihatlarni mazmunga singdirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jahon pedagogikasida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lmagan fanlar asosida tuzilgan o‘quv dasturlaridan voz kechish va o‘quv fanlari sonini optimallashtirish an’anaga aylanib bormoqda.

O‘quv jarayoniga, voqelikka ongli munosabat. O‘quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlanishida biror faoliyatga, voqelikka, holatga munosabat bildirishi va bu munosabatning tahlili muhim ahamiyatga ega. Bu orqali o‘quvchining refleksiv ko‘nikmalari rivojlanadi, o‘z fikrlarini boshqa aspektlardan qarash imkoniyatini beradi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘quv dasturida belgilangan mavzular asosida o‘quvchilarga yangi mavzu, ya’ni yangi ma’lumotlar tushuntirib boriladi va bu vaqt nuqtayi nazaridan o‘quv mashg‘ulotlarida qat’iy belgilab o‘tilgan. O‘quvchilarda mazkur yangi mavzu, ma’lumotlarga refleksiv munosabatlari har doim ham belgilangan vaqt bilan teng ravishda shakllanib ulgurmasligi mumkin. Bu holat ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy mavzularda ko‘p uchraydi. Yangi mavzuga oid hayotiy tajriba o‘quvchilar uchun eng foydali manba hisoblanadi.

O‘quvchilarda ijtimoiy ong tasavvur va tafakkur qilish orqali shakllanib, rivojlanib boradi. O‘quv jarayonini ko‘rgazmali tashkil qilish, o‘quvchilarning ham eshitish, ham ko‘rish orqali o‘quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o‘zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. O‘qituvchining vazifasi darsda tafakkur va faoliyat turlarini to‘g‘ri uyg‘unlashtirishdir. Bunday uyg‘unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir. O‘qituvchi dars muammolariga to‘g‘ri yondashishi uchun ta’lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularni o‘zaro bog‘liqligini va bir-biriga ta’sirini tushunishi lozim. Obyektiv borliqning mavjudligi va mohiyatini bilish – ta’limning maqsadlaridan biridir.

Ta’limda bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga quyidagi komponentlar kiradi: hodisalarni, narsalarni kuzatish; axborotlarni idrok etish; olingan axborotlarni tahlil qilish; eslab qolish; umumlashtirishning to‘g‘riligini tekshirish hamda baholash.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi mavjud faktlarga asoslangan materiallarni to‘g‘ri tushuntirishdan boshlanadi. Mazkur fakt to‘laqonli haqiqat degan ma’noni anglatmaydi, balki haqiqatni anglashning “xom ashyosidir”. Shuning uchun bu faktlar orqali o‘quvchilar turli xil xulosa, mazmun chiqarib olishi va turli tasavvurga ega bo‘lishi mumkin. Global, ijtimoiy masalalarga oid mavzularda faktlar emas, balki uning talqini muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, aniq fanlarda esa faktlarga asoslaniladi. Bunda fakt voqea va hodisalarning obyektiv mohiyatini to‘laqonli ochib berishi zarur bo‘ladi. O‘quv jarayonida esa o‘qituvchi faktga ishlov berib, mos keluvchi metodlar va vositalar orqali o‘quvchining milliy manfaatlarga mos keluvchi ijtimoiy ongi bilan birgalikda e’tiqodining rivojlanishiga erishiladi. Boshqa tomondan, anglangan bilimga formal bilim qarshi turadi. Formal bilim esa ma’nosi, amaliy ahamiyatini tushunmay takrorlanaveradigan, tushunmay yodlab olgan, hayotda foydalanib bo‘lmaydigan uzuq-yuluq fikrlardir. Formal bilimlarni e’tiqodga aylantirib bo‘lmaydi. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ishonch-e’tiqod, ma’naviy va siyosiy g‘oyalarni shakllantirish maqsadida, ularni ongi, hislari, irodasiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ijtimoiy ongini shakllantirish metodlari keng qo‘llaniladi. Bularga tushuntirish, o‘qtirish, ishontirish, o‘git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, axloqiy suhbat, munozara kiradi. O‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko‘maklashishi uchun mazkur usullar katta ahamiyatga ega.

“O‘rganishga o‘rgatish” tamoyili. O‘quvchilarda ijtimoiy ongining doimiy rivojlanib borishida o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri “o‘quvchilarni o‘rganishga o‘rgatish” hisoblanadi. Ijtimoiy ong shakllari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar o‘rganishi lozim bo‘lgan narsalar, tushunchalar cheksiz va uni ta’lim-tarbiya jarayonida qamrab olish imkoniyati mavjud emas. Shu nuqtayi nazardan qaralganda o‘quvchilarni ongli, samarali, ijodkorona va mas’uliyat bilan mehnat qilishga, “o‘qib-o‘rganish zavqi va uning shaxsiy intellektual kapitaliga” aylanishini his qilishga o‘rgatish lozim bo‘ladi. Ijtimoiy ongni rivojlantirishda o‘qituvchi har bir o‘quvchining maksimal faolligini, fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish shakllarini izlashi, ularning qiziqishlarini orttiruvchi ko‘rgazmali qurollar, topshiriqlar, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan ish olib borishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayoti, ularni o‘rab turgan real borliq bilan bevosita bog‘liq original, qiziqarli vaziyatlarni topishi, o‘quv fanlari esa ham muloqot qilish, ham o‘zaro fikr almashish vositasi bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratish joiz.

Umuman olganda o‘quvchilarga turli g‘oya va fikrlarni qabul qilish, o‘quv jarayonida faol qatnashish imkoniyatini berish, biror vaziyatga o‘z fikr va munosabatini bildirish uchun ijobiy muhit yaratish, har bir o‘quvchi-shaxsini hurmat qilish – o‘quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan pedagogik yondashuv o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga ishonchini rivojlantirib, o‘z g‘oya va fikrlarining ahamiyatini tushunishlariga, o‘z mulohazalari shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayxodjaeva M. O‘quvchilarni o‘rganishga o‘rgatish kerak: “Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar“ mavzusida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2019-yil 6-may. –T.: TDPU, 2019. – 12 B.

2. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. – 107 B.

3. Nazarov Q. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. –T.: Ijod dunyosi, 2002. – 5 B.

Nodirabegim ABDURAIMOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti, "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti talabasi

ADABIYOT DARSLARIDA LOYIHA METODINING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada adabiyot darslarida loyiha metodining asosiy maqsadi shaxsni tarbiyalash, uni o'z mustaqil ta'lim faoliyati asosida rivojlantirish ekanligi xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, muallif loyiha usuli maktab amaliyotida tobora ko'proq foydalanilishi kerakligi masalalari doirasida takliflar berib o'tgan.

Tayanch soz'lar. Loyiha metodi, adabiy jarayon, muloqot, mulohaza, ta'lim, badiiylik, usul,nazariy, amaliy, devoriy gazeta,ijodiy ishlar, shaxsiy kolleksiyalar.

В статье говорится о том, что основной целью проектного метода на уроках литературы является воспитание личности, развитие ее на основе собственной самостоятельной учебной деятельности. Автор также внес предложения в рамках вопросов, по которым метод проектов должен все чаще использоваться в школьной практике.

Ключевые слова. Метод проекта, литературный процесс, общение, рассуждение, воспитание, художественность, метод,теоретический, практический, стенгазета,творческие работы, частные коллекции.

The article talks about the fact that the main purpose of the project method in Literature lessons is to educate the individual, to develop him on the basis of his own independent educational activities. The author has also made suggestions as part of the issues that the project method should be used more and more in school practice.

Key words. Project method, literary process, communication, meditation, education, artistry, method, theoretical, practical,mural newspaper, Creative Works, personal collections.

Darvoqe, loyiha usulining ahamiyati shundaki, u bolalarga o'z qiziqishlari va kuchli tomonlarini hisobga olgan holda faoliyatni tanlash imkonini beradi, keyingi faoliyatga qiziqishni shakllantirishga hissa qo'shadi, bolalarni yangi bilimlarga ega bo'lishga va aniq muammolarni hal qilishda mavjud tajribadan foydalanishga undaydi.

Usulning amaliy yo'nalishi maktab o'quvchilariga olgan bilimlari hayot uchun qanchalik muhimligini his qilish imkonini beradi. Formulalar, atamalarni faqat yodlash uchun ma'lumot emas, balki maqsadga erishish vositasiga aylanadi.

Loyiha usuli talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullaridan biri sifatida sinf tizimini sezilarli darajada boyitadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, adabiyot darslarida olib boriladigan loyiha faoliyati o'quvchilarning barcha bilim, ko'nikma va malakalarini to'playdi, bolalarda katta shaxsiy qiziqish uyg'otadi va ularni bilim va ijodiy faollikning prinsipial jihatdan yangi bosqichiga olib chiqadi. Bu istiqbolli usul o'qituvchilik amaliyotida allaqachon o'zining munosib o'rnini topgan.

Loyiha faoliyatining yetakchi g'oyasi:

Ta'lim faoliyati "Hammasi hayotdan, hamma narsa hayot uchun" tamoyiliga asoslanadi.

Keyin bola ta’lim mazmuni bolaning haqiqiy hayotidan kelib chiqqanda o‘rganadi va bunday faoliyat natijasi, albatta, qo‘llanilishi mumkin.

Beshinchi sinf, bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi nuqtayi nazaridan, loyiha faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng qulaydir va 5-sinfdagi adabiyot fanining tuzilishi kursning deyarli har qanday bo‘limida bolalarga loyiha texnologiyasidan foydalanishni o‘rgatish uchun imkoniyatlar ochadi. .

Loyiha usuli o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, faoliyatini faollashtirish, olingan bilimlarni qo‘llash imkonini beradi.

DTSni joriy etish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, allaqachon beshinchi sinfdan boshlab talabalar adabiy loyihalarni ishlab chiqish va himoya qilish imkoniyatiga ega.

Loyiha oltita natijadan iborat: rejalashtirish, ma’lumot qidirish, muammoni shakllantirish, portfel yaratish, taqdimot ko‘nikmalari, loyiha va tadqiqot faoliyati natijasida mahsulot.

Loyiha usulidan foydalanishda quyidagilar tavsiya etiladi:

• Muammo bor va natijaning ahamiyati bor (nazariy, amaliy).

• Talabalarning mustaqil faoliyati nazarda tutiladi.

• Loyihaning mumkin bo‘lgan tuzilishi (bosqichi).

• tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

• Natijada moddiy mahsulotga ega bo‘ldik.

Loyiha faoliyatining afzalliklari quyidagilardan iborat:

– o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlari;

– haqiqiy texnologik zanjirni simulyatsiya qiladi: vazifa-natija;

– guruh faoliyati ko‘nikmalari;

– individual yondashuv;

– kognitiv faoliyatga qiziqish;

Loyiha faoliyatining quydagi kamchiliklari mavjud:

– o‘qituvchiga yuk ko‘tariladi;

– talaba tez-tez stressli vaziyatga tushib qoladi (imkoniyatlarni ortiqcha baholash, texnik qoplamalar);

– psixologik, aloqa muammolari;

– subyektiv baholash muammosi.

Sinfda loyiha faoliyatini qanday tashkil qilishda quyidagi sxema asosida ish tashkillashtiriladi.

Loyiha bo‘yicha ish sxemasi:

– loyihaning maqsad va vazifalarini shakllantirish;

– har bir ishtirokchi yoki talabalar guruhi uchun bir haftadan ikki haftagacha vaqt ajratilgan aniq vazifani belgilash (kutilgan natijalarni majburiy batafsil tushuntirish); Ushbu bosqichda o‘qituvchining roli to‘plangan ma’lumotlarni ko‘rish va uni tayyorlash bo‘yicha maslahat berishdan iborat.

– tayyor materiallarni ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish;

– loyihani yakunlash yoki guruh yoki individual ish natijalarini omma oldida taqdim etish.

Loyiha faoliyati natijasida quyidagi ishlar namunalari yaratiladi:

• lug‘at;

• morfologik portret so‘zlar;

• bir so‘zli ensiklopediya;

• rasmlar to‘plami;

• shaxsiy kolleksiyalar ijodiy ishlar;
• devoriy gazeta;
• video yoki slayd film;
• matnni lingvistik tahlil qilish;
• nashr etish;
• buklet;
• taqdimot.

Adabiyot darslarida loyihaning asosiy turlaridan foydalanishda 5-sinfdanoq loyihalar yaratishni boshlashgan. Ijodiy loyihalar bu yosh uchun eng mos keladi. Bunday loyihalar talabalar tomonidan ijodiy fikrlash badiiy matn va original asarlar yaratish bilan alohida ajralib turadi. Bu qo‘shma gazeta, insho, videofilm, bayram ssenariysi, dramatizatsiya va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha san’atning boshqa shakllari ijodiy loyihalar ustida ishlash uchun jalb qilinadi.

Adabiyot darsida loyihani tashkil etish tajribasidan kelib chiqib, didaktik darajada va “Dostonchilik” mavzusini mustahkamlash usullari darajasida loyiha asosida o‘qitishdan foydalangan holda darslarni modellashtirish bo‘yicha materiallarni taqdim etiladi

Avvalo, dars loyiha faoliyatining tarkibiy qismlariga muvofiq quriladi.

1. Talabalar ish joyini tayyorlaydilar, guruhlar tuzishlari orqali hamkorlarni aniqlaydi.

2. Kelajakdagi loyihaning asosiy g‘oyasini muhokama qiladi, ishtirokchilarning mas’uliyati, mavzuning asosiy tushunchalarini eslab qolish va guruh muhokama qilinadi.

3. Ijodiy ish qilish, ertak yozish bilan ishlanadi.

4. Yakuniy maqsadga muvofiq, ular loyiha tuzadilar va ijodiy ishlarni himoya qilish usullaridan foydalangan holda mashq qiladilar.

5. Sinf oldida gapiring va savollarga javob bering.

6. Ularning faoliyati natijalarini va boshqa guruhlarning faoliyatini baholang.

Shunday qilib, dars davomida biz ertak qahramonlarini esladik, ularning qahramonlar, ertak o‘rgatgan narsalarni takrorladilar.

Bizning tajribamiz shuni ko‘rsatdiki, loyiha faoliyati talabalarning barcha bilim va ko‘nikmalarini to‘plash orqali ularni ijodkorlikning tubdan yangi darajasiga olib chiqadi.

Xulosa qlib aytganda, loyiha usuli DTSning tizimli-faoliyat yondashuvi doirasidagi barcha talablariga javob beradi, bunda asosiy maqsad shaxsiy rivojlanish loyiha usuli eng dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyomuxammadov Bo‘ri. Pedagogik maxorat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “TIB-KITOB” – 2009

2. http://www.educom.ru/ru/documents/archive/advices.php

3. http://www.researcher.ru/.ШевченкоН.И. Технологии обучения истории в старшей школе.

4. Новиков А.М., Новиков Д.А. Образовательный проект: методология образовательной деятельности. - М.,2004.

A’zam RAXMATOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA “SODDA KO‘RINISHDAGI HARAKATLANUVCHI AVTOMOBIL YASASH” MAVZUSINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada texnologiya darslarida amalga oshiriladigan ishlar mazmunida loyihalash va konstruksiyalsh elementlari bilan tanishtirib borish haqida tavsiyalar keltirilgan. Buning uchun boshlang‘ch va yuqori sinflarda texnologiya o‘quv fanida yasaladigan buyumlar kesimida loyihalash va konstruksiyalash ishlarini amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Loyiha, model, loyihalash, konstruksiyalash, avtomobil, kompetensiya,texnalogiya, axborot texnalogiyalari, transport, algoritmik faoliyat.

В статье даны рекомендации по ознакомлению с элементами проектирования и конструкционизма в содержании работ, выполняемых на уроках технологии. Для этого указывается, что в начальных и старших классах технология выполняет проектирование и конструирование в разрезе предметов, которые будут сделаны в учебном предмете..

Ключевые слова. Проект, Модель, проектирование, конструирование, автомобиль, компетенция,технология, информационные технологии, транспорт, алгоритмическая деятельность.

The article presents recommendations on how to familiarize yourself with the elements of design and construction in the content of work carried out in technology lessons. For this, it is indicated that in the primary and upper classes, the design and construction work will be carried out on the cross section of objects made in the educational science of technology.

Key words. Project, Model, design, construction, automobile, competence,technology, information technology, transport, algorithmic activity.

Texnologiya o‘quv fani o‘quvchilarga boshqa darslarda olgan bilimlarini amalda qo‘llashga yordam beradigan yagona maktab fanidir. Texnologiya fanida har qanday buyumni yasash jarayoni chizmalarni chizishdan boshlanadi va buning uchun uzunlik va kenglikni to‘g‘ri o‘lchash kerak, bu esa o‘z navbatida matematik bilimlarni talab etadi. Materiallar, ishlab chiqarish, xalq hunarmandchiligi haqidagi bilimlar nafaqat mahsulot ishlab chiqarishda yordam beradi, balki atrof-muhitni tushunishni osonlashtiradi. Loyihani himoya qilishga tayyorgarlik ko‘rishda o‘quvchilar ona tili darslarida olingan bilimlardan nutqni to‘g‘ri rivojlantirish uchun foydalanadilar.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarni loyihalash va konstruksiyalash elementlari bilan tanishtirish, texnologik hujjatlar bilan ishlashga o‘rgatish, texnik masalalarni yechish kompetensiyalarni shakllantirish, ularni kelgusi hayotga tayyorlashga va muhandislik kasblariga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, texnologiya darslarida albatta u yoki bu turdagi buyum loyihalanadi. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida o‘quvchilar turli xil materiallar: rangli qog‘ozlar, karton, kley, ikkilamchi materillar bilan ishlashadi va turli hayvon shakllarini, bayram tabriknomalari, qutichalar, yumshoq o‘yinchoqlar yasashadi. Bu jarayonda o‘qituvchi dars mavzusini e’lon qilgach, buyum yasash jarayonini ma’lum ketma-ketlik asosida tushuntirib beradi va yasab ko‘rsatiladi. Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanib mavzuni tushuntirish, bir necha variantlar ichidan o‘quvchilarning taklifi asosida birini yasab ko‘rsatishi maqsadga muvofiq

hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga “Qog‘ozdan hayvon shaklini yasash” mavzusi o‘tilayotganda birgina quyonni turli variantlari ko‘rsatiladi (1-rasm).



1-rasm. Qog‘ozdan qoyon shaklini yasash.

O‘quvchilar algoritmik faoliyat asosida o‘qituvchining ko‘rsatmalariga tayanib amaliy mashg‘ulotlarga ishtirok etishadi. Sinfdagi ilg‘or, yaxshiroq bilimga ega o‘quvchilar nafaqat algoritmik faoliyat ko‘rsatadi, balki ishga ijodiy yondashib buyumlarning yangi konstruksiyasini tanlab yasashga harakat qilishadi. Amaliy mashg‘ulot vaqtida o‘quvchilarda loyihalash va konstruktorlikka oid dastlabki ko‘nikmalar shakllantiriladi.

5-7 sinf Texnologiya darslarida o‘quvchilar 1-4 sinflarda olgan bilim va ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Endi o‘quvchilar yog‘och, polimer va metallardan, ikkilamchi chiqindi mahsulotlardan har xil buyumlar: transport vositalari, yumshoq simlardan halqa yasash, polimer loydan suvenir yasash, polimer loydan kitobcha shaklidagi brelok yasash, 3D ruchkada har xil uch o‘lchamli obyektlar yasash, aylanma harakatlanuvchi sodda mexanizm yasash, karusel, karusel tezligini oshirish, rabototexnik tizimni loyihalash, soat yasash, plastik idishlardan dekorativ buyumlar yasash, svetoforlarni dastur yordamida yoqish va o‘chirish, soat yasash, aqlli issiqxona yasash, kitob javoni yasash, mozaika usulida bezak buyumlarni yasash, lavx yasash, oyoq kiyimlar uchun tagliklar yasash, aqlli yoritgich yasash, shashka doskasi va donalarini yasash, yog‘ochni kuydirib naqsh solishda ishlatiladigan kichik yog‘och kuydirgich “Vijigatelni” yasash, sodda ko‘rinishidagi harakatlanuvchi avtomobil yasash kabi ishlar amalga oshiriladi. Mazkur mavzular mazmunining barchasi o‘quvchilarda buyumlarni loyihalash va konstruksiyalash ishlarini amalga oshirishni talab etadi. O‘quvchilarda loyihalash va konstruksiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish kelgusida zamonaviy murakkab mashinalarni ishlab chiqishga o‘rgatadi. U o‘z tarkibiga muhandislik bashoratlari, loyihalash, tayyorgarlik va ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bosqichlarini qamrab oladi. Dastlabki bosqich – muhandislik bashoratini qurish ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: mavjud bazis obyektidan kelajak tomon bashorat qilish hamda kelajakda erishilishi talab qilinadigan maqsaddan muammoning bugungi kundagi holatiga tomon.

Texnologiya darslarida buyum loyihalanayotganda uning umumiy konstruktsiyasini ishlab chiqishni ko‘zda tutadi. Loyihalashning dastlabki bosqichida erishilishi lozim bo‘lgan yoki qondiriladigan maqsad belgilab olinadi. So‘ngra maqsadga erishish uchun aniq vazifalar shakllantiriladi. Vazifalarni belgilashda mavjud imkoniyatlar va sharoitdan kelib chiqiladi.

Loyihalashning keyingi bosqichi g‘oyani shakllantirish deb nomlanib, u loyihalashning asosini tashkil etadi. Ko‘pchilik holatlarda uni amalga oshirish uchun mavjud uslubni yangi sharoitlarda qo‘llash yo‘nalishidan foydalaniladi. Keyingi bosqichda muhandislik tahlili amalga oshiriladi. Bunda model ko‘rsatgichlari aniqlashtiriladi, zarur holatlarda haqiqiy buyumga yaqin ko‘rsatgichlarga ega bo‘lgan model yaratiladi. Shu asosda buyumni ishlab chiqishning texnik vazifasi shakllantiriladi.

Texnologiya darslarida konstruktorning loyihani ishlab chiqishidagi dastlabki asoslovchi hujjat hisoblanadi. U quyidagi masalalarni yoritib berishi lozim: mashinaning yaratilish maqsadi; uning parametrlari; ish tartibi va ish sharoitlari; tajriba-sinov ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar; mashinaning prinsipial tuzilishi va uning harakatlanish mezonlari; avtomatlashganlik va mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi; ishlatilish sharoitlari; loyihani bajarish muddati; ishlab chiqarishning seriyaliligi; uni tayyorlovchi korxona to‘g‘risidagi ma’lumotlar; mashina va loyihaga qo‘yilgan texnik talablar.

O‘quvchilarga konstruktorlik topshiriqlari berilayotganda konstruktorlik - texnologik ishlarining mazmuniga qarab ta’limning turli shakllaridan foydalaniladi: amaliy mashg‘ulotlarda brigada, individual, zveno shakllari va to‘garaklarda turli har xil yoshdagi o‘quvchilardan iborat brigada shakllaridan foydalaniladi.

Topshiriq murakkab va sermehnat ishni taqozo qilsa, jamoa bo‘lib ishlashni taqozo qiladi hamda bir-biriga yaqin va xarakteri jihatdan har xil bo‘lsa, mashg‘ulotni tashkil etishning zveno shaklidan foydalaniladi. Ko‘pincha bunday hollarda murakkabroq bitta obyekt bilan 2-3 nafar va bundan ko‘proq o‘quvchi shug‘ullanadi.

Konstruksiyalash loyihalashning asosiy qismi bo‘lib, avtomobilning tajriba nusxasini yaratish uchun zarur bo‘lgan ishchi chizmalarni va texnik hujjatlarni ishlab chiqish, avtomobilning kompanovka sxemasini tanlash, avtomobilning agregat va uzellarini joylashtirish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Loyihalash – loyiha topshirig‘ini tuzishdan obyektni yasash uchun ishchi chizmalarni tayyorlashgacha bo‘lgan ishlar majmuidan iborat bo‘lib, juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Konstruktorlik hujjatlarga grafika va matn shaklidagi hujjatlar kiradi. Ular alohida holda yoki birgalikda buyumning tarkibi va tuzilishini belgilaydi. Uni ishlab chiqish yoki tayyorlash, nazorat, qabul ekspluatatsiya va remont qilish uchun zarur ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilar loyiha ishlarining bajarayotganda barcha sohalarini to‘liq bilmaydi, shuning uchun ham loyihalashtirish mavzu yig‘ish va tahlil qilishdan boshlanadi. Ishlarning tayyorgarlik bosqichini ikki tarkibiy qismga bo‘lib chiqsa bo‘ladi: loyihalashtirishga oid dastlabki topshiriqni o‘rganib chiqish va loyiha mavzusi bilan batafsil tanishib chiqadi. Bu o‘rganish quyidagilarni ko‘zda tutadi: belgilangan shartlar asosida maqsad va vazifalarni aniqlash; bo‘lajak mahsulot (yoki muhit) o‘lchamlarini ularning asosiy tafsilotlarini o‘zlashtirish; muhim xizmatga oidlik aloqalarini ochib tashlash; maxsus adabiyotlarni ko‘rib chiqish, o‘rganish; loyiha tarkibi bilan tanishish; nazorat ishining muddatlari; loyihani topshirishning eng oxirgi vaqtini aniqlash. Ish, harakat (ishlab turish) tahlili birinchi darajali ahamiyatga ega, buyum qanday harakat qilyapti yoki harakat qilishi kerakligini, uning xususiyatlarini ulardan foydalanish tajribasini va qaysi amaliy vazifalarini hal qilishi kerakligini ko‘rsatish kerak.

5-sinf Texnologiya darslarida “Sodda ko‘rinishidagi harakatlanuvchi avtomobil yasash” mavzusi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotning dars ishlanmasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

– o‘quvchilarga sodda ko‘rinishidagi harakatlanuvchi avtomobil yasashni o‘rgatish orqali buyumlarni loyihalash va konstruksiyalash elementlari bilan tanishtirish;

– o‘quvchilarni individual va jamoa bilan ishlashga o‘rgatish, kasbiy madaniyatni shakllantirish;

– o‘quvchilarni dizayn, ijodkorlik, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, muhandislik kasblariga o‘rgatish.

O‘quvchilar loyihalash va konstruktorlik hujjatlari bilan ishlashga o‘rganadilar;

Avtomobillar yasash uchun darslik materiallari bilan tanishadilar, texnik adabiyotlar bilan ishlashga ko‘nikma hosil qiladilar;

Sodda ko‘rinishdagi avtomobil yasash texnologiyasi bilan tanishadilar;

Tayyor buyumni taqdimot qilishni va o‘z loyihasini himoya qilishga o‘rganadilar;

O‘quvchilarning dizaynerlik, texnik ijodkorlik, loyihalash va konstruktorlik kompetensiyalari shakllantiriladi.

Ajratilgan vaqt 4 soat


Avtomobil modelini yasash uchun kerakli material va jihozlar ro‘yxati (2-rasm):

1. Qalin karton qog‘oz yoki yupqa metal, kuzov uchun varaq o‘lchami 300*400 mm.
2. Po‘lat sim-diametri 2-3 mm, uzunligi 250 mm
3. G‘o‘la shaklidagi yog‘och-diametri 40 mm, uzunligi 100 mm
4. Elektr yurgizgich (dvigatel)
5. 6 V yoki 12 V li batareya
6. Tasmali uzatma 2 ta shkiv va rezina tasma
7. Elektr o‘tkazgich simlar
8. Kalit yoki tugmacha (knopka)
9. Yelim va pardozlash moslamalari.



2-rasm. a) Model yasash uchun jihozlar b) avtomobilni elektr jihozlari

Mavzuni o‘tishda o‘quvchilar 4-5 tadan qilib kichik guruhlarga bo‘linadi va bu guruh a’zolariga avtomobil maketini tayyorlash topshirig‘i beriladi. Bu topshiriqni bajarish chog‘ida o‘qituvchi bir qancha ko‘rgazmali vositalardan foydalanishi, vedio roliklar qo‘yib berishi, amaliy bajarib ko‘rsatib berishi hamda joriy instruktajdan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.



3-rasm. O‘quvchilar guruhi tomonidan tayyorlanadigan mashina modellaridan namunalar. Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan avtomobil maketlari dars yakunida taqdimot qilinadi.

O‘quvchilar o‘zlari yasagan avtomobil maketni guruh o‘quvchilari yonida himoya qiladilar va berilgan savollarga javob beradilar. Eng yaxshi bajarilgan ishlar ko‘rgazma sifatida olib qo‘yiladi. Dars yakunida o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida xulosalaydi.

Avtomobilni loyihalayotganda hosil bo‘ladigan masalalarni yechishning ilg‘or usullari mavjud bo‘lib ular quyidagilarni tashkil qiladi.

– Loyihalashning ilmiy asoslari;
– Loyihalashning texnik asoslari;
– Loyihalashning iqtisodiy asoslari;
– Loyihalashning tashkiliy asoslari;
– Loyihalashning badiiy asoslari;

– Loyihalashning ilmiy asoslari deb, loyihalash jarayoniga ijodiy yondashish, ya’ni ilm-fanning oxirgi yutuqlaridan foydalanib avtomobilni loyihalashda uchraydigan masalalarning optimal yechimlarini eng qisqa muddatda topishga aytiladi.

Loyihalashning texnik asoslari deb, loyihalanayotgan avtomobilning sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi va avtomobilni ishlab chiqarishda uning sifati o‘zgarmasligini ta’minlashga aytiladi.

Loyihalashning iqtisodiy asoslari deb, avtomobilni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishda kam xarajat qilib eng yaxshi natijalarga erishishga aytiladi.

Loyihalashning tashkiliy asoslari deb, konstruktorlik ishlarini bajarish uchun tajribali mutaxassislarning ijodiy jamoasini shakllantirish, kadrni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, konstruktor va tadqiqotchilarning ilg‘or maktablarini yaratishga aytiladi.

Loyihalashning badiiy asoslari deb shakli, rangi, bezaklari chiroyli, qulay va zamonaviy avtomobillarni loyihalashga aytiladi.

Shunday qilib, texnologiya darslarida o‘quvchilarni loyihalash va konstruksiyalash ko‘nikmalariga o‘rgatish uchun katta imkoniyatlar mavjud. O‘quvchilarda shakllantiriladigan bu kompetensiyalar ularni muhandislik kasblariga tayyorlaydi, chizmalarni chizish va o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi, buyum yasash texnologiyasi bilan tanishadilar, yangi dizayn yaratishga ishtiyoq paydo bo‘ladi, qolaversa jamoa bo‘lib ishlashga o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sanaqulov X., D.Xodiyeva D., Satbayeva M. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. T.: –“Tafakkur Bo‘stoni”, 2015.220 b.

2. Uzoqov H.O, Jo‘rayev H.O, Quliyeva SH.H, Jo‘rayev A.R, Karimova M.N, Nazarova D.P. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash “Kamolot nashriyoti” Buxoro 2022

3. Tohirov O‘.O., Mirahmedova D.S., Shamsiyeva Z. S. 5-sinf. Texnologiya darsligi. –T.: Sharq nashriyoti. 235 bet.

4. Muhitdinov A, Qosimov O., Xalikov R. Transport vositalarini loyihalash va hisoblash o‘quv qo‘llanma –T.: “Fan va texnologiya” 2014, 188 bet

Maxliyoxon MIRZAKARIMOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

INGLIZ TILINI TADBIRKORLIKKA YO‘NALTIRIB O‘QITISHDA CLIL TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada ingliz tili darslarida CLIL texnologiyasiga asoslangan tadbirkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlash o‘quvchi-yoshlarning o‘quv mazmunini tadbirkorlikka yo‘naltirilgan mustaqil dastur asosida mutolaa bilan mustaqil fikrlay olishi, o‘z pozitsiyasini himoya qilishi haqidagi fikrlar aytilgan.

Tayanch so‘zlar. Ingliz tili ta’lim maqsadi, tadbirkorlik, shakl, usul, vosita, natija, CLIL texnologiyasi.

В статье высказываются мнения о том, что обеспечение качества и эффективности предпринимательско-ориентированного образования на уроках английского языка на основе технологии CLIL позволяет учащейся молодежи самостоятельно мыслить, отстаивать свою позицию, читая учебное содержание на основе самостоятельной программы, ориентированной на предпринимательство.


Ключевые слова. Цель английского образования, предпринимательство, форма, метод, инструмент, результат, технология CLIL.

The article states that in English lessons, ensuring the quality and effectiveness of entrepreneurship-oriented education based on CLIL Technology, students can independently think about the educational content on the basis of an independent program aimed at entrepreneurship, defend their position..

Key words. Purpose of English education, entrepreneurship, form, method, tool, result, CLIL technology.

CLIL texnologiyasi asosida ingliz tili mashg‘ulotlarini tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni integratsion yondashuv asosida o‘quvchiga yetkazishdan iborat qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechadi, deb hisoblasa bo‘ladi.

(1-rasm). Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan ingliz tili ta’limini tashkil etishda CLIL texnologiyasi



Quyida biz tadbirkorlikka yo‘naltirilgan CLIL texnologiyasini ingliz tili o‘quv jarayoniga amalda qo‘llashning asosiy xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tamiz:

– o‘quvchi yoshlar nafaqat o‘qitiladi, ularni mustaqil o‘qishga o‘rgatiladi;

– o‘quvchi yoshlarga bilimlar tayyor holda berilmaydi, bilimlarni asosiy manbalardan, internetlardan mustaqil ravishda ola bilish, to‘plash, qayta ishlash va kundalik faoliyatlarida foydalana olishga o‘rgatiladi;

– o‘quv reja, dasturlarda, darslik, qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish;

– ta’lim mazmunini, matnlarni mustaqil mutolaa qilish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

– o‘quvchi yoshlarni o‘z fikrini bildira olish, hikoya qila olish, isbotlashga odatlantirish;

– barcha o‘quvchi yoshlarning o‘z qobiliyat va imkoniyatlari darajalarida albatta o‘zlashtirishlari kafolatlanadi.

Buning uchun har bir ingliz tili o‘qituvchisi o‘z shaxsiy dasturi asosida ilg‘or texnologiyalarni o‘qib-o‘rganib o‘zlashtira olishi zarur. Kutubxonalarda, elektron darslik, qo‘llanmalar, internet orqali o‘z malakalarini o‘zlari uzluksiz oshirib borishi talab etiladi.

Xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari yoki kafedralari qoshida doimiy harakatdagi “Ilg‘or texnologiyalarni o‘qish-o‘rganish innovatsion mahorat maktabini” tashkil etish maqsadga muvofiq. Mashg‘ulotlarda o‘zaro tajriba almashtirish, treninglar, immitatsion darslar, xorijiy ilg‘or tajribalar, media mashg‘ulotlarni o‘tkazishni taqozo etadi.

Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan CLIL texnologiyasi asosida o‘tkazilgan ingliz tili mashg‘ulotlari natijalarini baholash va nazorat qilish maqsadida uni monitoringgi olib boriladi.

(1-jadval). CLIL texnologiyasi monitoring jadvali

I-bosqich	O‘rganish	Esda saqlash
II- bosqich	Tushunib olish	O‘zlashtirganini ayta bilish (isbot)
III- bosqich	Amaliyotda qo‘llay olish	Qoidalar, qonunlarni o‘rganib, undan foydalana olish
IV- bosqich	Tahlil eta olish	Qiyosiy taqqoslash, bir-biriga bog‘lash
V- bosqich	Sintez	Axborotni ijodiy qayta ishlash
VI- bosqich	Baholash	Keyingi bilimga qadam

Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy komponenti tadbirkorlikka doir mantiqiy, kreativ va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishga doir vaziyatli-tahliliy interfaol topshiriqlari uchta tamoyilga asoslanadi.

– o‘quvchi ishi natijasi ball, sertifikat, maqtov, maxsus mukofot yoki taqdirlash orqali baholanadi;

– Har bir o‘quvchi o‘z ishi uchun mas’ul. U atrofidagi tengdoshlarining yutuq yoki kamchiligini belgilaydi. Bu esa o‘quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, o‘quv materialini o‘zlashtirishlari va tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish uchun bir-birlariga yordam berishni taqozo etadi.

– o‘quvchining to‘plagan bali har bir bajarilgan ishlaridan olgan ballari soniga bog‘liq. O‘zlashtirish natijalarini avvalgilari bilan taqqoslash o‘quvchi erishgan natijalarini baholash imkoniyatini beradi.

Ingliz tilini tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitishning CLIL texnologiyasi – bu sinfda individual ishlashdir. Bunda o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan bilimlari natijasiga ko‘ra tadbirkorlikka yo‘naltirilgan individual topshiriq olib, o‘z ish mavzusi asosida uni bajaradi. Ta’limning bunday shaklida tadbirkor jamoalar turli xil faoliyat (topshiriq) bilan shug‘ullanishi mumkin. Tadbirkor jamoa a’zolari bir-birlariga individual topshiriqlarni bajarishda yordam berib, yo‘l qo‘ygan kamchiliklari, erishgan yutuqlari yoki o‘zlashtirish darajalarini maxsus daftarga qayd qilib boradilar. Yakuniy baholash testlarini o‘quvchilarning o‘zlari (maxsus baholovchi o‘quvchi) individual amalga oshiradi. O‘qituvchi har hafta tadbirkor jamoa a’zolari bajargan topshiriqlarni reja asosida o‘rganib boradi. Bunda o‘qituvchi tadbirkor jamoalarning erishgan yutuqlarini alohida ta’kidlashi lozim.

O‘quvchilar mustaqil ishlagani uchun o‘qituvchining alohida guruh yoki o‘quvchi bilan individual ish olib borish imkoniyati kengayadi.

Eng muhimi, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi o‘rni uning o‘quvchilarning mustaqil bilim olishiga, tadbirkorlik, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi bilan belgilanadi. U o‘quvchilarga tayyor bilimlar bermaydi, balki ularni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, o‘z shaxsi va bilimiga tanqidiy baho berish, axborotlarni tahlil qilish, ulardan keraklisini ajrata olish, xulosa chiqarish, o‘z fikrlarini asoslay bilishga o‘rgatadi. Zero tadbirkorlikka yo‘naltirilgan CLIL o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni tadbirkorlik xususiyatlarini va xulq atvorini rivojlantirishga, mustaqil ta’lim olishga yo‘llashdir.

Yuqorida qayd etilganidek, ingliz tili ta’lim jarayonini tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘qitishning CLIL texnologiyasi asosida tashkil etish pedagogdan katta mahorat talab etadi. Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan CLIL texnologiyasi o‘qituvchidan nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, ularda tadbirkorlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni, balki ularning shaxsi rivojlanishini talab etadi. Bunga ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchining bir-biriga o‘zaro ishonchi, hamkorligi va jonli muloqoti orqali erishiladi.

Ta’lim oluvchining shaxsi shakllanishi pedagogning ish faoliyatiga, uning jamoa bilan hamkorlik qila olish o‘quviga ham bog‘liq.

Pedagog ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, muloqot qilishning buyruqbozlik usulidan voz kechib, uni rag‘batlantirishi, bajargan ishlarining foydali ekanini ta’kidlashi zarur. Maqsad o‘quvchida avvaldan belgilangan xususiyatlarni shakllantirish emas, balki uning o‘z-o‘zini anglashi, o‘zligini namoyon etishi, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun imkon berishdir.

An’anaviy ta’lim majburlikka, o‘qitishni qattiqqo‘llik asosida tashkil etishga asoslangan bo‘lib, bunda ta’lim oluvchilar deyarli mustaqil faoliyat yuritishmaydi va ularning tashabbuslari bo‘g‘iladi. An’anaviy o‘qitishda o‘quvchining o‘quv faoliyati ijodiy xarakterga ega bo‘lmaydi. Boshqacha aytgandi, u avtoritar pedagogikaga asoslanadi. Unda o‘quv jarayoni o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishi va qayta tiklanishidan iborat.

Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan ta’limda CLIL texnologiyasi asosida o‘qitish tizimida kasbiy ta’limning nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

– ta’lim oluvchining o‘qitish jarayonidagi o‘rnini belgilash va shaxsini rivojlantirish;

– ta’lim oluvchining kasbiy shakllanishi bo‘yicha me’yoriy talablar qo‘yish (ushbu me’yorlar Davlat ta’lim standartlarida o‘z aksini topgan);

– ta’limni tashkil etishda pedagogning ijobiy qobiliyati va mahoratiga tayanish;

– ta’lim jarayonida tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘qitishning CLIL texnologiyasini qo‘llash.

Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan CLIL asosida o‘qitish mazmunini texnologiyalashtirish asosan, o‘quv didaktik materiallarni ishlab chiqish va o‘quvchi shaxsini rivojlantirishni

ko‘zda tutadi. Texnologiyalashtirish o‘quvchiga o‘quv materiali mazmunini mustaqil tanlash va o‘z-o‘zini baholashiga imkoniyat yaratadi.

Shuni ta’kidlash joizki, ingliz tilini CLIL texnologiyasi asosida tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitishni samarali tashkil etish o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi. Agar o‘qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitishning CLIL texnologiyalari ham samara bermaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tadbirkorlikka yo‘naltirilgan ingliz tili o‘quv jarayonini CLIL texnologiyasi asosida sifat va samaradorligiga erishish uchun uni kafolatini ta’minlashning yagona yo‘li ta’lim oluvchini shaxsan faolligiga, mas’uliyatiga bog‘liqdir.

CLIL texnologiyasi asosida tadbirkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyada yangi kafolatli natijalarni olish uchun mavjud pedagogik tizimni modernizatsiyalashtish bilan ta’limning subyekt holatini amalga oshirishga erishamiz.

Shu sababli barcha ingliz tili pedagoglari tadbirkorlikka yo‘naltirilgan pedagogik va CLIL texnologiyalarni o‘zlashtirib, o‘z faoliyatlarida amaliyotda qo‘llay olsalar ta’limni, sifat va samaradorligiga erishish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, - 2006.

2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, – 2004.

3. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, - 2008.

4. Abdukarimova E.I. Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari. “Ta’lim texnologiyalari”, №3, 2016, 25-28 b.

5. Teaching Business Ethics: IN THE AGE OF MADOFF. Author(s): R. Edward Freeman, Lisa Stewart and Brian Moriarty. Source: Change,Vol. 41, No. 6 (November/December 2009), pp. 37-42. Published by: Taylor & Francis, Ltd. Stable URL: http://www.jstor.org/stable/20696192. Accessed: 18-04-2018 11:24 UTC.

6. University Microfilms. 300 North Zeeb Road. Ann Arbor, Michigan 48106. A Xerox Education Company. NEW YORK UNIVERSITY. SCHOOL OF EDUCATION. HORARY.

7. Полонский В.М. Методы исследования проблем образования. –М: Педагогика, 1994. 79 с.

8. Mirzakarimova M.M. “Xorijiy tillarni tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitishning didaktik asoslari”/ Monograph. – ISBN 978-93-96563-8-9. 2022-164 p. https://novateurpublication.org Published by Novateur Publication 466, SadashivPeth, M.S. India-411030.

9. Mirzakarimova M.M. “General pedagogy (Theory of pedagogy)”/ O‘quv qo‘llanma. “Omadbek print number one” bosmaxona MChJ. 170000, Andijon. 2023-209 bet.

10. Mirzakarimova M.M., A.Yu.Teshaboyev, M.Ishanova “Umumiy pedagogiga”/ Darslik. “Omadbek print number one” bosmaxona MChJ. 170000, Andijon. 2023-420 p.

11. Mirzakarimova M.M. “Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning CLIL texnologiyalari”/ Monografiya. “Step by step print” nashriyoti MChJ. Andijon 2024. ISBN: 978-9910-769-16-0. 167-bet.

Muxabbat SHARIPOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, ‘‘Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda xorijiy tillar’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KOGNITIV-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslanishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganishi uchun o‘zbek adabiy til me’yorlari yuzasidan bilim, ko‘nikmalarini hosil qilish, ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, to‘g‘ri talaffuz, leksik birliklar, lug‘atlar, kichik hajmli gaplar va matn tuzish bilan ishlash malakalarini rivojlantirish bo‘yicha respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy fikr-mushohadalari o‘rganilib tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish, o‘zbek adabiy til me’yorlari, kognitiv-kommunikativ kompetensiya, bilim, ko ‘nikma, malaka, leksik birliklar, lug ‘atlar, matn ustida ishlash.

В статье дается научно-теоретическое обоснование формирования когнитивно-коммуникативных компетенций при обучении английскому языку в начальных классах, формирование знаний, умений и навыков по нормам узбекского литературного языка для изучения английского языка учащихся начальных классов, развитие их устной и письменной речи, развитие навыков работы с правильным произношением, лексическими единицами, словарями, мелкими предложениями и составлением текста. были изучены и проанализированы научные взгляды наших и зарубежных ученых..

Ключевые слова. Обучение английскому языку в начальных классах, стандарты узбекского литературного языка, познавательно-коммуникативная компетентность, знания, умения, компетентность, лексические единицы, словари, работа над текстом.

The article studied and analyzed the scientific and theoretical justification of the formation of cognitive-communicative competencies in teaching English in primary classes, the formation of knowledge, skills on the norms of the Uzbek literary language for students of primary classes to learn English, the cultivation of their oral and written speech, the development of skills for working with correct pronunciation, lexical units, dictionaries, small

Key words. Teaching English in primary school, standards of the Uzbek literary language, cognitive and communicative competence, knowledge, skills, competence, lexical units, dictionaries, work on text.

Keyingi yillar mobaynida o‘quvchi-yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratilib, bu borada keng ko‘lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, ta’lim tizimida barcha o‘quv fanlarini o‘qitish bilan bir qatorda xorijiy tillarni o‘rgatish o‘qituvchilar oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang‘ich ta’limdagi pedagogik jarayonda ta’lim tarbiyani uyg‘un holda rivojlantirib borish, ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ta’limiy vositalar orqali grammatik bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish, nutqiy madaniyat, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lisoniy sath manbalari shuni anglatadiki, azaldan insonlarda xorijiy tillarni o‘rganishga va uni mustahkam egallab amaliy kommunikatsiga tatbiq qilishga qiziqish ortib borganligining guvohi bo‘lamiz. Xorijiy tillarni o‘rganish va ularni yosh avlodga o‘qitish jarayonlarining tarixini

tadqiq qilgan pedagog olim I.V.Rahmonovning fikricha,"qadim zamonlarda ham xorijiy tilni o‘rganishda eng oddiy, eng sodda yo‘llar izlangan va qo‘llanilgan". Shuningdek, o‘quvchilarga xorijiy tilni o‘qitishda osondan murakkablik sari yo‘naltirish ulardagi chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini ertaroq rivojlantirishga harakat qilish maqsadga muvofiq. O‘z ona tilisida nutqi ravon shakllantirilib, mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan o‘quvchining xorijiy tilni o‘rganishi va shu bo‘yicha bilim egallashi uchun zamin hozirlagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda taniqli psixolog olim N.I.Jinkinning fikri asoslidir. "Nutq – intellektni rivojlantiruvchi kanal. Til qancha erta o‘zlashtirilsa, bilimlar shuncha oson va to‘liq o‘zlashtiriladi". Shuning uchun ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bilimni vaqtli o‘rgatishni muayyan bir davrda emas, balki maktabgacha ta'lim muassasasiga borishidan olidin boshlash samaralidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda diqqat e'tiborimizni matnlar bilan ishlashga bag‘ishlashimiz ayni muddaodir. A.A.Pronina matnning lingvistik tahlili nutq o‘stirishning materiali bo‘ladi deydi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda oddiy, soddalikni, ular uchun oson bo‘lgan jihatlarni tabdiq etish zarur. Shunda ularda xorijiy tilda muloqot qilish malakalari o‘sa boshlaydi.

Bolaga chet tilini o‘rgatishdan ko‘zlangan eng muhim maqsad shu til bilan muloqot qila olish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bu esa quyidagilarni talab qiladi: o‘z nutqida chet tilini ifodalash va so‘z boyligini yetarli darajada oshirish, so‘zlash va gapirish ko‘nikmalarini hosil qilish zaruriydir. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish o‘quv darsligidagi lisoniy sath materialini o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganishida avval tinglash va uni tallaffuz qilish samaradorligiga e'tibor qaratish natija beradi. Dars jarayonida boshlang‘ich o‘quvchilari ingliz tilida muloqot qilishga o‘rgatishda so‘zlarni o‘qishi, leksik birliklar va lug‘at ustida ishlash, kichik hajmli gaplar tuzish suhbatlashish yordamida til o‘zlashtiriladi. Xorijiy til bolani til o‘rganish qobiliyatini davomligina emas, balki o‘z ona tilini ham yaxshi o‘zlashtirishiga ta'sir ko‘rsatadi. B. Belyayevning e'tiroficha, "Xorijiy til o‘qituvchisi o‘z faninigina emas, bolaning psixofiziologik xususiyatini ham yaxshi bilishi kerak. Zero, xorijiy tilni o‘zlashtirish orqali bolada obyektiv olamni aks etishi o‘zgarishi mumkin. Tilni lug‘at tarkibini egallash o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning filologiya, tarix, madaniyat, geografiyaga oid bilimdonligini oshiradi". Shunisi ayonki, ingliz tilini o‘rganishni boshlagan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari birinchi navbatda lug‘at bilan ishlash yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Qator izlanishlarda xorijiy tilni egallashda ona tilining roliga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, D. Atkinson, Ya. Kolker, Ye.Ustinovalarning fikricha, xorijiy tilni o‘rganishda ona tilidan sistemali foydalanish maqsadga (dars maqsadlaridan kelib chiqqan holda) erishish va bilimlarni egallash qudug‘idir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar ingiliz tilini o‘rganishda mazkur ta'lim bosqichidagi ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarga tayanadilar. Shu bois ulardagi davlat tilida rivojlangan va o‘quv predmetlarida o‘rganilgan ma'lumotlar so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va yozish me'yorlari matndan matnga tinglab tushunganda va uni o‘qiganda shu bilan birgalikda matn mazmunini uning go‘yasini tarbiyaviy ahamiyatini dars jarayonida tahlil qilish mobaynida ularning o‘z ona tilisida fikrni ifodalash uni bayon qilish matndan mantiqiy xulosa chiqarish malakalari shakllanib boradi. Shu o‘rinda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘quv ta'limiy vositalarini mashq va topshiriqlarni mustaqil bajara olishi matnlarni o‘qib tushunishi, tasviriy va badiiy matn yaratishi matn

yozish qoidasiga amal qilishi mavzuga doir gap tuza olishi o‘z sinfdoshlarining fikrini yoshiga mos matn yaratishi matndagi yozishda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishi mustaqil va kreativ fikrlashi metodis N.Oloviddinovaning fikricha “1- 4-sinf o‘quvchilariga ona tili mashg‘ulotlariga darslikda berilgan qoidalarni shunchaki yodlatish o‘rniga tuzilishi nisbatan murakkab bo‘lgan matnlar yuzasidan bayon yozish, hayolidagi o‘ylarini ifoda etish imkoniyatini beradigan mavzularda yozma va og‘zaki hikoyalar tuzishga o‘rgatish kerak. Har bir ijodiy ish maxsus tuzilgan reja asosida yozilishi lozimligini ham unutmaslik kerak. boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda.

Chunki, o‘z ona tilisida so‘zlarni tog‘ri talaffuz qilib, erkin gapira olgan o‘quvchigina xorijiy til leksikasini anglay oladi. Bu sohada birinchi fikrlar pedagog Ya.A. Komenskiy tomonidan ilgari surilgan. U bolalarda og‘zaki nutq faoliyatining rivojlantirilishi muhim, deb hisoblagan. G. Suit va V. Fietorlarning fikriga ko‘ra, 6-7 yoshli bolalarga chet tilini o‘rgatish uchun ularda 4 ta ko‘nikma,malakani rivojlantirish ijobiy samara beradi. Maktab yoshidagi bolalar psixik funksiyalarini rivojlantirish uchun psixo-pedagogik jihatlarga e’tibor berish lozim. Bu jihatlar, 1-sinf o‘quvchilari uchun asosiy psixik funksiyalar jumladan, his etish, e’tibor berish, xotira, tasavvurga ega bo‘lish, idrok qilish kabilarni shakllanishiga ko‘maklashadi. Shakllantiruvchi mashq til materialini o‘zlashtirsada, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo‘llanilishida va takomillashtiruvchi mashq chet tilda fikr bayon etish va o‘zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, ya’ni bilim olish, ko‘nikmani egallash va malakani o‘stirishga mo‘ljallangan mashqlar, deb qaraladi. Nutqni egallash xususiyatiga ko‘ra, aniqrog‘i, sezgi va analizatorlarning ishtirokiga qarab, retseptiv va reproduktiv nutq mashqlari bajariladi.

Bu funksiyalar, o‘quvchilarning xorijiy til manbalarini o‘zlashtirishlariga turtki bo‘lib xizmat qiladi, sababi til o‘rganishning muhim tarkibiy qismlaridan biri nutq ko‘nikma, malakasini oshirishdir. Xorijiy tilni o‘zlashtirish, o‘quvchilarning diqqatini va hissiyotlarini oshishiga ko‘maklashadi, xotirani mustahkamlaydi va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi. Innovatsion usullar o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol bo‘lishini, bilim va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishini va motivatsiyasini oshirishini ta’minlaydi. Bu usullar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda qilish va savollarga javob topishni o‘rganishiga imkoniyat beradi va ularni ingliz tilini yaxshi o‘rganishga yordam beradi. Biz o‘qituvchilar uchun ko‘plab innovatsion usullar mavjud, bu usullarni o‘rganish va amalga oshirish orqali o‘quvchilarimizni ta’lim jarayonida motivatsiyalash, fikrlash va bilimlarini oshirishni yanada samarali qilishimiz mumkin.

Pedagogik faoliyatda qo‘llaniladigan ta’lim usullarini ularning xarakteriga ko‘ra bir nechta guruhga ajratish mumkin. Ular:

1. Fikrlash, diqqat, xotira, idrok, tasavvurning alohida operatsiyalarini shakllantiruvchi va faollashtiruvchi usullar.

2. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarida muammoli, izlanuvchan vaziyatlarni hosil qilishga imkon beruvchi usullar.

3. O‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish bilan bog‘liq holda ularda ichki kechinma, his-tuyg‘ularni faollashtirishga xizmat qiluvchi usullar.

4. O‘quvchilar faoliyatini nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, shuningdek, ularning mustaqil ta’lim olishlarini ta’minlovchi usullar.

5. O‘quv jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro jamoaviy va shaxsiy munosabatlarini boshqarish usullari.

Ta’lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – Ta’lim jarayonini yuqori mahoratda tashkil etish, ta’lim jarayonining samarali va unumli bo‘lishiga yordam beradi.

Bu, o‘quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, ularni qo‘llab-quvvatlashi, ta’lim jarayonining samarali boshqarilishi va ta’lim muvaffaqiyatini oshirishiga imkon beradi. Ta’lim jarayonining maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni esa avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish va aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Rolli o‘yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma’naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi. Rolli o‘yinlar doimo o‘zgarib turganligi tufayli bola o‘ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o‘ziga bo‘lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o‘zgarib turadigan o‘yinjarayonida namoyon bo‘ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o‘yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atkinson, D. The mother tongue in the classroom: a neglected resource? //ELT Journal. 1987, Vol. 41/4. PP. 422

2. Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранним языке. – М.: Висшая школа, 1980. –120 с.

3. Mirjalolova L. va boshq. “Mashg’ulotlarni o‘tkazish texnologiyalari” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua.–T; 2017

4. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.

5. Ishmuhamedov R. va boshqa. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.

Kuzibay KULTAYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti k.f.n., dotsent
Sohiba JUMANOVA,
Yangihayot tumani 332-maktab kimyo fani o‘qituvchisi

MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARIDAN NAMUNALAR USLUBIY KO‘RSATMALARDAN FOYDALANISH MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun organik kimyo fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlari, ularning bajarish tartibi bo‘yicha ko‘rsatmalar va talabalarni baholash mezonlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar yetishmasligi mavjud va uslubiy ko‘rsatmalar asosida topshiriqlarini yozish tartibi haqida talabalar bilim va tajribaga ega emas.

Tayanch so‘zlar. Mustaqil ta’lim, mustaqil ish, kredit modul tizimi, interfaol metodlar, kreativ fikrlash, modul, individual, rasmli va jadvalli slayd.

В статье представлена информация о самостоятельных учебных заданиях по органической химии для студентов высших учебных заведений, инструкция по порядку их выполнения и критерии оценки учащихся. Также наблюдается нехватка методических указаний по выполнению самостоятельных учебных заданий, а о порядке написания своих заданий на основе методических указаний учащиеся не имеют знаний и опыта.

Ключевые слова. Самостоятельное обучение, самостоятельная работа, кредитно-модулная система, интерактивные методы. творческое мышление, модульное, индивидуальное, изобразительное и табличное слайд.

The article provides information on independent educational assignments in organic chemistry for students of higher educational institutions, instructions on the procedure for their implementation and criteria for evaluating students. There is also a lack of methodological guidelines for completing independent educational assignments, and students do not have the knowledge and experience of the procedure for writing their assignments based on methodological guidelines.. .

Key words. Independent learning, indepentdent work, credit-module system, interactive methods. creative thinking, modular, individual, pictorial and table slide.

Mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ta’lim – olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli. Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir. Kasb ta’lim yo‘na-

lishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak bakalavr o‘qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va pedagogik madaniyatni takomillashtirish haqida yozilgan monografiyada mustaqil ta’lim olish usullariga ko‘rsatilgan.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonini tashkil qilish muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda o‘quv rejalarda talabalar o‘quv yuklamasining hajmi auditoriya va mustaqil ta’limning nisbati bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratildi. Ta’lim dasturining o‘zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta’lim orqali o‘rganilishi belgilandi. Mustaqil ta’lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo‘yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o‘zlashtirilishidir.

Talabalarga mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajartirish asosida berilgan fan bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishga va mustahkamlashga, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga erishiladi. Mustaqil ta’lim topshiriqlari bajarish axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kreativ fikrlash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Hozirgi kunda kimyo fanida mustaqil ta’lim topshiriqlarini aniqlash va ularni bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar berish va mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarganligi uchun kredit modul tizimida talabalarni baholash muammolari mavjud. Shu sababli ushbu maqolada muammolarni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatildi.

Talaba berilgan mustaqil ta’lim topshiriqlarini interfaol usullarda ifodalash talab etilgan. Interfaol ta’limda o‘quv materialini o‘zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi harakatlari, o‘zaro ta’sirlari va hamkorliklari ta’lim jarayonida qo‘lga kiritiladigan muvaffaqiyatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil ta’limi va fan modullarini o‘zlashtirish jarayonini sinonim deb qaralishi kerak. Ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalar o‘rganilayotgan fandan umumiy tushunchalardan iborat bilimlar shakllantirilsa, talaba mustaqil ta’lim faoliyati natijasida fanni to‘liq o‘zlashtiradi. Bu jarayon talabalarni kreativ fikrlashga, olgan bilimlarini tatbiq eta olish qobiliyatini shakllantirishga va muammolarni oson yechimini topa olish qobiliyati shakllantirishga olib keladi .

Mustaqil ta’lim topshiriqlari “Kimyo” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun Organik kimyo faniga mo‘ljallandi. Organik kimyo fanidan 10 ta mavzu tanlanib, har bir mavzu uchun 15 ta mustaqil ta’lim topshiriqlari yaratildi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish uchun qisqacha uslubiy ko‘rsatmalar ifodalandi va mustaqil ta’lim topshirig‘i mazmuni, mohiyati va ularni bajarish uchun ko‘rsatmalar berildi.

1. Referat tayyorlash. Mavzuga oid ma’lumotlar referat ko‘rinishiga keltiriladi. Titul varag‘ida – oliy ta’lim muassasasi nomi, bajaruvchining guruhi, familiyasi, ismi, sharfi, referat mavzusi va yil yoziladi. Keyingi betida referat mundarijasi beriladi. Kirish, I bob. Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharxi (2 ta bobchadan iborat), II bob. Adabiyotlar va elektron manbalardagi mutonosibliklar (2 ta bobchadan iborat), Xulosa, Adabiyotlar ro‘yxati.

Kirishda mavzuning ahamiyati, referatning maqsadi va vazifalari yoritiladi, 1-bobda asosiy adabiyotda berilgan ma’lumotlar beriladi va 2-bobda bir nechta adabiyotlar solishtiriladi va bir biriga zid keladigan tushunchalar muhokama qilinadi. Xulosa qismida referat to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beriladi. Referatning oxirgi varag‘ida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Referatning barcha varag‘i nomerlanadi.

2. Taqdimot yaratish tayyorlash tartibi. Mavzu bo‘yicha elektron taqdimotlar Power Point dasturi asosida yaratiladi. 1-slaydda talabaning yo‘nalishi, guruhi, familiyasi, ismi, sharfi, mavzu nomi va yil yoziladi. Matnli slayd – bunda mavzu-ga oid materiallar tezis holatda qisqa yoziladi. Jadvalli slayd – mavzuga oid materiallar jadval ko‘nishida keltiriladi. Rasmli slayd – mavzuga oid rangli rasmlar va sxemalar joylashtiriladi. Video va animatsiyali slayd – bunda mavzuga oid video va animatsiyalar giperssilka orqali slaydga biriktiriladi.

3. Bir javobli test tuzish. Mavzu materiallari yuzasidan 30 va undan ortiq test topshiriqlari tuziladi. Bunda savol, bitta to‘g‘ri va 3 ta alternativ (noto‘g‘ri) javoblar keltiriladi.

4. Ko‘p tanlov javobli test tuzish. Mavzu materiallari yuzasidan 15 va undan ortiq test topshiriqlari tuziladi. Teng nisbatdagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblardan iborat ko‘p tanlov javobli topshiriqlar. Biri birini to‘ldiruvchi juft topshiriqlar. O‘zaro mos keladigan tushunchalarni juftlab yozish topshiriqlari. Ketma-ketlikni aniqlash topshiriqlari.

5. Glossariy tuzish. Mavzuda uchraydigan barcha atamalar ajratib olinadi, alfavit bo‘yicha taxlanadi va ma’nosi yoritib beriladi. Jadval ko‘rinishida yoziladi.

6. Dars ishlanma tayyorlash. Mavzu yuzasidan 80 minutga mo‘ljallangan dars ishlanmasini tayyorlaydi. Unda: – Dars shakli (ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya); – Mavzu; – Maqsad; – O‘quv jihozlari va vositalari; – Metod va texnologi-yalar; – Tashkiliy qism; – Asosiy qism; – Yakuniy qismlar bo‘lishi shart.

7. Esse yozish. Mavzu to‘liq o‘qib chiqiladi, materiallar tasavvur eta oladigan darajada o‘zlashtiriladi va o‘zining so‘zlari asosida mavzuning mag‘zi yoziladi. Bunda qo‘lyozma ham elektron holati ham hisobga olinadi.

8. Mavzuga oid savollar to‘plamini tayyorlash. Mavzuning asosiy tushunchalari yoritishga qaratilgan savollar va topshiriqlar majmuasini tayyorlaydi. Agar faqat savollardan iborat bo‘lsa savollar 30 va undan ortiq bo‘lishi kerak. Shu bilan birga o‘zi tuzgan barcha savollarga javob bera oladigan darajada mavzuni o‘zlashtirish kerak bo‘ladi.

9. Muammoli savollar tayyorlash. Muammoli savollar ishlab chiqish uchun mavzu bo‘yicha manbalar ko‘rib chiqiladi kimyoviy bilim va dunyo qarashi asosida javob beradigan savollar tuziladi. Muammoli savollar soni 10 va undan ortiq bo‘lishi kerak.

10. Mavzuga oid tushunchalarni jadval ko‘rinishiga keltirish. Manbalardan mavzuga oid tushunchalar ajratiladi va uning xususiyatidan kelib chiqib bir necha grafali jadval tuziladi. Har bir jadvalni nomi berilishi kerak.

11. Doklad tayyorlash. Dokladda reja oddiy bo‘ladi. O‘rganilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqib 4 yoki 5 tadan iborat reja tuziladi. Dokladning kirish qismi bo‘lib, dokladning maqsad vazifasi va mazmuni qisqacha bayon etiladi. Asosiy qismi doklad rejasi asosida yoritilib boriladi. Xulosa qismidan so‘ng foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Titul varog‘i referat kabi bo‘lib, “referat” so‘zi o‘rniga “doklad” so‘zi yoziladi.

12. Multimediali taqdimot tayyorlash. Bunda ham mavzu bo‘yicha elektron taqdimotlar PowerPoint dasturi asosida yaratiladi. Oddiy taqdimotdan farqi audio, video va animatsiya bilan jilo beriladi. Matnlar audio format orqali tushuntiriladi.

13. Venn diagrammasi. Ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko‘rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g‘oyalar, tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo‘llaniladi. Aylanma diagramma. Har bir doiradagi bo‘sh joylar tafovutlarni yozish uchun ishlatiladi; doiralar kesishganda hosil bo‘lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar va hokazolar) umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniladi.

14. Klasterlar tuzish. Bu metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klasterlar tuzishda Microsoft Word yoki

PowerPoint oynasining vstavkasi panilidagi figuri va SmartArt komandasida joylashgan shakllardan foydalanilanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

15. Rasmli topshiriqlar tayyorlash. Bu topshiriq materiallari rasmlar orqali tushuntirilgan mavzular uchun tayyorlanadi. Matn asosida rasm chizish, bunda rasmning nomi va qismlari matn asosida beriladi va shu ma’lumotlar asosida rasm chiziladi. Nomsiz rasmlar, bunda rasm beriladi, rasmning nomi va uni qismlari berilmaydi, nomi va qismlarini yozish uchun joy qoldiriladi. Jarayonni izohlang, bunda jarayonni ifodalaydigan sxema va rasmlar beriladi va uni izohlash topshiriladi.

16. Eksperimental masalalar tuzish. Eksperiment orqali ko‘riladigan moddalarning xossalari, reaksiyalarning belgilariga oid, moddalarni farqlashga, aniqlashga doir ma’lumotlarga asoslangan masalalar tuzish.

17. Kimyoviy eksperimentga oid qurilmalarning ko‘p variantli chizmalarini chizish. Mavzuga doir laboratoriya ishlarining turli, muqobil variantlarining chizma yoki tasvirlari izohlangan holatda beriladi.

18. Kimyoviy modalarning tuzilish modellarini yasash (turli jihoz va materiallardan foydalanib, o‘quvchini ijodkorligidan kelib chiqib).

19. Mavzuga doir eksperiment video lavhalariga xulosalar yozish, to‘plash va ularga oid kengaytirilgan xulosalar yozish, (induktiv mantiqiy yondashgan holda kuzatilgan jarayonlarni izohlashdan boshlab, bosqichma bosqich kengaytirib, kimyoviy nazariya yoki qonunlargacha bog‘lovchi xulosalar majmuini yaratish).

Bajarilgan mustaqil ta’lim topshiriqlari asosida talabalar bilimini baholash tartibi ishlab chiqildi. Organik kimyo fanidan talabalar bilimini baholash 20 ball jami 6 kredit bilan baholanadi. 2-jadvalda modullar bo‘yicha kreditlar taqsimoti keltirilgan.

Agar talaba mustaqil ta’lim topshirig‘ini bajarishda berilgan mavzuni 86-100 foiz da to‘liq yoritib bergan bo‘lsa, bu talaba 17,2 balldan 20 ballgacha ball bilan baholanadi.

Agar talaba mavzuni yoritib berishda ba’zi xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lib, topshiriqni 71-85 foiz da bajargan bo‘lsa, talabaga 14,2 balldan 17,2 ballgacha ball qo‘yiladi.

Agar talaba mavzuning mohiyatini qisman yoritgan bo‘lib, 60- 70 foiz da bo‘lsa, bunday talabaga 12 balldan 14,1 ballgacha ball qo‘yish mumkin.

Mustaqil ish mavzulari 15 ta turli ko‘rinishdagi topshiriqlar, 20 ball beriladi.

	Fan modullari	Topshiriq turi	Topshiriq shakli	MT ga ajratilgan miqdori
1	1-Modul. Organik birikmalarning tuzilishi haqida umumiy ma’lumot.	Individual	1-Jadval asosida	5 soat, 1 ball 0,5 K
2	2-Modul. To‘yingan va to‘yinmagan uglevodorodlar	Individual	1-Jadval asosida	5 soat, 2 ball 0,5 K
3	3-modul. Aromatik uglevodorodlar	Individual	1-Jadval asosida	10 soat, 2 ball 0,5 K
4	4-modul. Organik moddalarning asosiy manbalari	Individual	1-Jadval asosida	5 soat, 2 ball 0,5 K
5	5-modul. Kislorodli orga-nik birikmalar	Individual	1-Jadval asosida	10 soat, 2 ball 0,5 K
6	6-modul. Azotli organik birikmalar	Individual	1-Jadval asosida	10 soat, 2 ball 0,5 K

7	7-modul. Geterotsiklik birikmalar.	Individual	1-Jadval asosida	10 soat, 2 ball 0,5 K
8	8-modul. Uglevodlar	Individual	1-Jadval asosida	10-soat, 2 ball 0,5 K
9	9-modul. Aminokislotalar va oqsillar	Individual	1-Jadval asosida	10-soat, 2 ball 0,5 K
10	10-modul. Element-organik birikmalar	Individual	1-Jadval asosida	5-soat, 1 ball 0,5 K
11	11-Modul. Tabiiy va sintetik yuqori molekular birikmalar	Individual	1-Jadval asosida	5-soat, 1 ball 0,5 K
12	12-Modul. Kimyo sanoati	Individual	1-Jadval asosida	5-soat, 1 ball 0,5 K
				90-soat, 20 ball 6 K

Yuqorida ifodalangan mustaqil ta’lim topshiriqlari bajarish uchun talaba organik kimyo fanidan olgan bilimlari asosida kreativ fikrlaydi, mavjud bilimlarini tatbiq etadi, bilim o‘rganishga intiladi va muammolarni oson yechimini topa olish qobiliyatini o‘zida shakllantiradi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish uchun talaba ijodiy yondashadi va ilmiy fikrlaydi.

Foydalanilgan adabiyatlar

1. Muslimov H.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2009. 300 -bet

2. Zaripov L., Xayitov N., Tohirov Z. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish. Metodik qo‘llanma. –T.: Sano-Standart, 2023, 32 bet.

3. Kultayev K. K. To‘yingan uglevodorodlar mavzusiga interfaol usullarning tatbig‘i. Mug‘allim xem uzluksiz bulumlengupuy. 2/1-san, 2023, mart-aprel, Ilmiy-metodik jurnal, Nukus, 92-98 bet

4. Kultayev K.K., Nizomov I.G. Keys-stadi texnologiyasi asosida azot va uning birikmalari mavzusini o‘qitish texnologiyasi. “Tabiiy birikmalar asosidagi resurs tejamkor usullar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Guliston, Universitet, 2022-yil, 276-279 bet

5. Kultayev Kuzibay Kazakbaevich, Jumanova Sohiba Yuldashevna “Etilen va uning gomologik qatori uglevodorodlarini” mavzusini o‘quvchilarga interfaol usullar asosida tushuntirish. “Sifatli ta’lim-inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili” mavzusidagi falqaro va onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil, Namangan, 118-120 bet.

6. Kultayev K.K. To‘yingan uglevodorodlar mavzusiga interfaol usullarning tatbig‘i. Kimyo fanini o‘qitishning istiqbollari: kecha, bugun,ertaga. Respublika ilmiy ommaviy anjuman, Jizzax, JDPU, 2022 -yil 241-243-bet

7. Kultayev K.K., Kurbanbaeva D.D. Didaktik o‘yinlar asosida organik moddalarni o‘rganish. Kimyo fanini o‘qitishning istiqbollari: kecha, bugun, ertaga. Respublika ilmiy ommaviy anjuman, Jizzax, JDPU, 2022-yil, 229-232-bet

Mashhura QOLQONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

TARBIYALANUVCHILARDA FAOLIYATLI YONDASHUV ASOSIDA IJODIY TASAVVURNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida tasavvur kabi kognitiv jarayonni rivojlantirish muammosi pedagogikada ham, psixologiyada ham murakkab jarayon ekanligi, chunki "tasavvur'', "konsepsiya'' va "fikrlash'' tushunchalari o'rtasida doim olimlar tomonidan tortishuvlar bo'lishi xususida so'z yuritilar ekan, ijodiy tasavvurni aqliy jarayon sifatida tavsiflashda faoliyatli yondashuv asosida ijodiy tasavvurni shakllantirish metodikasini takomillashtirish zarurligi qayd etilib taklif va mulohazalar bildiriladi.

Tayanch so'zlar. Kognitiv bilib, tarbiyachi, metodist, metodika, oila, tarbiyalanuvchi, tasavvur, funksional rivojlanish, inversiya, sxematizatsiya, kombinatsiya.

В статье подчеркивается необходимость совершенствования методики формирования творческого воображения на основе деятельностного подхода к характеристике творческого воображения как психического процесса, поскольку проблема развития такого познавательного процесса, как воображение у дошкольников, является сложным процессом как в педагогике, так и в психологии. будут сделаны предложения и замечания.

Ключевые слова. Познавательные знания, педагог, методист, методика, семья, воспитанник, воображение, функциональное развитие,инверсия,комбинация,схематизация.

The article notes that the problem of developing such a cognitive process as imagination in preschoolers is a complex process in both pedagogy and psychology, since there is always controversy between the concepts of "imagination', "concept' and "thinking' by scientists, while the need to improve the methodology for the formation of creative imagination on the basis of a**n**

Key words. Cognitive knowledge, educator, methodist, methodology, family, pupil, imagination, functional development, inversion,combination, schematization.

Kognitiv jarayon sifatida tasavvurga qiziqish nisbatan yaqinda – XIX–XX asrlar oxirida paydo bo'ldi. Tasavvur funksiyalarining birinchi eksperimental tadqiqotlari shu davrga to'g'ri keladi. T. Ribotning fikricha, tasavvur katta va kichik hamma narsaning ixtiro qilinishiga sababdir va u bu jarayonning eng muhim belgilaridan biri – stixiyalilikni ham ta'kidlaydi. Vaqt o'tishi bilan tasavvurni o'rganishning jihatlari kengayadi va rivojlana boshlaydi. Eksperimentlar orqali ushbu psixik jarayonning ma'nosini o'rganishga imkon beradigan turli usullar va texnologiyalar; nazariy bilimlar asosida olingan ma'lumotlarni tushuntirish uchun farazlar ilgari suriladi; tasavvurning boshqa kognitiv jarayonlar bilan aloqasi ko'rib chiqiladi.

Bu sohada ishning ikkita asosiy tushunchasi mavjud edi: bir tomondan, tasavvur ontogenez sharoitida, ya'ni rivojlanish jarayonida ko'rib chiqildi. A.Ya. Dudetskiy "tasavvur" tushunchasiga yangi obrazlar va g'oyalarni yaratishdan iborat bo'lgan va insonning mavjud hayotiy tajribasiga asoslangan psixologik jarayon sifatida ta'rif berdi. Boshqa tomondan, tasavvur uning funksional rivojlanishi, ya'ni batafsil individual tasvirlarni bir butunlikka, "katta rasm'' ga olib kelish jarayoni sifatida tushunilgan. Ushbu konsepsiya tarafdorlaridan biri E.V. Ilyenkov tasavvurni insonning universal qobiliyati

deb hisoblagan, bu uning qismlarining batafsil tasvirlaridan butun vaziyatning global qiyofasini yaratishga imkon beradi. Shuningdek, u xayol faqat insonga xos bo‘lgan qobiliyat ekanligini, uni hayvonlardan ajratib turishini ta’kidladi.

Kognitiv jarayon sifatida tasavvurni rivojlantirish uchun maxsus usullar va usullardan foydalanish nazarda tutiladi.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, tasavvur psixikaning obrazli moslashuvchan moslashuvchanligi, ya’ni yangi tuzilishga ega bo‘lish uchun obyekt shaklini o‘zgartirish va o‘zgartirish qobiliyati bilan bog‘liq.

Bu qobiliyat turli xil tasavvur mexanizmlarida amalga oshiriladi:

1. Agglyuksinatsiya yoki paradoksal birikma – turli obrazlar, g‘oyalar va hodisalar qismlarining bog‘lanishi, birikmasi. Natijada fantastik va ertak qahramonlari yaratiladi. Masalan, Kentavr, suv parisi, feniks qushi.

2. Simvollashtirish – timsollar yordamida reallikda psixikni ifodalash jarayoni. Simvollash jarayoni badiiy ijod uchun asosiy hisoblanadi, chunki san’at ramzlar bilan ishlaydi. Belgilar tili polisemantik bo‘lib, tasvirni har xil ko‘rib chiqishni talab qiladi.

3. Giperbolizatsiya – obyektni oshirish yoki kamaytirish yoki alohida qismlar, uning xususiyatlarini oshirish. Bu mexanizmni ko‘p qurolli xudolar va etti boshli Serpent-Gorynych misolida ko‘rish mumkin.

4. Ta’kidlash – har qanday narsani maqsadli ta’kidlash: predmet yoki hodisaning belgilari, xossalari va sifatlari. Ushbu texnikaning mahsuloti tasvir tarkibidagi kichik o‘zgarishlar yoki uning to‘liq o‘zgarishi bo‘lishi mumkin.

5. Sxematizatsiya – alohida tasvirlar yoki obyektlarning o‘xshashligining faqat asosiy belgilarini ajratib ko‘rsatish. Masalan, elementlari o‘simlik dunyosidan olingan bezakning tasviri.

6. Ma’naviyat – jonsiz narsalar yoki hodisalarni in’om etish (tirik mavjudotlarning belgilari, masalan, gapirish qobiliyati).

7. Inversiya – berilganga qarama-qarshi tasvirga aylantirish. Bunga misol qilib qurbaqa malika yoki yong‘oqni keltirish mumkin.

8. Kombinatsiya – bir-biriga o‘xshash obrazlarni bir-birining ustiga qo‘yishdan oldin ularni birlashtirish, adabiy tanqidda shunga o‘xshash atama bor – “jamoa obrazi’’. “Kondensatsiya’’ natijasida bir nechta tasvirlar bir butun sifatida paydo bo‘ladi.

Ijodiy tasavvur jarayonining mexanizmini tushunib, biz ushbu aqliy jarayonning muhim xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin:

1. Tasvirlarning yangiligi va originalligi. Samarali xarakter, ijodiy tasavvur, qayta yaratishdan farqli o‘laroq, yangi haqiqatni yaratishga imkon beradi.

2. Tasvirlarning yorqinligi shundan dalolat beradiki, eng aql bovar qilmaydigan g‘oyalar ijod mahsulida “haqiqat’’ deb ataladigan narsaga ega bo‘ladi, qahramonlar muallifning xohish-irodasidan qat’i nazar, “o‘z hayotlarini yashay boshlaydilar’’. Masalan, L.N. Tolstoy ba’zan real voqealar, odamlar va faktlarni ular bilan aralashtirib yuborishini ta’kidlagan, uning tasavvuri nima yaratgan.

3. Ijodiy tasavvur jarayoni va uning mahsulini hissiy va hissiy bo‘yash.

4. Xayoliy obrazning uni ifodalashning badiiy vositalari bilan bog‘lanishi, ya’ni yaratilgan obraz uni qanday va qanday vositalar va materiallar yordamida jonlantirish zarurligini belgilaydi.

5. Ijodiy tasavvur har doim ma’naviylashtirilgan tasvirlarni yaratadi.

6. Ijodiy tasavvur nafaqat shaxsiy tajribaga yoki hal qilinishi kerak bo‘lgan vaziyatli

ijodiy muammoga, balki ongsiz chuqur tasvirlarga – arxetiplarga (yoki C.G. Jung ularni “prototiplar’’ deb atagan) asoslanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tasavvur psixik jarayon va har qanday ijodkorlikning asosi sifatida inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon bir qator o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi:

– mavjud voqelikni obrazli ifodalash va ushbu g‘oyalar bilan harakat qiling (bu funksiya fikrlash jarayoniga kiradi);

– insonning emotsional holatlarini tartibga solish (tasavvur insonning ehtiyojlarini qisman yoki to‘liq qondirishi mumkin, buning natijasida stress va kuchlanish darajasi kamayadi. Ushbu funksiya faol rivojlanmoqda va psixoanalizda qo‘llanilmoqda);

– diqqat, idrok, xotira va nutq kabi kognitiv jarayonlarning ixtiyoriyligini shakllantirish va rivojlantirishda tasavvurning ishtiroki (qayta tiklangan tasvirlar yordamida inson in’ikoslarni, xotiralarni, bayonotlarni nazorat qilishi va obyekt yoki hodisaning muhim belgilariga e’tiborini qaratishi mumkin);

– faoliyatingizni rejalashtirish qobiliyatini shakllantirish;

– o‘z faoliyatingizni tashkil qilish: motivatsiya, harakatlarni dasturlash, rejani amalga oshirish jarayonini nazorat qilish va tuzatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Немов Р.С. Психология: Учеб. для студентов высш. пед. учеб. заведений: в 3 кн., Кн. 1. Общие основы психологии. [Текст] / Р.С. Немов. – М.: Владос, 2010. С. – 687.

2. Немов Р.С. Психология: Учеб. для студентов высш. пед. учеб. заведений: в 3 кн., Кн. 2. Психология образования. [Текст] / Р.С. Немов. – М.: Владос, 2008. С. – 608-60.

3. Николаенко Н.Н. Психология творчества. [Текст] / Н.Н. Николаенко. – СПб.: Речь, 2002. С. – 512.

4. Пороцкая Е.В. Ребёнок: слово и его роль в развитии воображения [Текст] / Е.В. Пороцкая // Дошкольное воспитание. – 2004. – № 9. – С. 70-72.

5. Ражников В.Г. Дневник творческого развития. [Текст] / В.Г. Ражников. – М.: Мезаппи, 2000. С. – 80.

Rixsivoy ZIYAYEV,
Toshkent davlat agrar universiteni, “Biokimyo va fiziologiya”
kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori
Muattar UMAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi, ToshDAU, ‘‘Biokimyo va fiziologiya’’
kafedrasi kabinet mudiri

UGLEVODORODLARNING (ALKENLAR MISOLIDA) OKSIDLANISH REAKSIYALARINI O‘RGANISH

Annotatsiya

maqolada uglevodorodlar (alkenning) kimyoviy xossalarini o‘rganish jarayonida, ularning oksidlovchilik xossalari yoritilgan va bu uglevodorodlarning oksidlovchilik xossalariga oid namunaviy masalalarning yechish usullari keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. Alkenlar, yonish, oksidlanish, Vagner reaksiyasi, oksidlovchi, qaytaruvchi, orsidlanish darajasi, qo‘sh bog‘ga sifat reaksiya.

в статье рассматривается процесс изучения химических свойств углеводородов (алкенов), освещаются их окислительные свойства и приводятся методы решения примерных задач, касающихся окислительных свойств этих углеводородов..


Ключевые слова. Алкены, реакции горения, окисления, реакция Вагнера, окислитель, восстановитель, степень окисления, качественная реакция на двойную связь.

In the process of studying the chemical properties of hydrocarbons (alkenes), the article highlights their oxidative properties, and provides solutions to model issues regarding the oxidative properties of these hydrocarbons.

Keywords. Alkenes, combustion reactions, oxidation, Wagner reaction, oxidizing agent, reducing agent, oxidation state, qualitative reaction to a double bond.

Organik kimyoda oksidlanish reaksiyalari ko‘p uchraydi. Biz bu kichik maqolada uglevodorodlarning (alkenlar misolida) oksidlanish reaksiyalari va ularning oksidlovchilik xossalariga oid namunaviy masalalarning yechish usullari bilan tanishishni lozim topdik.


Mavzuni o‘rganishda dastlab o‘qituvchi o‘quvchlarga shuni alohida ta’kidlab, misollar asosida tushuntirib o‘tishi lozimki, organik birikmalarda vodorodning oksidlanish darajasi doimo +1, kislorodniki doimo – 2, uglerod atomlariniki esa ularning birikish tartibiga (tabiatiga) qarab – 4 dan 0 va +4 gacha o‘zgarishi mumkin. Masalan, uglerodning oksidlanish darajasi metanda – 4, etilenda -2, asetilenda -1, CO_2 da esa +4 ga tengligini oson hisoblab topib, isbotlab berish mumkin. Agarda organik birikmalar tarkibida bir necha uglerod atomi bo‘lsa, ularning birikish tartibiga ko‘ra, ularning har biri turlicha oksidlanish darajasiga ega bo‘ladi. Masalan:




3,3,4 -trimetilgeksen-1

Alkenlarning oksidlanish reaksiyalari. Alkenlar turli oksidlovchilar, turli katalizatorlar va sharoitda oksidlanganda turli oksidlanish mahsulotlari hosil bo‘ladi.


1) Vagner reaksiyasi. Rus olimi Yegor Yegorovich Vagner (1849-1903) alkenlarni kaliy permanganatning suvli eritmasida ohistalik bilan oksidlab, ikki atomli spirtlar-glikollar hosil qiladi. Bu reaksiya alkenlar (to‘yinmagan uglevodorolar) uchun sifat reaksiya hisoblanadi. Masalan, etilen bu sharoitda oksidlansa etilen glikol hosil bo‘ladi:




Elektron formulasi:




2) Alkenlar kislotali muhitda qizdirilib, $KMnO_4$, yoki $K_2Cr_2O_7$ bilan oksidlansa, qo‘sh bog‘ joyidan parchalanib, turli karbon kislota va ketonlar hosil bo‘ladi:



Masalan, 2-metilbutenning kislotali muhitda $KMnO_4$ da oksidlanish reaksiya to‘liq tenglamasi:



Elektron tenglamasi:



Bu reaksiyaga asoslanib, alken molekulasida qo‘sh bog‘ning qaysi uglerod atomlari orasida joylashganligi aniqlanadi.

3) Yuqori temperatura 200°C da Ag kumush katalizatori ishtrokida alkenlar toza kislorodda oksidlansa, alken oksidlari (epoksialkenlar) hosil bo‘ladi:

$$CH_2 = CH_2 + \tfrac{1}{2}\,O_2 \xrightarrow{Ag} CH_2 - CH_2 \quad (O)$$

etilen oksidi

4) Etilen katalizator (paladiy tuzlari) ishtirokida oksidlansa asetaldegid, propendan esa atseton olinadi. Bu reaksiyalar sanoatda sirka aldegid va atseton olinishining eng muhim usullaridan biri hisoblanadi:

$$2CH_2 = CH_2 + O_2 \longrightarrow 2CH_3 - CHO$$

$$2CH_3 - CH = CH_2 + O_2 \longrightarrow 2CH_3 - CO - CH_3$$

5) Alkenlarning ozonlash. Alkenlar ozon (O_3) ta’sirida oksidlanib ozonidlarni hosil qiladi. Ozonidlar beqaror birikma bo‘lib, suv ta’sirida tezda aldegid va ketonlarga parchalanadi:

$$(CH_3)_2C = CH - CH_3 + O_3 \longrightarrow (CH_3)_2C(O)CH(O)CH_3 \xrightarrow[-H_2O]{+H_2O} (CH_3)_2C = O + CH_3 - CHO$$

2-metilbuten-2 — ozonid — dimetilketon — sirka aldegid

6) Alkenlarning toza kislorodda yoki havoda yonishi (oksidlanishi) natijasida doimo CO_2 va H_2O hosil bo‘ladi. Uglevodorodlarning, jumladan, alkenlarning yonishi ham o‘z mohiyati jihatidan oksidlanish – qaytarilish reaksiyalaridir. Bunda doimo kislorod oksidlovchi bo‘lib, yonayotgan alkenlar qaytaruvchi bo‘ladi:

$$C_nH_{2n} + 3n/2O_2 \longrightarrow nCO_2 + nH_2O + Q$$

Misol uchun, propenning yonish reaksiyasi tenglamasi:

$$\overset{-3}{2CH_3} - \overset{-1}{CH} = \overset{-2}{CH_2} + 9O_2 \longrightarrow \overset{+4}{6CO_2} + \overset{+1}{6H_2O}$$

$$\left.\begin{aligned} C^{-3} - 7e^- &= C^{+4} \\ C^{-1} - 5e^- &= C^{+4} \\ C^{-2} - 6e^- &= C^{+4} \end{aligned}\right\} \; 18 \;|\; 9 \;|\; 2$$

$$O^0_2 + 2\cdot 2e^- = 2O^{-2} \quad 4 \;|\; 2 \;|\; 9$$

Alkenlarning oksidlovchilik xossalariga oid namunaviy masalalarning yechimlarini keltiramiz.

1-masala. Massasi 0,28 g bo‘lgan uglevodorodning yonishidan 0,448 l uglerod (IV) – oksidi va 0,36 g suv hosil bo‘ldi. Shu uglevodorodning vodorodga nisbatan zichligi 28 ga teng bo‘lsa, uning formulasini aniqlang.

Berilgan: m(C_xH_y) = 0,28 g: V(CO_2) = 0,448 l; m(H_2O) = 0,36g; $D_{H_2} = 28$.

C_xH_y x = ?; y = ?

Yechish: Uglevodorodning molyar massasini aniqlaymiz:

$$M(C_xH_y) = 2 \cdot D(H_2) = 2 \cdot 28 = 56 \text{ g/mol}$$

Uglevodorodning kislorodda to‘liq yonish reaksiya tenglamasining umumiy ko‘rinishda yozib, koeffisentlarni topib yozamiz:

$$C_xH_y + \frac{4x+y}{4} O_2 \rightarrow xCO_2 + \frac{y}{2} H_2O$$

Tenglamadagi formulalarning ustki qismiga berilgan, pastki qismiga esa topilishi kerak bo‘lgan qiymatlarni yozib chiqamiz:

$$\underset{56\,g/mol}{\overset{0,28\,g}{C_xH_y}} + \frac{4x+y}{4} O_2 \longrightarrow \underset{22,4x \quad \frac{y}{2} \cdot 18\,g}{\overset{0,448\,l \quad 0,36g}{xCO_2 + \frac{y}{2} H_2O}}$$

So‘ngra berilganlar asosida proporsiyalar tuzamiz va bularni yechib, x, y ni topamiz :

$$x = \frac{56 \times 0,448}{0,28 \times 22,4} = 4 \quad ; \qquad y = \frac{56 \times 0,36}{0,28 \times 9} = 8 \quad .$$

Shunday qilib x = 4 ; y = 8. Uglevodorodning formulasi C_4H_8 ekan.

2-masala. 2,8 g noma’lum alken to‘liq oksidlanganda (yonganda) 4,48l karbonat angidrid CO_2 (n.sh.da) hosil bo‘lgan. Bu alkenning havoga nisbatan zichligi 2,414 ga teng. Alkenning molyar massasi va formulasini aniqlang.

Yechish: Alkenning molyar massasini aniqlaymiz:

$M(C_nH_{2n}) = 29 \cdot D_{(havo)} = 29 \cdot 2,414 = 70$ g/mol

Alkenning umumiy yonish reaksiya tenglamasi:

$$\underset{70\,g/mol}{\overset{2,8\,g}{C_nH_{2n}}} + \frac{3n}{2} O_2 \longrightarrow \underset{n \cdot 22,4l}{\overset{4,48l}{nCO_2 + nH_2O}}$$

Proporsiya tuzamiz: 2,8 : 70 = 4,48: n22,4; $n = \frac{70 \times 4,48}{2,8 \times 22,4} = 5$

Alkenning molyar massasi: 70g/mol. Alkenning umumiy formulasi C_nH_{2n}.

Bundan: 12n + 2n = 70; 14n = 70; n = 5.

Demak, alkenning formulasi C_5H_{10}.

3-masala. Penten-2 ning sulfat kislota ishtirokida kaliy bixromat bilan oksidlanish reaksiya tenglamasini tuzing va tenglashtiring,

Yechish: 1) Penten-2 ning H_2SO_4 ishtrokida $K_2Cr_2O_7$ ta’sirida oksidlanish reaksiya tenlamasini tuzamiz:

$$CH_3CH = CHCH_2CH_3 + K_2Cr_2O_7 + H_2SO_4 \longrightarrow CH_3COOH + CH_3CH_2COOH + Cr_2(SO_4)_3 + K_2SO_4 + H_2O$$

2) Reaksiyada oksidlanish darajasi o‘zgargan elementlar aniqlanib, yozib olinadi. Bunda Cr ning oksidlanish darajasi +6 dan +3 ga, penten-2 dagi 2 va 3-y chi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi esa -1 dan +3 ga o‘zgaradi:

$$\overset{-1}{C}H_3\overset{-1}{C}H = \overset{-1}{C}H\overset{-1}{C}H_2CH_3 + K_2\overset{+6}{Cr}_2O_7 + H_2SO_4 \longrightarrow$$

$$\longrightarrow \overset{+3}{C}H_3\overset{+3}{C}OOH + CH_3\overset{+3}{C}H_2COOH + \overset{+3}{Cr}_2(SO_4)_3 + K_2SO_4 + H_2O$$

3) Elektron tenglamasini tuzamiz:

$$\left.\begin{array}{l} C^{-1} - 4e^- = C^{+3} \\ C^{-1} - 4e^- = C^{+3} \end{array}\right\} \; 8 \;\Big|\; 4 \;\Big|\; 3$$

$$2Cr^{+6} + 6e^- = 2Cr^{+3} \quad\; 6 \;\Big|\; 3 \;\Big|\; 4$$

4) Bu topilgan koeffitsiyentlar asosida reaksiya tenglamasi tenglashtiriladi:

$$3\overset{-1}{C}H_3\overset{-1}{C}H = \overset{-1}{C}H\overset{-1}{C}H_2CH_3 + 4K_2\overset{+6}{Cr}_2O_7 + 16H_2SO_4 \longrightarrow$$

$$\longrightarrow 3\overset{+3}{C}H_3\overset{+3}{C}OOH + 3CH_3\overset{+3}{C}H_2COOH + 4\overset{+3}{Cr}_2(SO_4)_3 + 4K_2SO_4 + 16H_2O$$

Xulosa qilib aytganda uglevodorodlarning alkenlar misolida oksidlanish reaksiyalarni o‘rganish va yonish va oksidlanish reaksiyalariga oid masalalarni eychish o‘quvchilarning bu mavzu bo‘yicha olingan bilimni mustahkamlaydi va boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyayev R., Mirzayev R., Abdusamatov A. Ordanik kimyo “Qaldirg‘och”, –T., 2019, 99-108-betlar.

2. Muftahov A. G. Umumiy kimyo. –T.: O‘qituvchi NMIU, 2004, 130-145-betlar

3. Ziyayev R., Umarova M. Organik kimyoda spirtlar mavzusi o‘tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalaini o‘rganish, “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal 2023-yil, 5-son, 54-57-betlar.

Mahfuza TO‘YCHIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Shahlo NARALIYEVA,
Jumabek Axmeto‘g‘li Tashenev nomidagi Qozog‘iston universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

TA’LIMDA IJODIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o‘quvchilarning ta’limdagi ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur — PISAning 2022-yilgi natijalaridan olingan xulosa, tashkilot hisobotiga tayangan holda esa ta’limda ijodiy fikrlashning o‘rni, ahamiyati masalasi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim, ijodiy fikrlash, maktab, o‘quvchi, malaka, ko‘nikma, test, kognitiv jarayon, tabiiy, ilmiy savodxonlik, direksiya, stipendiya.

В статье освещается вопрос о роли, значении творческого мышления в образовании, выводы международной программы Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) по оценке успеваемости учащихся в образовании — Пиза за 2022 год, опираясь на отчет организации.

Ключевые слова. Образование, творческое мышление, школа, ученик, компетентность, умение, тестирование, познавательный процесс, естественная, научная грамотность, дирекция, стипендия.

The article covers the international program for assessing students ' performance in education of the Organization for Economic Cooperation and Development (OECD) — a conclusion from the 2022 natijas of Pisa, and the role and importance of creative thinking in education, relying on the organization's report.

Key words. Education, Creative Thinking, School, student, qualification, skills, testing, cognitive process, natural, scientific literacy,steering, scholarship.

O‘zining asosiy maqsadi har bir o‘quvchi uchun o‘zgarish va imkoniyatlar davrida rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, qadriyatlar va munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash deb biladigan OECDning PISA testida O‘zbekiston 2022-yilda ilk bora ishtirok etdi. 81 mamlakat va hududdan 690 mingdan ortiq 15 yoshli maktab o‘quvchilari ishtirok etgan tadqiqotda O‘zbekistondagi 202 maktabdan 7200 dan ortiq o‘quvchi qatnashgan. Mamlakat har uch yo‘nalish bo‘yicha ham oxirgi o‘ntalikdan joy oldi: matematik savodxonlik – 364 ball (tadqiqotda ishtirok etgan davlatlar ko‘rsatgan o‘rtacha natija 472 ball bo‘ldi), o‘qish savodxonligi – 336 ball (476 ball), tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha – 355 ball (485 ball). Natija yomon chiqqan bo‘lsa-da mutasaddilar “PISA shok” bo‘lmaganligini, har holda natijalar shunday bo‘lishi kutilganligini, bu testdan maqsad, ta’lim qaysi nuqtada turganini bilish ekanligini aytishmoqda. Test olingandan keyin natijalar bo‘yicha hisobot taqdim etiladi. OECD hisoboti ta’limning ertasi uchun katta ahamiyatga egadir. Tashkilot ham olingan test natijalarining tahlili mamlakatlarning ta’lim siyosatini belgilashda ahamiyat kasb etadi deb hisoblaydi. Natijalar tahlil qilingan hisobot ochiq saytda beriladi. Bu boshqa mamlakatlar hisoboti bilan tanishish imkonini beradi.

OECD Ta’lim va malakalar direksiyasi direktori Andreas Shlyayxer bu haqida shunday yozadi: PISA butun dunyoda vazirliklarga yuqori sifatli qiyosiy ma‘lumotlarni taqdim etib, ushbu tahlildan amalda foydalanishga undaydi. Maktab rahbarlari va o‘qituvchilari PISA maktablari testi orqali yuqori sifatli kompetensiyaga asoslangan baholash va taqqoslash ma’lumotlaridan foydalanishlari mumkin. Maktablar o‘z o‘quvchilariga yordam berish uchun PISA ma’lumotlaridan foydalanadilar. Bu ularga dunyodagi eng ilg‘or ta’lim tizimlari bilan solishtirganda ta’lim natijalari ta’lim sifati va imkoniyatlarini bo‘yicha mamlakat ta’limi qayerda turishini yuqoridan ko‘rish imkonini beradi.

PISA natijalari ta’limga javobgar mutasaddilarga: natijalar, tahlillar ular uchun nimani anglatadi, ular eng innovatsion, rivojlangan ta’lim tizimlaridan nimani o‘rganishlari mumkin? Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari o‘xshash boshqa mamlakatlaridagi faoliyat yuritadigan yuqori natija ko‘rsatgan maktablarga qanday o‘xshash yoki ulardan qanday farqli jihatlari bor kabi savollarga javob topish imkonini beradi. OECDning Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) 20 yildan ortiq vaqt davomida 80 dan ortiq mamlakatda milliy maktab tizimlarining sifati, tengligi va samaradorligini baholab keladi. PISA tomonidan to‘plangan ma’lumotlardan foydalanib, mamlakatlar o‘z o‘quvchilarining saviyasini taqqoslab, keyingi qadamlar uchun qimmatli ma’lumotlarni olishlari mumkin bo‘ldi. Sinovdan so‘ng, har bir maktab natijalarini foydalanuvchilarga qulay formatda (qo‘llanma va video ko‘rsatmalar shaklida) hisobotini oladilar.

Testda qatnashgan har bir maktab tahlil natijalaridan o‘qish samaradorligini, ta’lim sifatini yaxshilash maqsadlaridan foydalanadi. Masalan, hisobotdan Braziliya shimoli-sharqidagi Sobral maktabi o‘qituvchilarini tanishtirib, o‘quvchilar va ularning oilalari bilan muloqot o‘rnatishda aniq yo‘nalish uchun foydalangan. Taylandda hisobotidan keyin kam ta’minlangan o‘quvchilarni maktabga borishlariga va ularning o‘qishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan stipendiya dasturlari ishlab chiqildi. Portugaliyada maktab o‘z ma’lumotlaridan turli sohalardagi maktablar bilan solishtirib, imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanmoqda. Tashkilot ma’lumotlar nafaqat maktablar uchun o‘z doirasida foydali, balki o‘rganish, tanqidiy fikrlash va ta’limni yaxshilash uchun boshqa davlatlardagi ishtirokchi maktablarning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlari bilan bo‘lishish va ulardan o‘rganish imkoniyatini beradi deb hisoblaydi.

O‘zbekistonda test tahlili, undan xulosalar chiqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlar hali sezilganicha yo‘q. OECD xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) 15 yoshli o‘quvchilarning majburiy ta’limni yakunlash arafasida zamonaviy jamiyatlarda to‘liq ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni qay darajada egallaganliklarini baholaydi. Baholash nafaqat talabalar bilimlarini takrorlay olishlarini aniqlaydi; shuningdek, talabalar o‘rgangan narsalaridan qanchalik yaxshi ekstrapolyatsiya qilishlari va bu bilimlarni maktabda ham, maktabdan tashqarida ham qo‘llashlari tekshiriladi. Bu o‘quvchilar bilganlari uchun emas, balki bilganlari bilan nima qila olishlarini aks ettiradi. O‘quvchilarga texnologiya (AKT) bo‘yicha tanishuv anketasi tarqatildi. PISA OECD va hamkor mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa’y-harakatlar mahsulidir.

Baholar hamkorlikda ishlab chiqiladi, ishtirokchi davlatlar tomonidan kelishiladi va milliy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ishtirokchi maktablardagi o‘quvchilar, o‘qituvchilar va direktorlarning hamkorligi PISAni ishlab chiqish va amalga oshirishning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Baholash o‘qish, matematika va fanning asosiy sohalariga qaratilgan. O‘quvchilarning innovatsion sohadagi malakasi ham baholanadi; PISA 2022 yilda ushbu soha ijodiy

fikrlash edi. PISA baholash tizimida ijodiy fikrlashga alohida e'tibor beriladi. Tashkilot hisobotida ijodiy fikrlashga oid ko‘plab tadqiqotlar, manbalarga murojaat qilinadi. Unda ijodiy fikrlash ijodiy ish bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan kognitiv jarayonlarni anglatadi. U amaliyot orqali rivojlantirilishi mumkin bo'lgan va barcha talabalar kundalik sharoitda namoyish eta oladigan moslashuvchan individual qobiliyat sifatida ta'riflanadi. 2022 PISA da ijodiy fikrlash nima uchun baholandi degan savolga shunday izoh berilgan: ijod insoniyat madaniyati va jamiyatdagi fan va texnologiyadan tortib falsafa, san'at va gumanitar fanlargacha bo‘lgan turli sohalarda asqotadi. Butun dunyodagi tashkilot, jamiyatlar kelajagi innovatsiyalar va ilm-fan rivojiga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda. Barcha shaxslar ijodiy fikrlash salohiyatiga ega. Ijodiy fikrlash – bu bilim va amaliyotga asoslangan aniq kompetensiya bo‘lib, u orqali cheklangan va qiyin sharoitda ham inson (yoki guruh) yaxshiroq natijalarga erishish mumkin. Tadqiqotchilar va o‘qituvchilar ham ijodiy fikrlashga e'tibor qaratishlari bilan bir qator boshqa ko‘nikmalarni: o‘zaro va shaxsiy va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlashi, shaxsiyatni rivojlantirish, ijtimoiy faollik va kelajakda erishadigan muvaffaqiyatiga ilhomlantirishi mumkin. Ijodiy fikrlash ta‘lim orqali rivojlanishi mumkin va rivojlanishi kerak. Ta'limning asosiy roli o‘quvchilarni hayotda va jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ijodiy fikrlash qobiliyati quyidagi sabablarga ko‘ra maktabda rivojlantirish kerak bo‘lgan muhim kompetensiyadir:

Ijodiy fikrlashning ahamiyati mehnat bozori talabi bilan to‘g‘ri proportsional bo‘lib, u o‘quvchilarga o‘z salohiyatini kashf etish va rivojlantirishga yordam beradi. Maktablar o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida va ularni o‘zlari yashayotgan jamiyatning bir qismi ekanliklarini his qilishlarida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun maktablar yoshlarga qobiliyatlarini tarbiyalashda yordam berishlari va jamiyatning yanada keng rivojlanishiga hissa qo‘shishlari uchun imkoniyat yaratishlari kerak

Ijodiy fikrlash til va san'atdan tortib fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) fanlarigacha bo‘lgan qator fan sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ijodiy fikrlash o‘quvchilarning ijodkor bo‘lishiga, o‘ziga xos g‘oyalarni rivojlantirishga, fikr yuritishga va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Har qanday boshqa qobiliyat singari, ijodiy fikrlashni ham qo‘llab quvatlash orqali rivojlantirish mumkin. O‘qituvchilar sinfda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini qanday tan olish va rag‘batlantirish mumkinligi borasida yordamga muhtoj. Shu boisdan OECD Ta'lim tadqiqotlari va innovatsiyalar markazi (CERI) ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ijodiy fikrlashni baholash bir necha bosqichli jarayonlarni ichiga oladi. Unda ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, test topshiruvchilar mansub bo‘lgan madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni inobatga olish va h. Ijodkorlik “individual yoki guruh ijtimoiy kontekstda aniqlanganidek yangi va foydali bo‘lgan mahsulot ishlab chiqaradigan qobiliyat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir” deb ta'riflanadi. Odamlar ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun ma'lum bir sohada tegishli bilim va ko‘nikmalar, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlaydigan muhitga muhtojlik sezadilar. Ijodkorlikka oid adabiyotlar odatda “katta-c” ijodkorligi va “kichik-c” ijodkorligini farqlaydilar. “Katta-C” (“Big-C”) ijodkorligi intellektual va texnologik yutuqlar, badiiy yoki adabiy asarlar bilan bog‘liq. “Kichik-c” ijodkorligini esa barcha namoyish etishi mumkin. Ijodkorlikning bu turi oddiygina suratga olishdan, dasturxon bezashdan muammoga yechim topishgacha namoyon bo‘ladi. Adabiy ta'lim ijodiy fikrlashni oshirishdagi o‘rni alohida ekanligi sababli maqolada OECD Xalqaro tashkilotining u haqidagi qarashlari,

ta’riflari, izohlarini bilish ta’lim kelajagiga qiziqqanlar uchun foydali deb hisobladik va unga alohida to‘xtalildi.

Quyida katta hisobotdan olingan xulosalarning bir qismi sifatida O‘zbekistonning ba’zi ko‘rsatkichlarini qo‘shni Qozog‘iston davlati ko‘rsatkichlari bilan berilmoqda. Qo‘shni davlat PISA testida oldin ham ishtirok etganligi, natijalari biznikidan yaxshiroq ekanligi ma’lum (matematik savodxonlik - 425, o‘qish savodxonligi - 386, tabiiy-ilmiy savodxonlik - 423) Faqat ta’limga har xil yondashish tufayli yaqin tarixda bir xil va-ziyatda bo‘lgan mamlakat misolida nimalarni boy berganligimizni ko‘rsatish nuqtayi nazaridan solishtirildi.

O‘zbekiston	**Qozog‘iston**	**OECD mamlakatlaridagi o‘rtacha ko‘rsatkich(izoh)**
O‘quvchilar matematika, o‘qish va tabiatshunoslik bo‘yicha OECD o‘rtacha ballidan kamroq ball oldi	O‘quvchilar matematika, o‘qish va tabiatshunoslik bo‘yicha OECD o‘rtacha ballidan kamroq ball to‘plashdi.	
O‘rtacha ko‘rsatkichdan kichikroq qismi kamida bitta fan bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan (5 yoki 6 daraja).	O‘rtacha ko‘rsatkichdan kichikroq qismi kamida bitta fan bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan (5 yoki 6-darajali).	Talabalarning OECD mamlakatlaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan kichikroq qismi barcha uchta fan bo‘yicha minimal malaka darajasiga (2-darajali yoki undan yuqori) erishdi.
14 foizi o‘qish bo‘yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan	36 foizga yaqini o‘qish bo‘yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan	OECD o‘rtacha: 74 foiz. O‘rtacha uzunlikdagi matndagi asosiy g‘oyani aniqlay oladilar, aniq, garchi ba’zan murakkab mezonlar asosida ma’lumot topadilar, matnlarning maqsadi va shakli haqida fikr yurita oladilar.
5 va undan yuqori darajaga hech bir o‘quvchi erishmagan	1 foiz o‘quvchi o‘qish bo‘yicha 5 yoki undan yuqori darajaga erishgan	OECD o‘rtacha: 7 foiz Bu talabalar uzun matnlarni tushunishlari, mavhum tushunchalarni qo‘llay oladilar. Matn mazmuni yoki manbasiga taalluqli bo‘lgan belgilarga asoslanib, mazmun va fikr o‘rtasidagi farqni aniqlaydilar
25 foizi (eng katta ulush) ijtimoiy-iqtisodiy miqyosda 4-xalqaro guruhda bo‘lgan. Ularning matematika bo‘yicha o‘rtacha ball 368 ballni tashkil etdi.	32 foizi (eng katta ulush) ijtimoiy-iqtisodiy miqyosda 4-xalqaro guruhda bo‘lgan. Matematika bo‘yicha o‘rtacha ball 430 ballni tashkil etdi.	Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy maqomning PISA indeksi shunday hisoblab chiqilganki, PISA imtihonini topshirgan barcha talabalar, ular yashash joyidan qat’i nazar, bir xil ijtimoiy-iqtisodiy miqyosda olinadi. Turli mamlakatlardagi o‘xshash ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi o‘quvchilarning ko‘rsatkichlarini solishtirish uchun ushbu indeksdan foydalanish mumkin. Estoniya va Yaponiyada bir xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoyitga ega bo‘lgan talabalar sezilarli darajada yuqori ball olishadi.
Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustun bo‘lgan bolalar (ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlaganlik bo‘yicha eng yuqori 25 foiz) matematika fanidan 22 ball bilan kam ta’minlangan talabalardan (pastki 25 foiz) ko‘proq natija ko‘rsatdilar.	Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustun bo‘lgan o‘quvchilar (ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlanganlik bo‘yicha eng yaxshi 25 foiz) matematika fanidan 41 ball bilan kam ta’minlangan o‘quvchilardan (pastki 25 foiz) o‘zib ketishdi. \\	Bu OECD mamlakatlari bo‘yicha ikki guruh o‘rtasidagi o‘rtacha farqdan (93 ball) kichikroqdir

O‘g‘il bolalar matematika fanidan qizlardan 6 ballga o‘zib ketdi; o‘qish bo‘yicha qizlar o‘g‘il bolalarni 22 ballga ortda qoldirdi.	O‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtacha matematika bo‘yicha bir xil darajada natija ko‘rsatdilar, lekin qizlar o‘qish bo‘yicha o‘g‘il bolalardan 27 ballga ortda qoldi.	Dunyo miqyosida matematika bo‘yicha 40 ta davlat va iqtisodda o‘g‘il bolalar qizlardan, yana 17 ta davlat yoki iqtisodda qizlar o‘g‘il bolalardan o‘zib ketgan, qolgan 24 tasida esa sezilarli farq aniqlanmagan. PISA 2022 da ishtirok etganlardan 81 tadan 79 tasida o‘qish bo‘yicha qizlar o‘rtacha o‘g‘il bolalardan yuqori ball olishgan.
1)86 foizi maktabda oson do‘st orttirishini 2) 71 foizi o‘zini maktabga erkin his qilishini qayd etdi. 3) 18 foiz maktabda o‘zini yolg‘iz his qilishini va 18 foiz maktabdagi narsalardan chetda qolganligini aytdi	1)78 foizi maktabda oson do‘st orttirishini 2) 72 foizi o‘zini maktabda erkin his qilishini qayd etdi. 3) 18 foiz maktabda o‘zini yolg‘iz his qilishini va 17 foiz maktabdagi narsalardan chetda qolganini aytdi	1)OECD o‘rtacha: 76 foiz 2) OECD o‘rtacha: 75 foiz 3) OECD o‘rtacha: 16 foiz va 17 foiz
10 foizi o‘z hayotlaridan qoniqish hosil qilmaydi: ular hayotdan qoniqish darajasini 0 dan 10 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha 0 dan 4 gacha baholagan.	6 foizi o‘z hayotlaridan qoniqish hosil qilmaydi: ular hayotdan qoniqishlarini 0 dan 10 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha 0 dan 4 gacha baholagan.	OECD mamlakatlari bo‘ylab o‘rtacha hayotdan qoniqish hosil qilmaydigan talabalar ulushi 18 foizga oshgan.
15 foiz o‘quvchilar maktabga ketayotganda o‘zlarini xavfsiz his qilmaydi	o‘quvchilarning 16 foizi maktabga ketayotganda o‘zini xavfsiz his qilmaydi	OECD o‘rtacha: 8 foiz
14 foiz o‘z sinflarida o‘zlarini xavfsiz his qilmaydi.	12 foiz o‘z sinflarida o‘zlarini xavfsiz his qilmaydi	OECD o‘rtacha: 7 foiz
20 foizi maktabning boshqa joylarida (masalan, koridorda, oshxonada, hojatxonada) o‘zlarini xavfsiz his qilmaydi	14 foizi maktabning boshqa joylarida (masalan, koridor, oshxona, hojatxona) o’zlarini xavfsiz his qilmaydi	OECD o‘rtacha: 10 foiz
Qizlarning 15 foiz va o‘g‘il bolalarning 19 foiz oyiga bir necha marta zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan.	Qizlarning 19 foiz va o‘g‘il bolalarning 26 foiz oyiga bir necha marta zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan	OECD o‘rtacha: qizlar 20 foiz; o‘g‘il bolalar 21 foiz
jami xarajatlar taxminan 15 300 AQSh dollariga (XQP) teng.	jami xarajatlar taxminan 29 800 AQSh dollariga (XQP) teng.	Muayyan chegaragacha (o‘n yillik o‘qish uchun 2019-yilda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan barcha boshlang‘ich va o‘rta maktab yillarida bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan)jami xarajatlari 75 000 AQSh dollaridan (XQP)

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o‘quvchilarning ta’limdagi ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur — PISAning 2022-yilgi natijalari hali jiddiy tadqiqotlar olib borilishga manba bo‘la oladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.oecd.org/
2. file:///D:/Piza/b25efab8-en.pdf
3. The_Perceived_Returns_to_Education_and_the_Demand_for_Schooling.pdf uzbekistan.pdf
4. Global-Proficiency-Framework-Reading.pdf

Javlon HAKIMOV,
Samarqand ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish markazi Axborot texnologiyalari bo'limi katta o'qituvchisi

ELEKTRON RESURSLARNI O'QUV JARAYONIGA JORIY ETISHNING ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasi o'quv jarayonini sifatini yuqori darajaga ko'tarishga olib kelishi haqida fikr yuritilga. Shuningdek, texnik vositalar yordamida o'quvchilarga berilayotgan o'quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyatilari aytib o'tilgan

Tayanch so'zlar. Ommaviy axborot, inklyuziv ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, modellashtirish texnologiyasi, kompyuter texnologiyalari.

В статье рассматривается, как технология компьютерного моделирования может привести к повышению качества учебного процесса. Также отмечены возможности увеличения объема учебного материала, предоставляемого учащимся техническими средствами, внедрения достижений современной науки.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технологии моделирования.

The article suggests that computer-based modeling technology leads to a high level of quality of the educational process. Also mentioned are the opportunities to increase the volume of educational materials given to students using technical means, to enter the achievements of modern science

Key words. Information and communication technologies, mass media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.

Yaqin vaqtlargacha texnik o'qitish vositalari sifatida kino va televideniya ta'lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o'quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtayi nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o'xshash vazifalarni bajaradi. Ya'ni obyektni (ta'lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo'li bilan ko'rsatiladi.

Modellashtirish uslubidan hozirgi kunda virtual borliq, virtual laboratoriyalar yaratishda keng foydalanilib kelinmoqda. Model (lat. modulus – o'lchov, me'yor) – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, yerning modeli – globus, osmon va undagi yulduzlar modeli – planetariy ekrani.

Modelning taqribiylik xarakteri turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tajriba o'tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta'sir etadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni, murakkab jarayonlarni hamda turli ko'rinishdagi modellar yordamida

tadqiq qilish, turli jarayon, hodisalar va voqelikning modellarini yasash va o‘rganishdir.

Atrofimizdagi dunyoni o‘rganish natijasida noaniq va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit etmaydi. Ular asosida o‘rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to‘laroq akslantirishi zarur.

Modellar tanlash vositalariga qarab abstrakt, fizik va boshqa guruhlarga ajratiladi. Abstrakt modellar qatoriga matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi. Modellarning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz:

1. Fizik model. Tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o‘lchami, tezligi, ko‘lami) jihatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo‘ladi.

2. Matematik modellar tirik organizmlarning tuzilishi, o‘zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo‘lib, tajriba ma’lumotlariga ko‘ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so‘ngra tajriba yo‘li bilan tekshirib ko‘riladi.

Umuman olganda, kompyuterli modellashtirishning metodologiyasida quyidagi yo‘nalishlarni ajratish mumkin:

Geometrik yo‘nalish – tajribalarni tashkillashtirish koordinatalar tekisligida amalga oshiriladi. Kompyuter geometrik obyektlarning xossalarini o‘rganish va matematik farazlarni tekshirishda modellarni qurish va ularni tadqiq etish vositasi sifatida ishlatiladi.

Ikkinchi yo‘nalish – turli xil xarakatlarni modellashtirish bilan bog‘liq. Kompyuter modellari orqali turli xil harakatli masalalarni yechish mumkin. Bu ro‘y beradigan jarayonlarning mohiyatini chuqurroq va kengroq his qilishga, olingan natijalarni haqiqiy baholash va kompyuterda modellashtirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarning kengayishiga olib keladi.

Uchinchi yo‘nalish – kompyuter ekranida funksiya grafiklarini modellashtirish – kasbiy kompyuter tizimlarida keng qo‘llaniladi. Eng muhimi shundaki, kompyuterda modellashtirish texnologiyasidan foydalanish haqiqiy voqyelikni anglashda, bilish jarayonini amalga oshirishda yangi bosqich rolini o‘ynaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, imkoniyati ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar uchun fizika fanidan kompyuter imitatsion modellar yaratishda kompyuterli modellashtirishning metodologiyasi uch yo‘nalishidan bosqichma-bosqich foydalanib yaratish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan yoshlarni ongi, nutqi va shaxsiyatini rivojlantirishda kompyuterning alohida o‘rni borligini isbotlaydi. Ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish imkoniyati cheklangan yoshlarning o‘quv jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etishga yordam beradi hamda bu esa o‘qitish usullarini, yangi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Ch.M. Mirkarimova o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limini tashkil etish, ta’lim tamoyillari, shaxsiy rivojlanishning dastlabki darajasini aniqlash masalalarini ochib bergan va quyidagi

fikrlarini bildirib o‘tgan. AKT imkoniyati cheklangan yoshlar uchun ta’lim imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

– shaxsiy rivojlanishning dastlabki darajasini (ko‘nikma va ko‘nikmalar) aniqlash;

– shaxsiy rivojlanishida yordam berish, yangi ko‘nikmalarni shakllantirish yoki mavjudlarini yangilash;

– ma’lumotlarga kirishni yaxshilash;

– raqamli aloqa orqali geografik yoki ijtimoiy izolyasiyani bartaraf etish;

AKT afzalliklari to‘g‘risida xabardorlikni oshirish.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limi yo‘nalishida olib borgan ishlarining deyarli hammasida elektron resurs yaratish va o‘quv jarayoniga qo‘llash masalasi yetarli darajada ko‘rilmagan.

Imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limi yo‘nalishida elektron resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahliliy o‘rganish jarayonida shu narsa aniqlandiki, imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limiga AKTdan foydalangan holda elektron resurslarni qo‘llash o‘quvchilarning qisqa vaqt orasida nazariy va amaliy bilimlarni egallashi, o‘tilayotgan fanlardan bilim va ko‘nikmalarini hosil qilishi, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Ta’lim jarayoniga yangicha yondashishni innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etishimiz kerak. Innovatsion texnologiya esa kasbiy mahoratidan kelib, turli shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi.

Innovatsion texnologiyalar:

– o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

– pedagogik faoliyatda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam hamkorlikni qaror toptirishi;

– o‘quvchilarda erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi;

– pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi;

– o‘quvchilar o‘tiladigan o‘quv predmetlarini puxta o‘zlashtirishlari zarur.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bu nafaqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatish, balki zamonaviy texnologiyalar asosida egallayotgan bilimlarni mustaqil izlab topishlariga, tahlil qilishlariga, xulosalar chiqarishlariga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, texnik vositalardan foydalanish, kompyuter imitatsion modellar yaratish va o‘quv jarayoniga samarali qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada ta’lim muassasalari uchun yangi avlod o‘quv-metodik materiallari, elektron darsliklar, innovatsion texnologiyalarga asoslangan didaktik materiallar yaratish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish o‘quvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Birinchidan, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining dasturlarini ishlab chiqish rivojlandi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda maxsus dasturlar asosida elektron resurslari soni ortdi.

O‘qitishning an’anaviy shakllari orqali bilimlarni oshirish ehtiyojini qondirib bo‘lmay qoldi. Masofadan o‘qitish orqali ta’lim jarayonini tashkil etish xarajatlarini pasaytirish evaziga uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyati tug‘ildi.

Uchinchidan, ta’limni takomillashtirish va isloh qilishga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Ta’limni o‘quvchilar ehtiyoji va aniq imkoniyatlariga ko‘ra tashkil etish uchun sharoit yaratildi.

Aleksandr Pulyaevskaya AKT imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida asosiy 3 ta vazifani bajaradi:

– kompensatsiya – an’anaviy ta’lim faoliyatini osonlashtirish uchun texnik yordam: o‘qish va yozish;

– didaktik – AKTdan to‘liq foydalanish va ushbu yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayoni. Mos o‘quv muhitini yaratishda didaktik vosita sifatida AKTdan foydalanish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud;

– kommunikatsiya – AKT texnologiyalari uchun – qo‘llab-quvvatlovchi muqobil kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish.

Imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limini o‘qitishda foydalaniladigan turli AKT vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– standart texnologiyalar – masalan, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun mo‘ljallangan maxsus funksiyali kompyuterlar;

– inklyuziv ta’limga oid ma’lumotlar formatlari, shuningdek, muqobil formatlar sifatida – masalan, HTML kodlari, DAISY tizimining ovozli kitoblari (Digital Accessibility Information System); “quyi texnologiya’’ formatlari, masalan Braille tizimi va hokazolar;

– yordamchi texnologiyalar: eshitish apparatlari, ekrandan o‘qish qurilmalari (elektron doska, planshetlar, IPad va boshqalar), maxsus klaviatura va boshqalar.

Yordamchi texnologiyalar – bu imkoniyati cheklangan yoshlarni funksional imkoniyatlarini oshirish, yaxshilash yoki ko‘maklashishga mo‘ljallangan qurilmalar, mahsulotlar, uskunalar, dasturiy ta’minot yoki xizmatlardir.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki, imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida yaratilgan elektron axborot – ta’lim resurslar fan dasturlariga mos kelishi, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi topshiriq va vazifalardan tashkil topishi, uzluksiz tizimda taqdim etilishi, uzviylik tamoyillariga mos kelishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshimov R.R. Создание учебной литературы для инклюзивного образования на основе компьютерных имитационных моделей// Eastern European Scientific Journal (ISSN-2199-7977) DOI 10.12851/ EESJ201805.Vol.10.2018.–№3.–P.287-292. http://www.aurisarchiv.de/mediapool/99/990918/data/DOI_10_1_.12851_EESJ201805_5_.pdf

2. Eshimov R.R. Improvement of technology creation of multimedia electronic textbook on “Informatics and information technology” for schools // A Multidisciplinary peer reviewed Journal (ISSN 2581-4230) Journal impact factor: 7.223. Vol.10.2021. –№ 3. – P. 718-721.

3. https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3034

4. Fayziyev M.A. “O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi” (“informatika va axborot texnologiyalari fani misolida”) Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand davlat universiteti. 2008.

Abdulqodir HOMIDOV,
Samarqand ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish markazi Axborot texnologiyalari bo‘limi katta o‘qituvchisi

ELEKTRON RESURSLARNI ISHLAB CHIQISH, TATBIQ ETISH VA BAHOLASH

Annotatsiya

Maqolada bugungi umumta’lim maktablarida ta’limni mazmun-mohiyati, kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasini o‘quv jarayoniga qo‘llash samaradorligi, kompyuter imitatsion modellar turlari, o‘qitish usullari, yangi bilim va ko‘nikmalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining afzalliklari keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot, inklyuziv ta’lim, kompyuter texnologiyalari, modellashtirish texnologiyasi.

В статье представлены содержание обучения в современных общеобразовательных школах, эффективность применения технологии компьютерного моделирования в учебном процессе, виды компьютерных имитационных моделей, методы обучения, новые знания и навыки, а также преимущества информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технологии моделирования.

The article presents the essence of education in today's secondary schools, the effectiveness of the application of computer-based modeling technology to the educational process, the types of computer imitation models, teaching methods, new knowledge and skills, and the advantages of information and communication technologies**.**

Key words. Information and communication technologies, mass media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.

Jahonda bo‘lajak yoshlarni ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish maqsadida kompyuterli imitatsion modellar, multimediali elektron resurslar, virtual ta’lim texnologiyalarni yaratish va ularni joriy etish masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlardan ta’lim olishi uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanib o‘qitish asosida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini oshirish, o‘qitishni tizimlashtirishda nazariy-metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu asnoda, kompyuter imitatsion modellashtirish abstraksiyalash yordamida uning muhim xususiyatlarini ajratib olish, Fizik hodisalarning asosiy xarakteristikalarini ifodalovchi farazlarni tanlash va yaxshilash, so‘ngra kompyuter imitatsion modelni amaliyot uchun foydali holga kelguncha mukammallashtirishdan iborat bo‘ladi.

Kompyuter imitatsion model yaratishda quyidagilarni amalga oshira olishi lozim:

– umumiy masalani soddaroq ichki masalalarga ajratib olish;

– maqsadni aniq ifodalash;

– ma’lum bir belgilashlarni tanlash;

– ko‘rinib turgan munosabatlarni qayd etish;

– agar kompyuter imitatsion modelni matematik ifodalash mumkin bo‘lsa, unga erishish va uni kengaytirish. Aks xolda kompyuter imitatsion modelni soddalashtirish.

Kompyuter imitatsion model – bu mantiqiy yo‘l bilan u yoki bu harakat natijasini bashorat qilish yoki qiyoslashga imkon beruvchi vosita bo‘lib, oqibatda qilinishi mumkin bo‘lgan harakatlardan eng yaxshisini tanlab ko‘rsata oladi.

Kompyuter imitatsion modellardan foydalanish real obyektlar ustida tajribalar o‘tkazishning iloji bo‘lmaganda, yoki bunday tajribalar inson hayoti va ekologiya uchun katta xavf-xatar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydigan vaziyatlarda boshqariladigan tajribalar o‘tkazishga imkon beradi. Fizik hodisalar (tabiiy jarayonlar) bilan bevosita tajribalar o‘tkazishda, odatda uning ayrim parametrlarini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi va tajriba natijalari kuzatiladi.

Kompyuter imitatsion model – bu shunday narsaki, uning yordamida tajriba jarayonidagi qandaydir fizik obyektlarni almashtirish mumkin bo‘ladi. Kompyuter imitatsion modellardan tajriba o‘tkazish uchun juda katta mablag‘ talab qilingan hollarda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Mohiyati jihatidan har qanday kompyuter imitatsion model imitatsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Kompyuter imitatsion modellashtirish juda ham keng, ammo to‘liq va aniq ta’riflanmagan tushuncha bo‘lib, murakkab sistemalarni loyihalashtirish va faoliyat yuritishiga aloqador mutaxassislar uchun juda katta ahamiyatga ega.

Kompyuter imitatsion modellashtirish – bu real sistema kompyuter imitatsion modelini yaratish va bu kompyuter imitatsion modellar yordamida sistemaning hulqini o‘rganish yoki qo‘yilgan aniq kriteriyalar asosida turli strategiyalarni baholash maqsadlarida tajribalar o‘tkazish jarayonidir.

Shunday qilib, kompyuter imitatsion modellashtirish jarayonini yaratish va uni biror muammoni o‘rganish maqsadida amaliyotga tatbiq qilish jarayoni sifatida qabul qilamiz. Real hodisaning kompyuter imitatsion modeli deganda biz obyektlar yoki turli g‘oyalar guruhini boshqacha ko‘rinishda ifodalashni tushunamiz.

Kompyuter imitatsion modellashtirish tajribaviy va amaliy metodologiya hisoblanadi va quyidagi maqsadlarga ega bo‘ladi:

– sistema xulqini ifodalash;

– kuzatilayotgan obyekt hulqini anglashga qaratilgan nazariya va farazlarni qurish;

– bu nazariyani sistemaning kelajakdagi hulqini bashorat qilishda foydalanish.

Ko‘plab texnik metodlardan farqli o‘laroq, kompyuter imitatsion modellashtirishni ixtiyoriy fan va sohalarga qo‘llash mumkin.

Jarayonlarni kompyuter imitatsion modellashtirish uchun kompyuter imitatsion modellashtirilayotgan vaziyatning asosiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi sun’iy tajriba o‘tkazish talab qilinadi.

Kompyuter imitatsion model jarayonlarni tushunish, mohiyatini anglash yoki mukammalashtirish vositasi bo‘lib hizmat qiladi. Kompyuter imitatsion model biror obyektning boshqacha masshtabda ifodalangan aniq nusxasi bo‘lishi yoki obyektga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlarni abstrakt ko‘rinishi tarzida bo‘lishi mumkin.

Kompyuter imitatsion model – bu bashorat qilish va qiyoslash vositasi bo‘lib, mantiqiy usul yordamida yetarlicha ishonch bilan alternativ harakatlarni baholash, bashorat qilish, afzallarini tanlashga yoki borliq olamni anglashga imkon beradi. Imitatsiya – esa kompyuter imitatsion modellashtirish ko‘rinishlaridan biridir.

Kompyuter imitatsion modellardan bugungi kunda quyidagi sifatlarda foydalanish mumkin:

– borliqning mohiyatini anglash vositasi;

– o‘zaro munosabat vositasi;

– o‘qitish va o‘rgatish, shug‘ullantirish vositasi;

– bashorat qilish vositasi;

– tajribalarni o‘tkazish vositasi.

Kompyuter imitatsion modellarning real munosabatlar va qonuniyatlarni o‘rganish vositasi sifatidagi ahamiyati juda katta. Ular mulohazalarimizni tartibga solish, noaniq tushunchalar va o‘zaro hamda vaqtga bog‘liq munosabatlarni anglashga, talab qilinadigan resurslarni aniqlashga yordam beradi.

“Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” degan naql bejizga aytilmagan. Kompyuter imitatsion model tadqiq qilinayotgan obyektning umumiy strukturasini tushunarliroq qiladi va muhim sabab-oqibat aloqalarini ochib beradi. Kompyuter imitatsion modellardan kasbiy tayyorgarlik va ta’lim sohalarida keng foydalanib kelingan va foydalainib kelinmoqda. Kompyuter imitatsion model – boshqaruv sistemasida turli tasodifiy hodisalarning ro‘y berishiga qarab javob reaksiyasini ko‘rsatishga operatorlarni tayyorlashda ajoyib vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Qolaversa, kompyuter imitatsion modellardan qimmatbaho yoki iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydigan yoki real holatdagi hulqini o‘rganish uchun obyektdan amaliy jihatdan foydalanib bo‘lmaydigan vaziyatlarda tajribalarni o‘tkazish va ularni boshqarishga imkon beradi. Jarayonlar ustida bevosita tajribalar o‘tkazilganda, odatda uning ayrim parametrlarini o‘zgartirib, qolganlarini o‘zgartirmay olingan natijalar taqqoslanadi. Real hodisa juda ham qimmat hamda uning bajarishning imkoni mavjud bo‘lmagan hollarda uning kompyuter imitatsion modelidan foydalaniladi. Murakkab jarayonning kompyuter imitatsion modeli bilan tajriba o‘tkazilganda, xuddi real jarayon ustida o‘tkazilgan tajribalardagi kabi uning ichki hususiyatlari va ularning o‘zaro aloqasi haqidagi ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Bu holat kompyuter imitatsion kompyuter imitatsion model strukturasi elementlarini o‘lchamga ega ekanligi va bu o‘lchamlarni boshqarib, uning hulqini nazorat qilishga imkon beradi.

Kompyuter imitatsion modeli ikki maqsaddan biri uchun xizmat qiladi:

– ifodalovchi, agar kompyuter imitatsion kompyuter imitatsion modeli obyektni chuqurroq anglash uchun xizmat qilsa;

– ko‘rsatmalovchi, agar kompyuter imitatsion modeli obyektning hulqini belgilovchi xarakteristikalarini qayta tiklash yoki bashorat qilishga imkon bersa. Ko‘rsatmalovchi kompyuter imitatsion modeli odatda ifodalovchi ham bo‘lishi mumkin, ammo aksi emas.

Texnik va ijtimoiy fanlarda qo‘llanadigan kompyuter imitatsion modellarning foydalilik darajasi kompyuter imitatsion modellarni qurishda foydalanilgan metod va vositalarga bog‘liq bo‘ladi. Texnikada kompyuter imitatsion modellar yangi tizimlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishda yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy sohada esa kompyuter imitatsion modellar faqat mavjud tizimlarni izohlash maqsadida foydalaniladi. Fizik hodisalarni ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan kompyuter imitatsion modellar ularning asosiy xarakteristikalarini qamrab olgan bo‘lib, obyekt xususiyatlarini izohlab berishi ham lozim.

Kompyuter imitatsion modellarni turli belgilariga qarab, turlicha sinflash mumkin. Ammo ularning birortasi ham talabga to‘la javob bera olmaydi. Kompyuter imitatsion modellarning ayrim vakillarini keltirib o‘tamiz:

– statik (masalan, obyektning ko‘ndalang kesimi) va dinamik (vaqtga bog‘liq qatorlar);

– determinstik va stoxastik;

– diskret va uzluksiz;

– tabiiy, analogli, simvolik (belgili).

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llash, ta'lim sifati va samarodorligini keng manoda oshiradi. Kompyuter imitatsion model asosida yaratilgan multimediyali elektron darsliklar, qo'llanmalar va boshqa elektron vositalarning ta'limda qo'llashning afzallik tomonlari:

– o'quvchilarning dars jarayonida yetarli bilim o'zlashtirishida ancha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi;

– o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rishi, tinglashi, turli animatsion harakatlar asosida tasavvur qilishi natijasida olgan bilimlari xotirada saqlash birmunchaga oshadi;

– o'quvchilar berilgan materiallari o'rganish jarayonida istalgan vaqtlarida o'qishni to'xtatishi, qayta-qayta takrorlashi va yana davom ettirishi mumkin.

– o'qishga qiziqish ortadi;

– ta'lim olishning qulayligi va natijaviyligi oshadi;

– ta'lim oluvchining mustaqil ishlash va izlanish malakalari shakllanadi.

Kompyuter texnologiyalari asosida modellashtirish pedagogik xodimlarga ko'rgazmali qurolga ega bo'lish bilan birga fizik, kimyoviy obyektlarning asosiy xossalarini tadqiq etish, u yoki bu nazariyani amaliyotga qo'llash mumkinligini aniqlashga imkon berishi, fizika-matematika va tabiiy fanlarni o'rganishda asosiy murakkablik laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda sezilishi, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tishda maxsus kompyuter texnologiyalari asosida kompyuter imitatsion model bazasida yaratilgan trenajyorlardan foydalanib fizik jarayonlarni modellashtirish orqali muhim qonuniyatlarni samarali darajada kuzatish imkoniyatlari yaratilishi asoslangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kompyuter imitatsion modellarni real obyektning maketi yoki aniq kompyuter imitatsion modelidan tortib to abstrakt matematik kompyuter imitatsion modelgacha bo'lgan uzluksiz spektr ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshimov R.R. Multimedial Electronic Textbook and Problems of Organizing Education on the Basis// International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 6 Issue 3, March-April 2022 Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470. Page.1831-1833. https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd49847.pdf

2. Миркаримова Ч.М. Информационные технологии в инклюзивном образовании // Academy. № 6(21), 2017 – С.{см. журнал}

3. Eshimov R.R. Ta'lim muassasalarida kompyuterli o'qitish vositalaridan foydalanish asoslari// Academic Research in Educational Sciences Volume 3 Issue 4, Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 2022. ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-496-502 Page.496-502.

4. Eshimov R.R. Imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limida ''6-sinf fizika'' darsligini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etish // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal. – T., 2021. – № 6. – 119-121 b.

Gulmira MIRZAYEVA,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti mustaqil tadqiqotchisi
Tozagul KAXXOROVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

"DO'PPICHILIK SAN'ATI" MAVZUSINI O'QITISH VA BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya

Maqolada do'ppichilik san'atining kelib chiqish tarixi, do'ppi turlari, eng mashhur do'ppilar, do'ppilarda ishlatiladigan va eng keng tarqalgan bezak turlarining ma'nolari, ayollar do'ppisini tikish bosqichlari, do'ppi tikish texnologiyasidan baholash mezonlari haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar. Do'ppi, chok, andaza, naqsh, kezak qismi, tepa qismi, bezak turlari, zanjirlar.

В статье представлена информация об истории возникновения искусства тюбетейки, видах тюбетеек, наиболее популярных тюбетейках, значениях используемых в тюбетейках и наиболее распространенных видах орнамента, этапах пошива женских тюбетеек, критериях оценки по технологии тюбетейного шитья.

Ключевые слова. Тюбетейка, шов, lekalo, выкройка, деталь кезака, верхняя част, виды, украшений, цепочки.

This article provides information about the history of the skullcap art, types of skullcaps, the most popular skullcaps, the values of the used and most common types of ornaments on skullcaps, the stages of sewing a women's skullcap, evaluation criteria for the technology of skullcap sewing.

Key words. Cap, stitch, pattern, pattern, part of the head, part of the top cap, seam, lekalo, pattern, kezak part, top part, types of decoration, chain

Bizga ma'lumki, baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. "Do'ppichilik san'ati" mavzusidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida avvalo talabalarning nazariy bilimlari og'zaki so'rov, aqliy hujum, muammoli ta'lim asosida aniqlanadi; keyin esa bajarilgan ish natijalari va 1 va 2-jadvalda ko'rsatilgan mezonlar asosida amaliy ko'nikma va malakalari (K, M) baholanadi, talabalarining dars davomidagi xulq-atvor va shaxsiy fazilatlari alohida e'tirof etiladi.

Baholash, uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash.

2. Me'yorga asoslangan baholash. Mezonga asoslangan baholash baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, ko'nikma va malakalarini oldin-

dan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir.

Do‘ppi – O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do‘ppi kiyish dastlab Eronda va Turkiy xalqlari o‘rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo‘lgan. Asrlar davomida do‘ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg‘a shoyiga ip, ipak va zar bilan do‘ppi gullari tikilgan. O‘zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur bo‘lib, ular o‘ziga xosdir. Respublikamizning barcha tumanlarida do‘ppi tikiladi, uning iroqi, chust do‘ppi, gilam do‘ppi, chakma to‘r, qizil gul, piltado‘zi, zardo‘ppi, to‘ldirma deb nomlanadigan milliy do‘ppilar bor, har bir do‘ppi yaratilish uslubiga ega bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi. XIX asr va XX asrdan boshlab do‘ppilarda har xil mahalliy xususiyatlari shu qadar aniq beriladiki, uni kiygan kishining asli qayerdanligini aniqlash oson bo‘lgan.

“Tyubeteyka” so‘zi tatar so‘zidan olingan bo‘lib u “tubet” so‘zidan kelib chiqqan, bu tarjimada – yuqori qism, tepa degan ma’noni anglatadi . Do‘ppilar paydo bo‘lishining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Etnograf olim L.Budagov Senkerga (Sengi-Laxi lug‘ati) ga tayangan holda bu so‘z turkcha ‘‘tube’’, ‘‘tupe’’-(cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan, deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma’nosida ikki variantni ‘‘tubetay’’va ‘‘tuppi’’ni keltiradi . O‘zbekistonda bu bosh kiyimni “qalpoq” yoki “do‘ppi” deb atash odatiy holdir. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida do‘ppilar Markaziy Osiyoda juda mashhur bo‘lib, ularning ko‘plab shakllari va turlari: dumaloq, konus, uchli, kvadrat, gumbaz shaklida cho‘zilgan.

O‘zbek do‘ppilari ayollar, erkaklar, bolalar va qariyalar uchun mo‘ljallangan. Keksa ayollar ularni kiymaydilar. Tashqi tomondan, ular quyidagicha farqlanadi:

Erkaklar. Ko‘pincha qora yoki qora rangga yaqin matolar ishlatiladi. Satin yoki baxmaldan tikilgan.

Ayollar. Yorqin rangli matolar ishlatiladi. Asosiy material sifatida barxat, shoyi, atlas, ipak, parcha gazlamalardan foydalaniladi. Shuningdek, munchoq, yorqin toshlar va pistonlar bilan bezatiladi.

Bolalar. Bolalar do‘ppilari uchun rang-barang matolar tanlanadi, munchoq va biser va turli rangli kashtalar bilan jozibali qilib tikiladi.

Do‘ppilarning quyidagi turlari mavjud.

Kuloh – konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog‘i, uning matohi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Araqchin – sharsimon do‘ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do‘ppilar kanda xayol, bosma, chakmato‘r, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do‘ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do‘ppi. Ko‘pincha tus do‘ppi chust do‘ppi deb yuritiladi. Tus do‘ppilarning birgina klassik variantining o‘zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo‘llaniladi. Masalan, zanjira, to‘g‘ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do‘ppisining tepasiga gizakdan kvadrat shaklida bo‘rtib chiqib, yarim shar ko‘rinishida bo‘ladi.

Toshkent do‘ppisi – sidirg‘a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo‘ladi.

Buxoro do‘ppilari – sidirg‘a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo‘rma usulida tikilgan bo‘ladi.

Eng mashhur do‘ppilar:

Oltin naqshli Buxoro – naqshlar o‘rimi tilla va kumush ip bilan tikiladi, bu esa egasining yuksak mavqeidan dalolat beradi.

Andijon (ayollar) do‘ppisi – do‘ppi zich oq asosda xochlar bilan tikiladi. Ko‘pincha meva va ramziy belgilar tasvirlanadi.

Toshkent (ayollar) do‘ppisi – yovuz ko‘zdan himoya qiluvchi yorqin qush patlari bilan bezatiladi. Ular to‘q qizil, to‘q yashil yoki to‘q ko‘k rangli materiallardan tikiladi, ochiq rangli pistonlar bilan bezatiladi.

Shahrisabz (erkak) do‘ppisi – “Iroqi” yoki “Iroq”. Gul naqshli yorqin do‘ppi tabiatning go‘zalligi va saxovatini anglatadi.

Boysun (erkaklar) do‘ppisi – do‘ppilarning noodatiy rang kombinatsiyasi. Har bir rangning o‘ziga xos muqaddas ma’nosi bor, masalan, xantal sariq – paxta guli, oq - paxtaning o‘zi.

Qoraqalpoq (erkak) — dumaloq do‘ppi, uni xalq orasida “malika tupurgi” deb atashadi.

Barcha turlar nafaqat shakli, balki bosh kiyimini bezab turgan bezaklarda ham farqlanadi. Naqshlar ko‘p asrlar davomida ustalar tomonidan sayqallangan va endi ular ustadan shogirdga o‘tadi. O‘zbek naqshlarining xilma-xilligi hayratlanarli. Ular hayvonlar yoki qushlarning, o‘simliklarning konturlari yoki oddiygina murakkab naqshlar shaklida kesilishi mumkin. Do‘ppilardagi eng keng tarqalgan bezaklar:

Qalampir – poklik va yerdagi hamma narsadan ajralish ramzi;

Bir dasta patlar, bulbul naqshlari, qushlar – yuksak donishmandlik ramzi;

Atirgul shoxlari – tinchlik va go‘zallik ramzi;

Muqaddas arab imlosidagi yozuvlar – tashuvchining duosi sifatida.

Eng keng tarqalgan kashtado‘zlik naqshlari gul naqshlari va bodom shaklidagi “bodom” motivini o‘z ichiga oladi – bu hayot va unumdorlikning ramzi hisoblanadi. “Ilon izi” (ilon izi) — naqshi do‘ppi naqshida keng tarqalgan. Kashtali do‘ppilarning (1-rasm) naqshinkor uslubi o‘rta asr miniatyura va amaliy san’atdagi rivojini topgan boy naqshlarga yaqin. Turmush va tabiat haqidagi odamlarning tasavvurini aks ettirgan do‘ppilar turli vaqtda rivojlangan obrazlarni o‘zida singdirib sintezlashtirgan.



Bugungi kunda o‘zbek hunarmandchiligida ko‘plab xotin-qizlarimiz va tadbirkorlarimiz do‘ppi tikish san’ati bilan shug‘ullanadi. Do‘ppi tikish texnologiyasi bilan qizlarimiz dastlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Texnologiya o‘quv fani doirasida o‘rganadilar. Bunda ular do‘ppilarni bichish, tikish, o‘lcham olish, do‘ppilarni razmerlarini aniqlash, mato tanlash, do‘ppi tikish uchun kerak bo‘ladigan vositalar bilan tanishadilar. Keyinchalik Oliy ta’lim muassasalarida Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida (bakalavrlar) Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanida kengroq tushunchaga ega bo‘ladilar. Do‘ppi tikishda ishlatiladigan materiallar va bezak ele-

mentlari; do‘ppi uchun asos, material shakli tanlash va o‘lchov olish; do‘ppini bichib tayyorlash, tikish va bezatish haqida kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Ayollar uchun do‘ppi tikish quyidagi bosqichlardan iborat:

Do‘ppi turini tanlash.

Do‘ppi uchun mato, bezak va fason tanlash.

Do‘ppi tikish uchun o‘lcham olish va razmerni aniqlash.

Do‘ppini tikish uchun andoza tayyorlash.

Andazani gazlama ustiga qo‘yib kizak (gardish) va tepa qismini bichish


Do‘ppini kizak qismiga karton qog‘oz qo‘yib tikish.

Tepa qismini tikish, plita tayyorlash va uni joylashtirish.

Kizak va tepa qismini birlashtirish.

Pardozlash, munchoq va bezaklar tikish.


Talabalar Texnologiya ta’lim metodikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ushbu mavzuni o‘qitishni turlicha interfaol metodlar asosida olib boradilar. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur mavzu quidagi mazmun asosida olib borilad. Bunday do‘ppilarning andazasini tayyorlash uchun avval kerakli bosh aylanasi o‘lchamini aniqlab, yozib olinadi (masalan, 54-o‘lcham). Uning tepa qismi andazasi chizmasi quyidagicha tayyorlanadi. Kizak qismining uzunligi 4 ga bo‘linadi, ya’ni 54:4=13,5 sm. Endi tomonlari 13,5 sm ga teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi. To‘g‘ri to‘rtburchakning burchaklarini chizg‘ich yordamida birlashtirib, markaziy O nuqta topiladi. Hosil bo‘lgan markaziy nuqtadan to‘rtburchak uchlarigacha bo‘lgan masofada R = 9,5 sm aylana chiziladi (2-rasm, d).



a) b) d) e)

Aylananing to‘rtburchak tashqarisiga chiqib turgan qismini 2-rasm, e da ko‘rsatilganidek ikki: A va B bo‘lakka bo‘lib chiqiladi. So‘ngra shu chizilgan sxema bo‘yicha qirqib, andaza tayyorlanadi. Kizak qismi 2-rasmda ko‘rsatilganidek tayyorlanadi. Do‘ppining detallarini bichish uchun ishlatiladigan gazlamani kiyiladigan ko‘ylak gazlamasiga moslab olish kerak. Shuning uchun ko‘p hollarda do‘ppi detallarining avrasi atlas va adras hamda sidirg‘a velur gazlamalaridan, astari esa gulli yoki sidirg‘a chit gazlamalardan bichiladi. Avval tepa qismining avrasi bichiladi. Bichishda andaza chetlaridan 1,0 sm chok haqi qoldiriladi. Bichib olingan tepa qismining avrasi bo‘yicha astar bichiladi. Shuningdek, do‘ppining kizagi matoning diagonali bo‘yicha bichiladi. Kizak astarining enini bichib olingan avrasidan 2 sm kengroq qilib hamda diagonal bo‘ylab bichiladi.

Qizlar kiyishiga mo‘ljallangan nozmunchoqli, pistonli do‘ppilar dumaloq, to‘rtburchak va ovalsimon shakllarda bo‘lishi mumkin. Bichib olingan do‘ppining tepa va kizak qismi munchoq bilan bezab tikiladi. Uni tikish usullari 3-rasmda ko‘rsatilgan.



Do‘ppini bezash uchun uning avrasiga pistonni biser, tugun va markazda birlashadigan 2–3 ta tekis chok bilan tikish mumkin . Pistonlarni bir to‘g‘ri chiziq bo‘ylab popop chokda (bunda chok uzunligi piston diametrining yarmiga teng), qaytma chokda va oldinlatilgan chokda tikish mumkin. Nozmunchoq va steklarus tikishda qaytma chokdan foydalanish qulay bo‘lib, bunda ignaga 1–3 ta dan nozmunchoq kiritib tikish ham mumkin .

Bu bezak materiallarni tikishda gazlama guliga qarab yoki biror gul naqshini do‘ppi detalining kerakli qismiga tushirib olib, so‘ngra nozmunchoqlar bilan tikish mumkin.

Tikilgan do‘ppilar albatta o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi kirish, joriy, yakuniy yo‘riqnomalar o‘tkaziladi va baholanadi. O‘quvchilar yoki talabalar bilimini baholashni ma’lum mezonlar asosida olib borish maqsadga muofiq hisoblanadi. Berilgan topshiriqqa nisbatan ma‘suliyat hissi shakllanadi, yangi dizayn yaratishga ishtiyoq paydo bo‘ladi.

Do‘ppi tikish texnologiyasidan baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Bilim	Ko‘nikma	Malaka
1	Sanitariya – gigiyena talablariga rioya qilishi		K	
2	Texnika xafsizligi qoidalariga amal qilishi		K	
3	Ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil qila olishi		K	
4	Vaqtdan unumli foydalanishi va topshiriqni o‘z vaqtida bajarishi		K	
5	Ish o‘rnini yig‘ishtirishi		K	
6	Do‘ppi tikish uchun materiallarni: gazlama, ip, bezak turini to‘g‘ri tanlay olishi	B		
7	O‘lcham olishni bilishi: bosh aylanasi, kizak qismi	B		
8	Do‘ppi turlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi	B		
9	Do‘ppi tikish uchun asbob-uskunalar, vositalarni tanlay olishi, qaychi , yelim, santimetrli lenta, karton qog‘oz	B		
10	Do‘ppi tikish texnologiyasidan xabardor bo‘lishi		K	
11	Do‘ppi tikishda chok yoki kashta turini tanlay olishi tepchima chok, qaytma chok, tekis chok, poppror chok, xomaki qaviq va .h.k.			M

12	Do‘ppi tikishda o‘lchamlarni to‘g‘ri olishi, mavjud formulalarni bilishi va undan foydalana olishi,			M
13	Do‘ppini tepa va kezaklarini bichishda andozalardan foydalana olishi			M
14	Do‘ppi bo‘laklari tepa va kizak qismiga ishlov berishni bilishi		K	
15	Do‘ppining kizak qismi va ust qismini bezashni bilishi			M
16	Do‘ppini dazmollash va bezash			M

1-jadvalda berilgan baholash mezoni yaxshi baho quyish uchun asos bo‘ladi. Talabalarni a’lo bahoda baholash uchin qo‘shimcha mezonlar ichlab chiqish maqsadga mufoviq va bu albatta kirish yo‘riqnomasi o‘tkazilayotgan vaqtda e’lon qilinadi.

№	Baholash mezonlari	Bilim	Ko‘nikma	Malaka
1	Do‘ppini yangi dizanini yaratish		K	
2	Yangi dizayn uchun mustaqil ravishda andaza tayyorlash.			M
3	Do‘ppi tikish uchun kerak bo‘ladigan gazlama va asbob uskunalarni tanlay olishlik			M
4	Bichish va tikish jarayonlarida mustaqillik ko‘rsata olishlik		K	
5	Bezak va pardoz turini tanlash.			M

Shunday qilib, o‘zbek xalq hunarmandchiligini o‘rgatishda do‘ppichilik san‘ati turlari bilan tanishish, tikish texnologiyasiga o‘rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘zbek do‘ppilari butun dunyoda munosib talabga ega. Chet ellik sayyohlar odatda bu bosh kiyimlarni g‘ayrioddiy yodgorlik sifatida sotib olishadi, ko‘pchilik hatto ular bilan o‘z uylarini bezashadi. Ammo shaxsiy foydalanish uchun do‘ppilarni istalgan bozorda va sayyohlik markazlaridagi maxsus yodgorlik do‘konlarida xarid qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Do%CA%BBppi

2. Nurullayeva Z.R. // Milliy bosh kiyimlarning tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilish. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | ISSUE 11| 2023.

3. Ishmuradova G.I. xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi. “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2023 y. 294b.

4. Shavkat Safarovich Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Abdullayeva Q.M.6-sinf. Texnologiya darsligi. Sharq nashriyoti.

Farida ISLOMOVA,
O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi "Dunyo" AA bosh mutaxassisi, mustaqil tadqiqotchi

STRATEGIK MENEJMENT USULLARI ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada davlat boshqaruvining startegik menejment usullari asosida rivojlantirishda ichki va tashqi turizmning ahamiyati, o'rni va albatta, mamlakat kelajagining oltin fondi ekanligi xususida tatbiq qilinadi. Shuningdek, ichki turizmning rivojlantirish borasida amaliy taklif va xulosalar beriladi.

Tayanch so'zlar. Strategik menejment usullari, turizm, davlat, jamiyat, fuqaro, iqtisod, daromad.

В статье рассматривается значение, роль внутреннего и въездного туризма в развитии государственного управления на основе стратегических методов управления и, конечно же, золотой фонд будущего страны. Также даны практические предложения и выводы по развитию внутреннего туризма.

Ключевые слова. Методы стратегического управления, туризм, государство, общество, гражданин, экономика, доход.

The article will apply to the importance, role and, of course, the Golden fund of the future of the country in the development of Public Administration on the basis of startegic management methods. Practical proposals and conclusions are also made regarding the development of domestic tourism.

Key words. Strategic management methods, tourism, state, society, citizen, economy, income.

Strategik menejment metodologiyasi – bu davlat faoliyatining maksimal samaradorligiga erishish uchun strategik qarorlarni qabul qilish tamoyillari, usullari va amalga oshirish jarayonidir. Shunday ekan strategik menejment usullari asosida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy samarani maksimal darajada oshirish uchun strategik xususiyatga ega bo'lgan davlat boshqaruvi tizimi faoliyatining yangi shakllari, usullari, yondashuvlarini izlash zaruriyatini tug'iladi. Bu esa, birinchi navbatda, davlat va jamiyat oldiga biznes sohasida o'z samaradorligini amalda isbotlagan strategik boshqaruv kabi ustuvor vazifani qo'yadi.

Ma'lumki, jamiyat hayotini boshqarish hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi jarayon sifatida davlat tuzilmalarining jamiyat elementlariga ularning faoliyatini tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va tartibga solish maqsadida o'z ko'rinishini ifodalaydi. Shu bilan birga, bir tomondan, qonun normalariga asoslangan hokimiyat kuchi, ikkinchi tomondan, samarali jamoatchilik nazorati bilan davlat funksiyalarini rejalashtirish va amalga oshirishning asosiy omili sifatida gavdalanadi.

Davlat (davlat, munitsipal) boshqaruv – davlat boshqaruvi, boshqaruv ta'sirini baholash va tahlil qilish va hokimiyatning fuqarolar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bu jamiyatlar

o‘zaro strategik rivojlanadi. Davlat boshqaruvi davlat organlari faoliyatining operativ va ma’muriy jihatlarini, shu jumladan, davlat xizmatini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Nazorat ta’sirini tahlil qilish jarayonida davlat dasturlari va boshqa strategik rejalashtirish hujjatlarini amalga oshirish darajasi va sifati, tartibga solish ta’siri ham baholanadi. Davlat boshqaruvi tizimining bir qismi bo‘lgan davlat va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi tadbirkorlik subyektlarining davlat va hokimiyat organlari bilan hamkorligi kabi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan davlat boshqaruvini barcha darajadagi davlat organlari va notijorat va aralash tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tizimi sifatida tushunish kerak. Ular jamoat ehtiyojlarini qondirish va jamoaviy muammolarni hal qilish uchun ishlaydi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, davlat boshqaruvining startegik menejment usullari asosida rivojlantirishda ichki va tashqi turizmning ham ahamiyati yuqoridir.

Zero, ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy daromad manbayi turizmdir.

Turizm xizmatlari eksporti iqtisodiyotda qo‘shimcha talabni yuzaga keltiradi, aholi bandligini ta’minlaydi va valyuta tushumini oshiradi. Shunday qilib, turizm – tarmoq iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy sharoitda turizmni rivojlantirishning mintaqa iqtisodiyoti uchun ahamiyati muhim. Iqtisodiyotning ma’lum bir tarmog‘ining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar orasida odatda yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik va informatika kabi ishlab chiqarish sohasi ajralib turadi. Bu omillar turizm faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Turizm sohasining o‘ziga xosligi shundaki, unda yer (tabiiy) resurslari birinchi o‘rinda turadi. Yer turizmning ayrim turlari uchun ishlab chiqarish omili sifatida belgilovchi omil bo‘lib, u ayni paytda mehnat predmeti, mehnat vositasi va daromad vositasidir. Yuqori malakali kadrlar mavjudligi ham turizm sohasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda. Turizm faoliyatini kengaytirish, yangi rekreatsiya zonalarini o‘zlashtirish, kurort majmualarini qurish katta kapital qo‘yilmalarni talab qiladi.

Shu sababli mintaqaviy turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri o‘zgaruvchanlik darajasiga ko‘ra, statik va dinamikga bo‘linadi. Statik omillarga tabiiy geografik omillar majmui kiradi. Ular doimiy, o‘zgarmas ma’noga ega. Odamlar ularni turistik ehtiyojlarga moslashtiradi va ulardan foydalanish uchun qulaylik yaratadi. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning dastlabki asosi tabiiy-geografik sharoitlardir. Iqlimi qulay, shifobaxsh buloqlari bo‘lgan hududlarda turizm dastlabki bosqichda rivojlanadi. Go‘zal tabiatni talab qiluvchi ekologik turizm jahon turizmida yetakchidir. Bunday hududlar ekstremal sharoitlarda resurslar sifatida ishlatadi.

Madaniy va tarixiy omillar (arxitektura, tarixiy yodgorliklar va boshqalar) ham asosan statik deb tasniflanadi. Aholining ta’lim darajasi va kognitiv ehtiyojlari ortib borishi bilan tarixiy va madaniy resurslarning ahamiyati ortib bormoqda.

Dinamik omillarga demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy, texnik va siyosiy omillar kiradi. Mintaqaviy turizmning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan hududni turistlar uchun moddiy imkoniyatlar bilan ta’minlash, savdo va restoran tarmog‘i bilan belgilanadi.

Ma’lumki, turizmga ta’sir etuvchi omillar yuqoridagi bo‘linishdan tashqari tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) ga bo‘linadi.

Demografik va ijtimoiy o‘zgarishlar orqali tashqi (ekzogen) omillar mintaqaviy turizmga ta’sir ko‘rsatadi. Mintaqaviy turizmga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi omillarga iqtisodiy va moliyaviy omillar ham kiradi.

Mintaqaviy turizm ko‘lamining oshishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar qatoriga aholining ma’rifati, madaniyati, estetik ehtiyojlarini oshirish kiradi. Estetik ehtiyojlarning elementi sifatida odamlarning turli mamlakatlardagi turmush tarzi, tarixi, madaniyati, turmush sharoiti bilan tanishish istagini o‘rganiladi.

Ichki omillarga turizm bozori omillariga quyidagilar kiradi:

1. Talab, taklif va taqsimot jarayonlari (zamonaviy bozor omillarining xususiyati sifatida, masalan, turizm mahsulotiga bo‘lgan talabning doimiy talabga aylanishini, shuningdek, individual turizmning o‘sishini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin).

2. Bozor segmentatsiyasining rolining ortishi (yangi mintaqa ichidagi turistik segmentlarning paydo bo‘lishi, sayohat masofalarining ko‘payishi, dam olish shakllarining xilma-xilligi, qisqa muddatli qolishlarning ko‘payishi, o‘rnatilgan turizmda turizm rivojlanishining diversifikatsiyasining kuchayishi).

3. Turizm va monopollashtirish jarayonlarida faoliyatni muvofiqlashtirish rolining kuchayishi (gorizontal integratsiyani kuchaytirish, ya’ni yirik firmalar bilan o‘rta va kichik biznes o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining o‘sishi, strategik turizm ittifoqlarini yaratish orqali vertikal integratsiyalashuv va boshqalar).

4. Rivojlangan turizm mahsulotlarini targ‘ib qilish, reklama qilish va sotishda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan aloqalar rolini oshirish.

5. Turizmda kadrlar rolini oshirish (xodimlar sonini ko‘paytirish, kasbiy malaka tuzilmasini ishlab chiqish, kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini oshirish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish va boshqalar).

6. Xususiy turizm biznesining rolini oshirish (bozorda cheklangan miqdordagi yirik transmilliy operatorlar va katta miqdordagi kichik korxonalar faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sayyohlik mahsulotlarini professional marketing asosida samarali sotish, bu esa sayyohlik turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kadrlar malakasini oshirish zaruriyati).

Shunday qilib, turizm milliy iqtisodiyotning bir tarmog‘i sifatida uning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga ta’sir qiladi. Chunki turizmning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan aholining dam olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish boshqa faoliyat sohalaridagi korxonalar tomonidan ham amalga oshiriladi.

Turizm industriyasi – bu turizm sanoati uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning tarmoqlararo majmuasidir. Zamonaviy turizm tizimi element sifatida quyidagi tadbirkorlik subyektlarini o‘z ichiga oladi:

• turizm xizmatlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar (dam olish markazlari, sanatoriylar, kurortlar va boshqalar);

• turistik mahsulotlarni asosan ommaviy ravishda ishlab chiqaruvchi va sotuvchi kompaniyalar (turoperatorlar);

• turoperatorlar (sayohat agentlari) tomonidan tuzilgan turizm mahsulotlarini sotuvchi kompaniyalar;

• turar joy xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalar (pansionatlar, dam olish uylari, mehmonxonalar, modellar va boshqalar);

• umumiy ovqatlanish korxonalari (restoranlar, oshxonalar, kafelar, barlar va boshqalar);

• turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi transport korxonalari (havo tashuvchilar, temir yo‘l tashuvchilar, avtomobil tashuvchilar, dengiz va daryo tashuvchilar va boshqalar);

• turistlar uchun tovarlar sotuvchi savdo kompaniyalari va savdo korxonalari;

• hordiq chiqarish turizmi korxonalari (kino, konsert zallari, sport inshootlari va boshqalar);

• reklama va axborot turistik tashkilotlari (reklama agentliklari va byurolari, axborot-turistik markazlar va boshqalar);

• tijorat yoki ijtimoiy asosda turizmga ixtisoslashgan davlat korxonalari.

Turistik resurslar – bu turistik mahsulotni shakllantirish talablariga javob beradigan tabiiy va texnogen obyektlar yig‘indisidir. Turistik resurslarning asosiy xususiyatlariga:

jozibadorlik (jozibali), iqlim sharoiti, foydalanish imkoniyati, bilim darajasi, ekskursiya ahamiyati, potentsial qo‘riqxona, landshaft va ekologik xususiyatlar kiradi.

Turizmda tadbirkorlikning jadal rivojlanishi tabiiy va infratuzilmaviy turizm resurslarining mavjudligini taqozo etadi, ularsiz keng iste’molchilar doirasi uchun yuqori sifatli turistik mahsulotni yaratish mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, turizm industriyasining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni hal qilish uchun davlat organlari turizm siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– fuqarolarning dam olish, harakatlanish erkinligi va boshqa huquqlarini ta’minlash;

– atrof-muhitni muhofaza qilish;

– turistlarni tarbiyalash, ta’lim olish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyat uchun shart-sharoitlar yaratish;

– turizm industriyasini rivojlantirish, fuqarolarning sayohatga bo‘lgan ehtiyojlari va kutganlarini qondirishni ta’minlash.

Turizm sohasidagi faol davlat siyosatining zaruriy sharti turizm industriyasining barcha subyektlarining o‘zaro hamkorligidir. Davlat organlari ma’muriy resurslarga ega bo‘lganligi va aholi manfaatlarini ifodalaganligi sababli, ular turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan barcha tashkilotlar uchun hamkorlik dasturini taklif qilishadi. Nodavlat muassasalar esa turli ijtimoiy-demografik guruhlarning turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olib, boshqaruv subyektlari o‘rtasida samarali qurilgan aloqa tizimi orqali tarmoq darajasida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Ularning birgalikdagi harakatlari muvofiqlashtiriladi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan dasturlarda ishtirok etadi.

Ma’lumki, eng ko‘p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o‘ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlari dunyoda yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акмаева Р.И. Стратегическое планирование и стратегический менеджмент - М: Финансы и статистика, 2013 – С. 67.

2. Баринов В.А. Стратегический менеджмент: Учебное пособие / В.А. Баринов, В.Л. Харченко. - М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 56

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13 avgust PF-5781-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni, https://lex.uz/docs/-4474527

4. Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Tursunova G.R. T:.Turizm asoslari. O‘quv-uslubiy majmua. - Samarqand, SamISI, 2013 yil. - 372 b.

Qodir OQILOV,
Maktabgacha va maktab talimi vazirligi boshqarma boshlig‘i

UMUMTA’LIM MAKTABLARI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada boshqarish jarayoni tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishish uchun uning elementlari bilan bir qatorda, rivojlanish va faoliyatni soddalashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan faoliyatning ayrim turlarini nazarda tutiladi. Shuningdek, umumta’lim maktablari boshqaruvini modernizatsiyalashning raqamli pedagogik monitoringni takomilllashtirishning dolzarb masallari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Monitoring, samaradorlikka erishish, faoliyatda ishtirok etuvchilar, manfaatlarini himoya qilish, rag‘batlantirish, boshqaruv jarayoni, inson resurslarini boshqarish, tashkilot, tartibga solish.

В статье процесс управления наряду с его элементами для достижения целей, стоящих перед организацией, рассматриваются некоторые виды деятельности, направленные на упрощение и координацию развития и деятельности. Также освещаются актуальные вопросы модернизации управления общеобразовательными школами, совершенствования цифрового педагогического мониторинга.

Ключевые слова. Мониторинг, достижение эффективности, участники деятельности, защита интересов, стимулирование, процесс управления, управление человеческими ресурсами, организация, регулирование.

The article provides for certain types of activities aimed at simplifying and coordinating development and activities, in addition to its elements, in order to achieve the goals for which the management process is facing the organization. Also, the topical parables of the evolutionary evolution of digital pedagogical monitoring of the modernization of the management of secondary schools are covered.

Key words. Monitoring, achieving efficiency, protecting the interests of those involved in activities, promotion, management process, human resource management, organization, regulation.

Ma’lumki har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag‘batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Bunda boshqaruvga iqtisodiyotda mavjud tizim ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Mustaqilligimizni qo‘lga kiritmasimizdan oldin iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka hamda markaziy rejalashtirishga asoslangan tizim hukmron edi. Faqatgina mulkchilikning davlat mulki va shirkat mulki shakliga ega bo‘lgan, markazdan turib belgilangan rejalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, qattiq nazorat qilish, qolaversa, jamiyatda mulkdorlar sinfning shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi iqtisodiy tizim o‘zini oqlamaganligi tarixdan ma’lum. O‘zbekiston jahon tajribasiga asoslanib, mulkchilikning turli shakllari tengligi ta’minlangan, ishlab chiqarishning zamonaviy milliy manfaatlarga mos tuzilmasini yaratish ko‘zda tutilgan, erkin narx navo va bozor qonunlari asosida boshqariladigan

ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lini tanladi va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidanoq iqtisodiyotni boshqaruv tizimini isloh qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Boshqarish jarayoni tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishish uchun shuningdek, uning elementlari bilan bir qatorda, rivojlanish va faoliyatni soddalashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan faoliyatning ayrim turlarini nazarda tutadi. Shu bilan birga, u ikkita vazifani hal qiladi: boshqaruv obyekti barcha elementlarining o‘zaro ta’sirining barqarorligi, samaradorligi va uyg‘unligini saqlashdan iborat taktik; shuningdek, uning rivojlanishi va takomillashtirilishini ta’minlaydigan strategik.

Inson resurslarini boshqarish tashkilotdagi tartibga solishning eng murakkab elementlaridan biridir. Axir, xodimlarning o‘z salohiyati, o‘z manfaatlari, his-tuyg‘ulari, mustaqil ravishda qaror qabul qilish yoki rahbariyatning buyruqlarini tanqid qilish qobiliyati bor. Shuning uchun boshqaruv qarorlarining qo‘llanilishiga munosabatni oldindan aytib bo‘lmaydi.

Boshqaruv tizimini loyihalash orqali tashkilotning mavjudligi uzoq bo‘lishi va uning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun to‘g‘ri boshqaruv tizimini yaratish zarur.

Tizim – umumiy maqsadga erishish uchun barcha komponentlar va ularning kombinatsiyasini yagona bir butunga tartiblash. Boshqacha qilib aytganda, bu tartiblilik va asosiy vazifaga bo‘ysunish. Boshqaruv tizimiga e’tibor qaratsak quyidagi funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

– rejalashtirish;
– motivatsiya;
– tashkil etish ;
– nazorat qilish.

Ularning yordami bilan belgilangan vazifalarning bajarilishiga erishiladi. Boshqarish tizimlari – bu rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat qilishning tartiblangan jarayonlari hisoblanar ekan ular ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga va tashkilotning mavjudligining asosiy maqsadiga erishishga qaratilgan bo‘ladi.

Bugungi kunda zamonaviy boshqaruv tizimlariga boshqariladigan guruhga moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida ishtirok etuvchi elementlar kiradi. Bular bo‘ysunuvchilardir. Boshqaruv guruhi tashkilotga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha funksiyalarni bajaradi, buning uchun u zarur resurslarga ega bo‘lishi kerak: moddiy, mehnat, moliyaviy. U barcha xodimlarning ishini muvofiqlashtiradi va aloqa, jihozlar kabi barcha texnik vositalarga egalik qiladi, shuningdek, ishlab chiqarish ishi va tashkilotni yanada takomillashtirish jarayoni uchun javobgardir.

Tashkilot tuzilishi va qo‘l ostidagilar soniga qarab, bir nechta menejerlar bo‘lishi mumkin, ularning barchasi bitta bosh menejerga bo‘ysunadi.

Boshqaruv quyi tizimining quyidagi bosqichlari ajratiladi:

– rejalashtirish – qanday natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatadi;
– regulyatsiya – optimal belgilangan ish rejimini saqlash;
– marketing;
– buxgalteriya;
– nazorat.

Boshqaruv tizimlari bu barcha komponentlarni tashkilotning eng yuqori maqsadiga erishish uchun birlashtirgan tizimlardir. Har qanday tushunchaning o‘z predmeti va obyekti bor. Xodimlarni boshqarish tizimida ular qanday ekanligini ko‘rib chiqing.

Obyektlarga quyidagilar kiradi:

ishchilar; xodimlar; xodimlar guruhlari; ish jamoasi.

Boshqaruv tizimining predmeti boshqaruv xodimlarining turli tuzilmalari bilan ifodalanadi.

Boshqaruv usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkoni boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta’sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p jihatdan boshqaruv usullari mukammalligi va to‘g‘ri shakllanganligi bilan uzviy bog‘liqdir. Boshqaruv usullari boshqaruv fanida muhim o‘rinni egallab, boshqaruv qonun va tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Mehnat jamoasiga ta’sir etish usullari orasida boshqaruv mexanizmi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv obyektiv qonunlari talablariga muvofiq keluvchilarigina eng maqbul va maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, boshqaruv usullari bozor iqtisodiyotiga mansub qonunlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish) — maxsus boshqarish faoliyati. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Menejment boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san’ati sirlarini o‘rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo‘g‘inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog‘liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo‘llashga, har bir xodimga va jamoaga ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham menejment bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda Menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV-XV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda “Temur tuzuklari” asarida davlat, qo‘shin va boshqalarni boshqarish san’ati to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to‘plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy g‘oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi — Amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo‘riqlash, hisob kitob, ma’muriy)ga bo‘lib, boshqarishni 6-guruhga kiritadi. Menejment yoki boshqarishning obyekti korxona faoliyati, uning subyekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar — yollanma boshqaruvchilar — menejerlar shug‘ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi.

Boshqarish rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni rag‘batlantirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu yerda muvofiqlashtirish barcha funksiyalar jarayonida o‘z aksini topadi. Bu funksiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari

va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo‘ladi.

Boshqarish faoliyatining turlariga ko‘ra funksiyalari quyidagicha bo‘ladi:

– boshqarishning iqtisodiy funksiyalari, ya’ni, mablag‘larning doiraviy aylanishini amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, marketing xizmatini uyushtirish;

– boshqarishning ijtimoiy funksiyalari: mehnat sharoitini yaxshilash, xodimlarning uy-joyga ehtiyotini qondirishga yordam berish, moddiy rag‘batlantirishni ta’minlash, ijtimoiy himoyani ta’minlash kabilar;

– boshqarishning ma’naviy-ma’rifiy funksiyalari: xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o‘zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo‘lish ruhida tarbiyalash va hokazolar;

– boshqarishning tashkiliy funksiyalari, ya’ni, ta’lim jarayonini tashkil qilish, o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va muvofiqlashtirish, vazifalar taqsimlash, boshqarish apparati xodimlari o‘rtasida mas’uliyatlarni belgilash kabilar.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog‘liq va ma’lum darajada tartibga solingan ko‘p unsurlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Boshqarishning funksiyalaridan yana biri – bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta’minlashdir

Har bir korxona qandaydir bir tarmoqqa kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligi jihatdan mahalliy ishlab chiqarish-hududiy majmuamga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funksiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini jo‘zda tutishi lozim.

Tarmoqqa doir bo‘lgan boshqaruv funksiyalari bugungi kunda juda zarur. Busiz tarmoq yo‘qoladi, yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taalluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo‘lishi mumkin. Boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funksiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashga turli tuman tarmoqlarga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, rasional aloqalarni o‘rnatishni ta’minlaydi. Qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o‘ziga xos aniq funksiyalari ham bor.

Boshqarishning o‘ziga xos aniq funksiyalari deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga aniq biriktirilgan ishlar, mas’uliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmui tushunilardi

Xulosa qilib aytganda, inson resurslarini boshqarish har qanday korporatsiya yoki korxona muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. U strategik rejalashtirish, samarali yollash va tanlash, doimiy o‘qitish va rivojlantirish, samaradorlikni boshqarish, kompensatsiya va imtiyozlar hamda xodimlar bilan munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1992.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g‘risida”gi qonuni. – T. : Adolat, 1998.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O‘zbekiston, 1997.

4. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T.: O‘zbekiston, 1995.

5. Abdullayev Y. “Bozor iqtisodiyoti”, 1996.

6. Rasulov M. “Bozor iqtisodiyoti asoslari”. — O‘zbekiston, 1999.

7. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. Darslik. O‘qituvchi, 2001.

Jalol ABDUHAMIDOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY ALOQALARIDA SAVDO VA TOVAR AYIRBOSHLASH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik yillarida yo'lga qo'yilgan hamkorligining huquqiy asoslari aytib o'tilgan. Shuningdek, Davlatlararo hamkorligining huquqiy asoslari "Abadiy do'stlik to'g'risida" va strategik hamkorlik darajasidagi huquqiy asos bilan mustahkamlanishi va yangi davrga olib chiqilishi bo'yicha fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar. O'zbekiston,Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston, Markaziy Osiyo, abadiy do'stlik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, strategik.

В статье изложены правовые основы сотрудничества Республики Узбекистан со странами Центральной Азии, которое было налажено в годы независимости. В нем также говорится о том, что правовые основы межгосударственного сотрудничества должны быть закреплены "о вечной дружбе" и правовой основой на уровне стратегического сотрудничества и выведены в новую эру.

Ключевое слово. Узбекистан, Таджикистан, Кыргызстан, Туркменистан, Казахстан,Центральная Азия,вечная дружба,социальная, экономическая, политическая, стратегическая.

The article mentions the legal basis for the cooperation of the Central Asian countries established in the years of independence of the Republic of Uzbekistan. It is also considered that the legal framework of inter-state cooperation will be strengthened and brought into a new era by "on eternal friendship" and a legal framework at the level of strategic cooperation.

Key word. Uzbekistan, Tajikistan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Kazakhstan, Central Asia, eternal friendship,social,economic,political, strategic.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar nafaqat mintaqada, balki jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan ham ikki va ko'p tomonlama aloqalarni olib borilishiga zamin yaratdi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan yangi tahrirdagi mamlakat tashqi siyosatining strategiyasi va tamoyillarining ishlab chiqilishi Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borilayotgan aloqalar rivojida muhim o'rin tutdi. Xususan, qo'shni Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston Respublikalari bilan o'rnatilgan o'zaro munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Darhaqiqat, mazkur jarayonda O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan davlat hamkorligini tarixiylik nuqtayi nazaridan tadqiq etish hamda uning tarixiy tajribasini o'rganish hozirgi paytda tarix fani oldida asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

1993-yil 3-yanvarda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari miqyosida tashkil etilgan Toshkent uchrashuvida O'zbekiston va Turkmaniston hamkorligini yangi zamon ruhida rivojlantirishning vazifalari belgilab olindi. Alohida ta'kidlash joizki, uchrashuvda O'zbekiston rahbari tomonidan Markaziy Osiyo mam-

lakatlarining mustaqilligiga hech kim daxl qilmasligi uchun ushbu davlatlar o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan hamda o‘zaro tinch-totuv va hamkorlikda jipslashib harakat qilishi zarurligi qat’iy tarzda qayd etilgan edi[1]. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan mustaqillikning ilk yillaridan diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilganligi ham mintaqaviy hamkorlikning zaruriyat ekanligini belgilab beradi. Qozog‘iston bilan 1992-yil 23-noyabrda, Qirg‘iziston bilan 1993-yil 16-fevralda,Tojikiston bilan 1992-yil 20-oktabrda, Turkmaniston bilan 1993-yil 7-yanvarda rasmiy ravishda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi[2]. Ayni paytda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyoning mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangani O‘zbekistonning yaqin qo‘shnilar bilan do‘stlik, o‘zaro manfaat va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan munosabatlarini izchil rivojlanayotganining amaliy ifodasidir.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqaning barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir”.

Aynan, ushbu muammo doirasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bir qator vazifalarning yechimini topishda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlaganligi davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslarda o‘z aksini topa boshladi. Jumladan, davlatimiz rahbari 2017-yil 10-noyabr kuni BMT shafeligida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining o‘zaro maslahatlashuvlari bo‘yicha uchrashuvlarni muntazam tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Ushbu tashabbus barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab quvvatlandi. Mazkur Maslahat uchrashuvi mazmun-mohiyati haqida Sh.Mirziyoyev fikr yuritib jumladan, shunday dedi: “Bizning bu boradagi yondashuvlarimiz bugungi kunda mintaqada umumiy muammolarni hal etishning yo‘llarini birgalikda izlab topishga real zarurat mavjud ekanini anglashdan kelib chiqqan yondashuvdir. Bu o‘rinda gap Markaziy Osiyoda yangi xalqaro tashkilot tuzish yoki o‘z ustavi va milliy davlat organlaridan ustun turadigan integratsiyalashuv sohasida qandaydir tuzilma tashkil etish haqida ketmayotganini alohida ta’kidlamoqchiman”.

Haqiqatan ham ushbu uchrashuvni tashkil etish yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligi doirasida yig‘ilib qolgan muammolarni bosqichma-bosqich hal etishda muhim platforma vazifasini o‘tamoqda. Chunki, Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti asrlar mobaynida turli omillar ta’siri ostida bir-birini to‘ldirib turadigan yagona hududiy kompleks holida shakllanib kelgan va parchalangunga qadar ushbu holat saqlanib qolgan. Shu bilan birga, 1992-2016-yillar mobaynida beshta davlatning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilsa-da, chegaralarda sun’iy to‘siqlar paydo bo‘lishi natijasida o‘zaro hamkorlikning sust

[1] Mirzaev G‘.R. Azaliy qardoshlik rishtalari taraqqiyot yo‘lida (o‘zbek va turkman xalqlari hamkorligi). T.: Navro‘z, 2016. – B. 25.

[2] Нуриддинов Э.З. Становление и далнейшее развитие на этапе обновления страны внешполитической деятельности Республики Узбекистан /Монография/ - Ташкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021, С.173.

holda rivojlanganligining guvohi bo‘lamiz. Ayni paytda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligida mintaqada keng doiradagi transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurash sohasidagi manfaatlari ham bir-biriga yaqin va o‘xshashdir. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan hamkorligining rivojlanishi nafaqat mintaqa davlatlari ijtimoiy hayoti barqarorligi va xavfsizligiga balki, mintaqalararo intgeratsiyalashuvning institutsional tizimini mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

2018-yil 15-mart kuni Qozog‘istonda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi va ushbu uchrashuv ko‘plab ekspertlar tomonidan ijobiy baholandi. Masalan, Qirg‘izistonlik, ekspert Arslanbek Omurzakovning fikricha, Markaziy Osiyo mamlakatlari 27 yillik mustaqillik davrida bir-biridan juda uzoqlashib ketdi va ularni ajratuvchi omillar ham ko‘paydi, biroq so‘nggi yillarda (2017-yil nazarda tutilyapti – muallif) qayta muloqot qilish imkoni paydo bo‘ldi. 2018-yilda “Navro‘z” bayrami sharafiga Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari uzoq yillar mobaynida ilk marotaba “vositachilarsiz”, “bir davrada” uchrashishdi. Bu bir-biriga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini mustahkamlaydigan juda yaxshi tendensiyadir[3].

Binobarin, Markaziy Osiyo mamlakatlari Maslahat uchrashuvida Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar samarasi o‘laroq bir qator ijobiy natijalar qo‘lga kiritilganligi e’tirof etildi. Jumladan, bir necha yillardan buyon muammoli masala sifatida qarab kelingan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida shartnoma imzolandi (2017-yil 10-noyabr). O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘z chegaralarining 85 foizi yuzasidan kelishuvga erishdi. Transport sohasida Tojikiston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri avia, temir yo‘l va avtomobil qatnovi tiklandi. Amudaryo orqali Turkmanobod – Farob temir yo‘li hamda avtomobil yo‘li ko‘priklari (2017-yil 7-mart) ochildi. Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “transport-kommunikatsiya va geostrategik ahamiyatga ko‘ra noyob bo‘lgan Turkmanobod – Farob ko‘priklarining ishga tushirilishi butun Markaziy Osiyo mintaqasi hayotida muhim voqeadir”. Ta’kidlash kerakki, “Turkmanobod – Farob” avtomobil va temir yo‘l ko‘priklari Markaziy Osiyo mamlakatlari tranzit salohiyatini yuksaltirishi Turkmaniston orqali Transkavkaz transport yo‘lagi bilan Janubiy va Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga tranzit va yuk tashish hajmlarini bir necha marotaba ko‘paytirish xizmat qilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston – Qirg‘iz Respublikasi – Xitoy temir yo‘li qurilishi bo‘yicha kelishuvga erishilganligi e’tirof etildi.

Shuningdek, mintaqa davlatlari hamkorligini qaytadan mustahkamlash borasida O‘zbekiston rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston bilan tovar ayirboshlash hajmi, 2017-yil yakunlariga ko‘ra, qariyb 3 milliard dollarni tashkil etdi, ya’ni 20 foizga ortdi. Bu borada tovar yetkazib berish 1 barobarga ko‘paydi. Shuningdek, hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda. Masalan, 2018-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi 50 foiz o‘sib, 3 milliard dollardan oshgan. O‘zbekistonning Qirg‘iz Respublikasi bilan o‘zaro tovar ayriboshlashi 2018-yilda 481 million dollardan oshgan, Tojikiston bilan esa, 389 million dollardan oshgan4, Turkmaniston bilan esa o‘zaro iqtisodiy hamkorlik 302 million dollarni tashkil etgan.

Mintaqa davlatlari o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lgan va rivojlanayotgan davlatlar hisoblanib, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, mintaqada xavfsizlik, tinchlik va osoyishtalik

[3] https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3830/ (04.05.2019).

[4] Xalq so‘zi. 2019-yil 30-noyabr.

muhitini yaratish kabi tamoyillar asosida o‘zlarining tashqi siyosiy faoliyatini rivojlantirib bormoqda. Tojikistonlik ekspert Sherali Rizoyonning fikricha, umuman olganda, Markaziy Osiyoni mintaqa sifatida rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, biroq konstruksiya uchun ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish, Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy manfaatlariga zid kelmaydigan umummintaqaviy manfaatlarni ishlab chiqish va targ‘ib etish zarur. Bunday yondashuvning muhimligi shu bilan izohlanadiki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tubdan yaxshilash global siyosat bo‘yicha yangi markazning shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. “Shu bois, mintaqaviy manfaatning umumiy o‘ziga xos jihatlari va umumiy tuzilmalarini aniqlash yuzasidan qo‘shma, yanada chuqur tadqiqotlar o‘tkazish zarur”[5].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan hamkorligi izchil mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosati mintaqa xalqlari xavfsizligini ta’minlash va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi joriy arxivi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi joriy arxivi. 2017-2022 yy.

3. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.: Типографія А.И. Мамонтова и К0, 1868. – 361 с.

4. Веселовский Н.И. Заметка о курганах Туркестанского края // Записи восточного отделения. – Ташкент, 1888. Вып. 3-4. – С. 220-234.

5. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558—1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. Пер. Ю. Готье, предисловие Г.Новицкого. – М.: Соцэкгсиз, 1937. – 307 с.

6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T: Yulduzcha, 1989. – 368 b.

7. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. Ежегодник. Под ред. Н.А. Маева. – Ташкент: Издание Туркестанского статистического комитета. - А. Траншель, 1876. – [4], 313, 204 с.

8. Материалы по вопросу о торговых путях в Среднюю Азию. – СпБ: в типографии И. И. Глазунова, 1869. – 74 с.

9. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Наука, 1968. – 80 с.

10. О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии // Азиатский вестник. – Спб.: Тип. Медицинского департамента Министерства внутренных дел, 1826. Кн. 7-8. – С. 26.

[5] https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3830/ (04.05.2019); Ризоён Шерали Шукруллозода. Национальные интересы во внешней политике Республики Таджикистан: Монография. – Душанбе: Дониш, 2020. -320с.

Ulug'bek RAHMONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika insituti o'qituvchisi

SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYATNING O'RNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada jismoniy faoliyat davomida barcha kerakli oziq moddalar, shu jumladan, kislorod, bizning organlarimizga qon orqali kiradi, bu esa ushbu organning normal ishlashiga yordam berishi xususida so'z yuritilib, semirishdan tortib yurak-qon tomir tizimi va tayanch-harakat tizimi kasalliklariga qadar jismoniy harakatsizlik bilan bog'liq qancha kasalliklar aniqlangani, sog'lom turmush tarzi asosi jismoniy komillk ekanligi tadqiq qilinadi.

Tayanch sozlar. Sport, sog'lom turmush, oila, jismoniy mashqlar, tana, salomatlik, jismoniy tayyorgarlik.

В статье рассказывается о том, как во время физической активности все необходимые питательные вещества, включая кислород, поступают в наши органы через кровь, что способствует нормальному функционированию этого органа. будет исследовано.

Ключевые слова. спорт, здоровый образ жизни, семья, физические упражнения, тело, здоровье, физическая подготовка.

The article talks about the fact that during physical activity, all the necessary nutrients, including oxygen, enter our organs through the blood, which contributes to the normal functioning of this organ, from obesity to diseases of the cardiovascular system and musculoskeletal system. It is researched how many diseases related to inactivity have been identified, and that the basis of a healthy lifestyle is physical perfection.

Key words. Sports, healthy lifestyle, family, exercise, body, health, physical fitness.

Eng foydali sport turlarini tanani va uning barcha tizimlarini umumiy mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan va turli rekordlarga erishish va qiyinchiliklarni yengish uchun mo'ljallanmagan sport turlari deb atash mumkin. Gimnastika ana shunday ajoyib sport turlaridan biridir. Bu nafaqat gimnastikaning barcha turlarida (badiiy, ertalabki, badiiy gimnastika va boshqalar), balki bir nechta sog'liqni saqlash tizimlarining kesishmasida paydo bo'lgan yo'nalishlarni ham o'z ichiga oladi. Jismoniy faoliyatning bu turlari yaxshi, chunki u yoki bu shaklda ular istisnosiz deyarli hamma uchun mos keladi: har bir yosh toifasining xususiyatlarini hisobga olgan holda siz ham bola, ham keksa odam uchun mashqlar to'plami tanlanadi.

Ko'pgina shifokorlar eng foydali sport turi suzish deb hisoblashadi. Umumiy chidamlilikni oshirishdan tashqari, suzish nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarining holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Asabiy, stressga moyil odamlar uchun bu butunlay almashtirib bo'lmaydigan narsa: charchoq va asabiylashish bilan kurashadi, umumiy hissiy fonni normallashtiradi va stressga chidamliligini oshirishga yordam beradi.

Yugurish – bu barcha mushak guruhlarini o'z ichiga olgan jismoniy faoliyatning yana bir juda foydali shaklidir. Yugurish – bu gipertenziyaning yaxshi oldini olish,

ammo yurak muammolari bo‘lgan odamlarda kontrendikedir. Umuman olganda, yugurish tanaga yumshoq ta’sir qiladi, qon aylanishini rag‘batlantiradi va vazn yo‘qotish dasturlarida faol qo‘llaniladi.

Yupqa figuraga qo‘shimcha ravishda, yugurish yuz rangini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, kundalik yugurish intim muammolarni hal qilishga yordam beradi. Gap shundaki, ushbu sport bilan shug‘ullanayotganda, tos a’zolariga qon oqimi paydo bo‘ladi, bu esa reproduktiv tizimning ohangiga olib keladi.

Jismoniy salomatlik uchun aniq foydadan tashqari, sport ko‘plab psixologik muammolarni davolaydi. Uyqusizlik va arzimas narsalardan g‘azablanish sog‘lom jismoniy faollikning faol tarafdorlariga deyarli tashrif buyurmaydi va ishonch va iroda nafaqat sportda, balki hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga hissa qo‘shadi.

Sport bilan shug‘ullanishga qaror qilishda ko‘plab yosh, surunkali kasalliklarning mavjudligi, jismoniy tayyorgarlik darajasi, mashg‘ulotlarga sarflanishi rejalashtirilgan vaqt omillarni hisobga olish kerak. Sport go‘zal figura va mukammal salomatlik uchun kurashda ajoyib yordamchidir va oddiy qoidalarga rioya qilish mashg‘ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshirishga va mashg‘ulot paytida va undan keyin salomatlikni saqlashga yordam beradi.

Biror kishi uchun o‘rtacha jismoniy mashqlar zarur. Ular qanchalik samarali bo‘lsa, tananing qodir bo‘lgan salohiyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ijobiy ta’siri faqat bir qator qoidalarga rioya qilgan holda bo‘ladi.

Jismoniy faollik to‘g‘ri ovqatlanish bilan birlashtirilishi kerak. Faqatgina bunday turmush tarzi sog‘liq muammolarining yo‘qligini kafolatlaydi. Qattiq mehnat energiya bo‘lgan kaloriyalarni yo‘qotish bilan birga keladi. Shuning uchun sport uchun vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalarga boy oziq-ovqat kerak. Masalan, kaltsiy yetishmovchiligi suyaklarning zaiflashishiga olib keladi, mos ravishda mashg‘ulotlar qiyinroq bo‘ladi.

Jismoniy faollik insonning sog‘lig‘ini mustahkamlash va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish vositasi sifatida bizning davrimiz uchun etarli, dolzarbdir, chunki sog‘liq insonning eng muhim boyligi, uning hayoti, mehnat qobiliyati, ijodiy muvaffaqiyatining asosidir.

Sog‘lom turmush tarzining bunday asoslari va tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– kunlik o‘rtacha sog‘lom ovqatlanish;
– faol dam olish;
– gigiena (shaxsiy va jamoat);
– his-tuyg‘ularni doimiy nazorat qilish;
– intellektual rivojlanish;
– ma’naviy va ijtimoiy farovonlik.

Salomatlik turmush darajasi va sanitariya farovonligini aks ettiradi, umr ko‘rish davomiyligi va mehnat unumdorligiga, mudofaa qobiliyatiga, iqtisodiyot va farovonlikka, ma’naviy muhitga va odamlarning faolligiga bevosita ta’sir qiladi. Ilm-fan va tibbiyotni rivojlantirish, hayotning iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash orqali sog‘liqni saqlashni yaxshilashga hissa qo‘shgan texnikaviy taraqqiyot, shu bilan birga, insonning turmush tarzini o‘zgartirdi, uning salomatligi va hayoti uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi. Bu, birinchi navbatda, yurak-qon tomir, nevropsixik, metabolik, xavfli, allergik va immunitet tanqisligi kasalliklarining keskin o‘sishi bilan namoyon bo‘ldi.

Sog‘likka xavf omillari ta’sir qiladi, ular orasida zamonaviy hayotning yuqori sur’atlari, ortiqcha ovqatlanish va semirish, atrof-muhitning ifloslanishi, alkogolizm, chekish, giyohvandlik, yangi, ilgari noma’lum patogen omillarning (ionlashtiruvchi nurlanish, zararli sanoat mahsulotlari) paydo bo‘lishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qancha farmon va qarorlari MTT pedagoglarini mazkur muammoni bartaraf etish, maktabgacha ta'lim sifatini ko'tarishda yanada faol bo'lishida huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Integratsiyalashgan musiqa mashg'ulotlarida fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, dunyo ta'lim-tarbiya amaliyotida integratsiyalashgan mashg'ulotlarda fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish juda keng yo'lga qo'yilgan. Tabiiy tarzda har bir pedagog o'z xususiy metodikasini ishlab chiqish asnosida integratsiyalashgan mashg'ulotlarga kichik bo'lsa ham qandaydir yangilik kiritishga harakat qiladi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va o'stirishda musiqa, tasviriy san'at, nutq o'stirish, teatrlashtirish, jismoniy tarbiya faoliyatlarini integratsiyalash qo'l keladi. Integratsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim-tarbiyaning o'ta muhim va istiqbolli metodologik yo'nalishlaridan biri sanaladi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlarning bosh maqsadi rang-barang san'at turlari vositasida bola ongida dunyoning go'zal va betakror yaxlit obrazini shakllantirish bilan belgilanadi. Ularni samarali qo'llash uchun quyidagi vositalardan maqsadli foydalanishni tashkil qila bilish talab qilinadi.



– tasviriy san'at – rasm (shakl, hajm, proportsiya, poza, umumiy kompozitsiyada

turli predmetlar uyg‘unligi)

– nutq o‘stirish – ertak, she’r, hikoyalar, suhbat, topishmoqlar, maqollar, hikmatlar,

– teatrlashtirish – dramalashtirishning ifodali vositalari:

– harakatlar, jestlar, imo-ishoralar, ovoz, intonatsiya, holatlar;

– jismoniy tarbiya-gimnastika, musiqiy – ritmik harakatlar, mashqlar.

Turli yosh guruhlarida tashkil qilinadigan integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat turlari o‘sha guruhlardagi bolalarning psixologik, yosh va fiziologik xususiyatlarini to‘la mos bo‘lishi inobatga olinishi o‘ta muhim.

Masalan, kichik yoshidagi bolalar bilan o‘tkazadigan integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda quyidagi faoliyat turlaridan kompleks tarzda qo‘llash mumkin:

· nutq o‘stirish – ertak, she’r, qo‘shiq;

· jismoniy tarbiya – musiqiy – ritmik harakatlar, mashqlar.

O‘rta yoshdagi MTT guruhlarida e’tirof etilayotgan talablar musiqa ham teatrlashtirish hisobiga yanada boyitiladi:

· musiqa – ohang, ritm, uyg‘unlik -garmoniya, dinamika, intonatsiya;

· teatrlashtirish - dramalashtirishning ifodali vositalari;

· harakatlar, jestlar, imo-ishoralar, ovoz, intonatsiya, holatlar.

Katta yoshdagi MTT guruhlarida o‘tkazadigan integratsiyalashgan mashg‘ulotlarida e’tirof etilayotgan talablar musiqa, tasviriy san’at, nutq o‘stirish, jismoniy tarbiya hamda teatrlashtirish vositalaridan foydalaniladi. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni katta guruhlarda amalga oshirishda “Moychechak” metodini qo‘llash tavsiya qilinadi. Bu metod bolalarni o‘zbek xalq cholg‘ularida ijro etishda individual tarzda talqin qilinadi. masalan, Moychechak gulining har bir yaprog‘i bilan biror o‘zbek xalq cholg‘usi belgilanadi. Yaproqlardan birini tanlagan bola belgilangan xalq cholg‘u nomi, uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berish bilan birga o‘sha cholg‘uda ijro mahoratini ham namoyish etishga, ya’ni uni chalishga harakat qiladi.

Tayyorlov guruhlarida sanab o‘tilgan faoliyatlarning barchasidan to‘laqonli foydalaniladi, masalan, “Flomasterlar” metodiga murojaat qilamiz. MTT bolalari musiqa eshitish asnosida qo‘llaridagi flamasterlari bilan doska yoki daftarlarida musiqa xarakteriga mos tuyg‘ularini ranglar vositasida ifodalashga harakat qiladilar. Bunda mayin va mahzun ohanglarni to‘lqinli chiziqlar, o‘ynoqi ritmlarni esa qisqa yoki uzun to‘g‘ri chiziqlar bilan chizishadi, shuningdek, jamoaviy tarzda musiqa harakteriga mos ertak aytishlari, qo‘shiq kuylashlari hamda turli jismoniy mashqlarni bajarishlari mumkin bo‘ladi. “Flomasterlar” metodi bolalarning assotsiativ va obrazli tafakkurlarini rivojlantirishda katta samara beradi.

Maktabgacha ta’limda integratsiyalashuvining joriy etilishi hozirgi kunda padagogika oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradi. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar bolalarda dunyoni badiiy obrazlarda ifoda etishga, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga, tabiatdagi, jamiyatdagi va butun dunyodagi hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori. – T., 2020 y.

3. Дмитриева Л.Г. Черноиваненко Н. Методика музыкального воспитания. – М., “Просвешение”, 1989.

Inobat MUSTAFAYEVA,
Toshkent davlat texnika universiteti,"Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi katta o'qituvchisi

TALABALARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik, psixologik yondashuv haqida fikrlar bayon etilgan bo'lib, shu bilan bir qatorda kasbiy kompetentlik xususiyatlarni tarkib toptirishning psixologik omillari keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar. Kasbiy kompetentlik, pedagoglar, psixologik, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, psixologik omil, muloqot.

В статье изложены взгляды на педагогический, психологический подход к формированию и развитию профессиональной компетентности у студентов, а также приведены психологические факторы формирования характеристик профессиональной компетентности.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, педагоги, психология, образование, социальная среда, психологический фактор, общение.

The article describes ideas about a pedagogical, psychological approach to the formation and development of professional competence in students, and also cites psychological factors for the content of professional competence characteristics**.**

Key words. Professional competence, teachers, psychology, education, social environment, psychological factor, communication.

Hozirgi axborotlashgan, intellektual, tezkor zamonning ta'lim-tarbiya sohasini maxsus tayyorlangan, kasbiy kompetentlikga ega, ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik bilim, malaka, ko'nikmalarni natijadorlik tamoyillari asosida qo'llay oladigan pedagogsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli kadr bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik o'zi nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi muhim?" Kompetensiya" inglizcha "competence" so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini anglatsa, mohiyatan keng ma'noda esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ni yoritishga xizmat qiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kedi. Shuning uchun kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, turli vaziyatlarda konflikt yuzaga kelgan hollarda ham o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Qobiliyat tushunchasi esa nafaqat pedagogik, balki birichi navbatda psixologik tushuncha hisoblangani uchun ham psixologiya fani orqali o‘rganiladi, o‘qitiladi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Shuningdek, kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Har qanday kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar o‘ziga xos mohiyatga ega:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik va psixologik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

3. Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish bilan birga turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish.

4. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy rivojlanishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon eta olish.

Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatilmoqda. Talabalarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o‘qituvchining ham kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashxisi kasbiy shakllanishning mohiyatli tavsifiga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proyektiv o‘quvlar guruhlarini kiritish lozim bo‘ladi. Pedagogning bilish faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan hodisaning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta’siri, ularni izlash bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi.

Mazkur holda o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyatlari o‘z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o‘z xatti-harakatini qat’iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi. Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag’ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

– maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kyelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

– ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdyek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o‘z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik.

Talabalarning kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqatlarining o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosi-

da shakllantiriladi. Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Talabani tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

– zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar) ning mavjudligi;

– ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar) ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

– o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproyektorlar, videoproyektorlar, texnik vositalar majmuyining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;

– ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

– tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Ta'lim tizimini takomillashtirish talabalarning o'z ustida ishlashi, bilim ko'nikma va malakalarini muntazam oshirib borish yo'lida ham o'ziga xos talablarni belgilab beradi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion faolligini oshirish hamda innovatsion jarayonlarga qiziqish va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zaro munosabatlarda ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi omil maqsad bo'lib, shu maqsadga erishishda barcha o'qituvchilarda tabiatan faollik va layoqat bo'lib, agar bu belgilangan maqsad umumiy manfaatlar uchun xizmat qilmasa va u o'z vaqtida, muvofiqlashtirilmasa, talabalarda mazkur maqsadga, o'zaro aloqa va munosabatlarning maqsadi, mazmun-mohiyatining o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos tushunilishi ularning pedagogik kompetentligi shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat. – T., 2003. – 174 b.

2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss – avtoloyihai. – T., 2002. -22 b.

3. Аҳлидинов Р. Социально-Педагогические основы управления качеством общего среднего образования. Автореф.дис...д-ра пед.наук. –Т., 2002. -44 б.

4. Sharipov X., Muslimov N., Ismoilova M. "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. – T., 2005 y.

Ruxsora G'ULOMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

IJTIMOIY-EKOLOGIK MUAMMOLARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'RGANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy sharoitda ekologik siyosatning maqsadi tabiat, jamiyat va iqtisodiyotning uyg'un, muvozanatli rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish ekanligi xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, ekologik vaziyatning globallashuvi ekologik muammolarning globallashuviga olib keladi.

Tayanch so'zlar. Globallashuv, ekologik muammo, tabiat, resurs, ekologik ta'lim, global, muvozanat.

В статье подчеркивается, что целью экологической политики в современных условиях является создание условий для гармоничного, сбалансированного развития природы, общества и экономики. Также глобализация экологической ситуации ведет к глобализации экологических проблем.

Ключевые слова. Глобализация, экологическая проблема, природа, ресурс, экологическое образование, глобальный, баланс.

The article talks about the fact that the purpose of environmental policy in modern conditions is to create conditions for the harmonious, balanced development of Nature, Society and the economy. Also, the globalization of the ecological situation leads to the globalization of environmental problems..

Key words. Globalization, environmental problem, nature, resource, environmental education global, equilibrium.

Ma'lumki, tabiat barqarorligini yo'qotsa ham, bifurkatsiya holatiga tushsa ham, holatini yangilashga muvaffaq bo'ladi. Shuning uchun tabiat bilan bog'liq ekologik muammolar global ahamiyatga ega. Muammoning yechimi sifatida haqiqiy intellektual, moddiy va moliyaviy imkoniyatlarga asoslangan jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni tiklash va saqlashdan iborat ekanligini anglash lozim. Ekologik muammolar jamiyatning tabiiy resurslarga bo'lgan talabining tez o'sishi bilan tabiatning bu resurslarni shakllantirish imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyatdir. Bugungi kunda ekologik muammolarning globallashuvi sayyoramiz atrofidagi tuproq, suv va havoning ifloslanishi, global isish, o'simlik va hayvonot dunyosining kamayishi, tabiiy resurslardan foydalanishning atrof-muhitga salbiy ta'sirining kuchayishida namoyon bo'lmoqda. Shunga ko'ra, ekologik muammolarni barqarorlashtirish bo'yicha davlat siyosati xalqaro standartlarni moslashtirish va joriy etishda o'z aksini topadi.

Ekologik globallashuv sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-ekologik siyosati oldida quyidagi vazifalarni amalga oshirish taqozo etadi:

Birinchidan, har qanday davlatning global ekologik vaziyatni yaxshilash sohasidagi siyosatini muvofiqlashtirish kerak va integratsiyalashuvi jarayonini rivojlantirish lozim.

Ikkinchidan, ekologik jihatdan noqulay hududlarda tabiatni muhofaza qilish, ularning integratsiyalashuvi va globallashuvi uchun mas'ul davlat institutlari tizimini shakllantirish tarixiy zaruratdir.

Uchinchidan, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarning integratsiyasi va globallashuvini mohiyatan va funksional jihatdan ularni umuminsoniy maqsadlarga moslashtirish lozim.

To‘rtinchidan, davlatlarning ekologik holati noqulay hududlarda ijtimoiy-siyosiy missiyani, demokratik va insonparvarlik tamoyillari va me’yorlariga tabaqalashtirilgan yondashuvni taqozo etadi.

Beshinchidan, ekologik vaziyatni yaxshilashning milliy institutsional tizimi umuminsoniy axloqiy-axloqiy me’yorlar va huquqiy vositalar bilan tartibga solinadi va boshqariladi.

Ekologik siyosat quyidagi turlari mavjud:

– global - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ekologik cheklovlarni, dunyoda mavjud tabiiy resurslar zaxiralarini va ularni mamlakatlar o‘rtasida taqsimlashni hisoblab chiqqan holda xalqaro, siyosiy va tashqi iqtisodiy harakatlarni amalga oshirish;

– davlat - hududlar va suv zonalarining ekologik holati bilan bog‘liq ta’sir va kamchiliklarni tushunishga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan xalqaro siyosat;

– mintaqaviy ekologik siyosat - hududlarga nisbatan davlat siyosati, shuningdek, hududlarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik siyosat;

– Mahalliy ekologik siyosat mahalliy va xolis monitoring o‘tkazish, ekologik qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, mahalliy ekologik dasturlar va loyihalarni ishlab chiqishni tashkil etishni o‘z ichiga oladi;

– korporativ atrof-muhit siyosatida ekologiya jamoat qadriyatlari tizimida ustun mavqega ega bo‘lgandan so‘ng, korxona o‘zining ekologik siyosatini uzoq muddatli rejalarda aks ettirmasdan turib qila olmaydi. Qishloq xo‘jaligi obyektining ekologik siyosati uzoq muddatli rejalashtirishning strategik elementi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Xulosa qilib butun dunyo uchun ahamiyat kasb etayotgan ekologik siyosatning ekologik muammolarni hal qilish yo‘llari hamda tabiiy muhitni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish uchun atrof-muhit muammolariga kompleks yondashuv zarur bo‘lgan dunyo hamjamiyatlarining quyidagi chora-tadbirlarining mohiyatini ta’kidlash lozim:

Birinchi yechim sifatida ekologik qonunlarni ishlab chiqish va xalqaro shartnomalar tuzish maqsadi sifatida 1972-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit masalalari bo‘yicha konferensiyasida Stokgolm deklaratsiyasi qabul qilindi. U barcha davlatlar amal qilishi kerak bo‘lgan 26 ta ekologik tamoyilni qabul qildi. Bularga qayta tiklanmaydigan resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, atmosferaga zaharli moddalar chiqarilishini to‘xtatish yoki cheklash bilan bog‘liq tamoyillar kiritilgan.

Ikkinchi yechimda atrof-muhitni tiklash uchun mablag‘ ajratish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2021–2030-yillarni ekotizimlarni tiklash va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish o‘n yilligi deb e’lon qilindi. Bu harakatning yo‘nalishlaridan biri tuproq unumdorligini oshirishdan iborat. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2 milliard gektardan ortiq o‘rmonlar kesilgan va degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash va qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish mumkin.

Uchinchidan texnologiyalar ekologik muammolarni hal qilish usuli sifatida, yangi texnologiyalardan, jumladan, takomillashtirilgan tozalash inshootlari va muqobil manbalardan (quyosh, shamol va boshqalar) energiya oladigan elektr stansiyalaridan foydalanish atrof-muhitning ifloslanishini minimallashtirish imkonini berishi qayd etiladi.

To‘rtinchidan, aholi punktlarida mahalliy hududlarni obodonlashtirishda nafaqat derazadan chiroyli ko‘rinish va yoqimli yurish uchun, balki mikroiqlimni tiklash, havoni tozalash va psixologik qulaylik darajasini oshirish uchun ham amalga oshiriladi. Korxonalar atrofida va yo‘llar bo‘ylab daraxt ekish muhim ahamiyatga ega, bu zararli

moddalarning tarqalishini kamaytiradi.

Ma’lumotlarga qaraganda, kelajakda ekologik muammolarni hal qilish istiqbollari jarayonida xom ashyoni qayta ishlatishni o‘z ichiga olgan aylanma iqtisodiyot insoniyat ishlab chiqaradigan chiqindilar miqdorini 80 foizga kamaytirishi mumkinligi isbotlandi.

Uning asosiy yo‘nalishlari esa quyidagilardan iborat:

– keyinchalik qayta ishlanadigan materiallardan foydalangan holda chiqindilarni saralash va qayta ishlash;

– mahsulotlarning xizmat qilish muddatini uzaytirish va ularni taqsimlash;

– ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqish;

– mas’uliyatli iste’mol - ortiqcha narsalardan qochish, shu jumladan oziq-ovqat ta’minoti, ularning ba’zilari tashlab yuborilishi kerak.

– ko‘mir va neft mahsulotlarini yo‘q qilish atmosferaga zararli chiqindilar miqdorini kamaytirishga yordam beradi.

– muqobil suvning energiyasi (kichik GESlar), quyosh, shamol, Yer osti va boshqalar bo‘ladi. Bundan tashqari, atom elektr stansiyalaridan ham foydalaniladi.

O‘zgarishlar transportga ham ta’sir qiladi. Shunday qilib, 2035 – yildan boshlab ichki yonuv dvigatelli yangi avtomobillar Yevropa Ittifoqida sotilmaydi. Ularning o‘rnini elektromobillar egallaydi va ular uchun yoqilg‘i quyish shoxobchalari tarmog‘ini yaratish uchun 120 milliard yevrogacha mablag‘ ajratish rejalashtirilgan. Xalqaro energetika agentligi tomonidan taklif etilgan barqaror rivojlanish stsenariysiga ko‘ra, 2025-yilga borib 70 millionga yaqin akkumulyator- quvvatli avtomobillar dunyo yo‘llarida harakatlanadi. 2030 – yilga kelib esa ularning soni 230 millionga etadi.

Jahon okeanining global ekologik muammosini hal qilish uchun dengiz ekotizimlarini tiklash kerak, xususan, sho‘r botqoqlar, dengiz o‘tlari, mangrovlar, marjon riflari, megafauna (akulalar, kitlar va boshqa yirik hayvonlar populyatsiyalari). Shuningdek, biz okeanda suzuvchi axlatni faolroq yig‘ishimiz va baliq ovlashni cheklashimiz kerak. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, bu maqsadga erishish uchun hukumatlar yiliga taxminan 20 milliard dollar sarflashi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdraxmanov T., Jabbarov Z. Tuproqlarning neft va neft madsulotlari bilan ifloslanishi va ularning rekultivatsiyasi. –T.: Universitet, 2012. B. 3.

2. Вострикова М.А., Шкода В.В. Основные виды загрязнений водных объектов. // Инновационная наука, 2016. № 4. 10 с.

3. Исмагилов Р.Р. Проблема загрязнения водной среды и пути ее решения.// Молодой ученый, 2012. № 11. 128 с.

Айна ОМАРОВА,
Ташкентский химико-технологический институт, кафедра "Социально-политические науки", старший преподаватель

КАЧЕСТВЕННОЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ – ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО СПЕЦИАЛИСТА

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya va sport" o'quv fanining maqsad va asosiy vazifalari, talabalarning ijtimoiy shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish, fanni tashkil yetish shakllari, o'zlashtirish natijalari, o'quv rejasining konseptual pozitsiyalar batafsil yoritilgan. Shuningdek, o'quv materialining tuzilishi va mazmuni yoritilgan. Muallif ta'lim oluvchilarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb etishga yordam beruvchi samarali pedagogik texnologiyalarni taklif qilgan.

Tayanch so'zlar. Jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish, tashkil etish shakllari, rivojlanish natijalari, tamoyillar, konseptual pozitsiyalar, uslubiy jihatlar, jismoniy tarbiya funksiyalari, o'quv materialining mazmuni, samarali pedagogik texnologiyalar.

В статье подробно рассмотрены цели и основные задачи учебной дисциплины "физическая культура и спорт" в высших учебных заведениях, формирование социально-личностных компетенций учащихся, формы организации обучения дисциплине, результаты освоения, концептуальные позиции учебного плана. Также освещается структура и содержание учебного материала. Автором предложены эффективные педагогические технологии, способствующие вовлечению обучающихся в занятия физической культурой..

Ключевые слова. Физическая культура и спорт, формирование социально-личностных компетенций, формы организации, результаты освоения, дисциплина, концептуальные позиции, методические аспекты, функции физического воспитани, содержание учебного материала, эффективные педагогические технологии.

The article details the goals and main objectives of the Educational Science "Physical Education and sports" in higher educational institutions, the formation of social personal competencies of students, forms of Organization of the discipline, the results of mastering, conceptual positions of the educational plan. Also, the structure and content of the educational material is covered. The author has proposed effective pedagogical technologies that help to attract learners to physical education activities.

Key words. Physical culture and sports, formation of social and personal competencies, forms of organization, results of military development, dissertation principles, conceptual positions, methodological aspects, functions of physical education , content of educational material, effective pedagogical technologies.

Целью учебной дисциплины «Физическая культура и спорт» в вузе является формирование социально-личностных компетенций студентов и способности целенаправленно использовать средства и методы физической культуры, обеспечивающие сохранение, укрепление здоровья для подготовки к профессиональной деятельности, к стойкому перенесению физических нагрузок, нервно-психических напряжений и неблагоприятных факторов в будущей трудовой деятельности. В высших учебных заведениях физическая культура и спорт представлена как учебная дисциплина и важнейший компонент целостного развития личности.

Организация физического воспитания во всех образовательных учреждениях включает в себя:

– Проведение обязательных занятий по физической культуре в пределах основных образовательных программ в объеме, установленном государственным образовательным стандартом, а также дополнительных (факультативных) занятий физкультурой и спортом в пределах дополнительных образовательных программ;

– Создание условий, в том числе обеспечение спортивным инвентарем и оборудованием, для проведения комплексных мероприятий по физкультурно-спортивной подготовке;

– Формирование у студентов навыков физической культуры с учетом индивидуальных способностей и состояния здоровья, создание условий для вовлечения обучающихся в занятия физической культурой и спортом;

– Осуществление физкультурных мероприятий во время учебных занятий;

– Овладение знаниями научно-биологических, методических и практических основ физической культуры и здорового образа жизни, проведение комплексного контроля за организацией физического воспитания;

– Проведение ежегодного мониторинга физической подготовленности и физического развития студентов;

– Содействие организации и проведению спортивных мероприятий. В соответствии с требованиями образовательного стандарта выпускник должен: знать:

• роль физической культуры в развитии человека и подготовке специалиста;

• основы государственной политики Республики Узбкистан в области физической культуры и спорта;

• теоретико-методологические основы физической культуры и здорового образа жизни;

• основные достижения Республики Узбекистан в области физической культуры и спорта;

• гигиенические и организационные основы занятий физической культурой и спортом;

уметь:

• использовать в жизни практические умения и навыки, обеспечивающие сохранение и укрепление здоровья, развитие и совершенствование психофизических способностей и качеств;

• использовать опыт физкультурно-спортивной деятельности для достижения жизненных и профессиональных целей;

• применять правила безопасного проведения занятий физическими упражнениями и видами спорта.

Для реализации обозначенной выше цели должны решаться следующие основные задачи:

– укрепление здоровья, закаливание и повышение устойчивости организма

к воздействию неблагоприятных факторов трудовой деятельности;

– воспитание дисциплинированности, коллективизма, товарищеской взаимопомощи, формирование строевой выправки и подтянутости; ¬

– воспитание психической устойчивости, уверенности в своих силах, целеустремленности, смелости и решительности, инициативности, настойчивости и упорства, выдержки и самообладания;

– развитие и постоянное совершенствование основных двигательных качеств – выносливости, силы, быстроты, ловкости, гибкости;

– овладение навыками ускоренного передвижения (плавание и др.);

– понимание и принятие студентом социальной роли и ценностей физической культуры в профессионально-личностном формировании будущего специалиста;

– овладение опытом активной физкультурно-спортивной деятельности по освоению ценностей физической культуры.

В результате освоения дисциплины «Физическая культура» студент должен:

– понимать роль физической культуры и здорового образа жизни;

– знать основы физической культуры и здорового образа жизни;

– владеть системой практических умений и навыков, обеспечивающих сохранение и укрепление здоровья, развитие и совершенствование психомоторных способностей и качеств (с выполнением установленных нормативов по общефизической, спортивной и профессиональной прикладной подготовке).

Студент должен приобрести личный опыт использования физкультурно-спортивной деятельности для повышения своих функциональных и двигательных возможностей. Знания студентом основ физической культуры должны вооружить его умением и навыками на дальнейший период жизни.

Содержание учебной программы основывается на следующих концептуальных позициях:

a. общеобразовательная направленность процесса физического воспитания;

b. интегративность функций физической культуры;

c. системность учебно-воспитательного процесса;

d. профессионально-прикладная направленность физического воспитания;

e. нормативное и методическое обеспечение образованности студентов в области физической культуры и спорта;

f. этапная и итоговая аттестация студентов по физической культуре.

Программный материал по физическому воспитанию базируется на приоритетных компонентах физической культуры, ее материальных и личностных ценностях, формирующих содержательную направленность обучения, воспитания и образования студента.

Функции физического воспитания студента, отражаемые в учебной программе, представляют собой ряд методически обоснованных аспектов:

1. Организационный, предусматривающий обеспечение реальных условий и возможностей студенту для занятий физическим воспитанием и спортом в любой, определенной для данного вуза форме;

2. Преобразовательный, направленный на повышение и укрепление необходимого уровня физического здоровья, физического развития и подготовленности, обеспечивающий формирование профессионально-личностных качеств средствами физической культуры;

3. Образовательный, позволяющий расширить и совершенствовать знания студентов в сфере физической культуры и спорта, а также использовать полученные знания и умения в профессиональной деятельности и жизни;

4. Социальный, роль которого обусловлена первичной и последующими стадиями социализации, позволяющий обеспечить «вхождение» студента в систему новых и специфических отношений для приобретения физкультурных ценностей и формирования физической культуры;

5. Творческий, в результате которого происходит деятельностное самоопределение личности, приобретение опыта творческой деятельности, развитие индивидуальных способностей на основе устойчивой мотивации и положительных отношений к физической культуре.

Сущность общих положений программы состоит в образовании структурных компонентов, наиболее значимых при формировании физической культуры студента. Организационно-методическая часть программы как обобщающая организационные и методические формы построения учебного процесса исходит из общих положений, закономерностей, принципов теории и методики физического воспитания и вузовского образования, раскрывает более подробно структуру и содержание учебного материала по следующим позициям:

1. По каждому учебному разделу (модулю) в соответствии с его целями и задачами преподавателем (кафедрой) проектируются и реализуются определенные педагогические технологии. В числе наиболее перспективных и эффективных современных инновационных образовательных систем и технологий, позволяющих реализовать компетентностный подход в учебном процессе по физическому воспитанию, следует выделить: учебно-методические комплексы; вариативные модели управляемой самостоятельной работы студентов, блочно-модульные, модульно-рейтинговые, информационные технологии.

2. Содержание учебной программы по физической культуре соответствует распределению студентов по четырем учебным отделениям: основное, подготовительное, специальное (включая группы лечебной физической культуры), спортивное. Распределение студентов в учебные отделения проводится в начале учебного года с учетом пола, состояния здоровья, физического развития, физической и спортивной подготовленности. Из одного учебного отделения (группы) в другое студенты могут переводиться после окончания учебного года или семестра. Перевод студентов в подготовительные и специальные медицинские учебные отделения в связи с заболеванием может осуществляться в любое время учебного года. В основных и подготовительных учебных отделениях студенты распределяются в учебные группы общей физической подготовки и группы по видам спорта. Наполняемость учебных групп – 15–20 человек. В подготовительную группу распределяются студенты, имеющие низкий уровень физического состояния или некоторые заболевания. В специальном учебном отделении студенты, отнесенные по данным медицинского обследования, распределяются в специальную медицинскую группу с наполняемостью 8–12 человек или в группу лечебной физической культуры из 5–7 человек.

В спортивном учебном отделении наполняемость групп зависит от вида и спортивной квалификации занимающихся. Учебные группы спортивной специализации по игровым видам спорта создаются с наполняемостью двойного состава игроков. Кафедры вузов разрабатывают учебные программы по физической культуре на основании типовой программы с учетом имеющейся материально-технической базы, кадрового потенциала и направленности учебного заведения. Учебные программы отражают специфику профиля вуза, специальности, собственных научно-методических предпочтений и профессионального опыта профессорскопреподавательского состава.

Среди эффективных педагогических методик и технологий, способствующих вовлечению студентов в поиск и управление знаниями, приобретению опыта самостоятельного решения разнообразных задач, следует выделить:

• технологии учебно-исследовательской деятельности;

• коммуникативные технологии (дискуссия, пресс-конференция, учебные дебаты и др. активные формы и методы);

• метод кейсов (анализ ситуации);

• игровые технологии, в рамках которых студенты участвуют в деловых, ролевых, имитационных и других играх.

Для управления учебным процессом и организации контрольно-оценочной деятельности педагогам рекомендуется использовать рейтинговые, кредитно-модульные системы оценки учебной и исследовательской деятельности студентов, вариативные модели управляемой самостоятельной работы, учебно-методические комплексы.

Основной закон здоровья – как можно больше двигаться. «Ничто так не разрушает и истощает человека, как продолжительное физическое бездействие» - наставлял древнегреческий ученый и философ Аристотель.

В основе физической подготовки лежит процесс тренировки – систематическое воздействие физических упражнений на организм человека с целью повышения физической работоспособности. При занятиях физической подготовкой необходимо правильно регулировать нагрузку, в зависимости от индивидуальных особенностей организма.

Целесообразно внедрять в практику проведение практических занятий методики активного обучения, дискуссионные формы в целях формирования современных социально-личностных и социально-профессиональных компетенций выпускника вуза.

Использованная литература

1. Анищенко В.С. Физическая культура: Методикопрактические занятия студентов: Учеб. пособие. - М.: Изд-во РУДН, 1999. - 165 с.

2. Гущо Ю.П. Введение в энциклопедию здоровья и долголетия. – М.: Междунар. Ассоц. “Личность, Экология, Мир”; М.;ЕМП “Кольцо”, 1993.-304с.

3. Физическая культура и основы здорового образа жизни: учеб.-метод. пособие / Р.Х. Митриченко, Л.В. Бузмакова, Л.В. Родыгина. - Ижевск, 2011. - 218 с.

4. Медико-биологические основы физической культуры: учеб.-метод. пособие / Упр.образования Адм. г. Ижевска МБУ “Центр столичного образования”, ФГБОУ ВО «Удмуртский государственный университет», Ин-т физ. культуры и спорта ; сост.: Е. С. Иванова, И. И. Шумихина. - Ижевск: Удмуртский университет, 2018. - 205 с.

5. Виленский М.Я. Физическая культура: учебник / М.Я. Виленский, А.Г. Горшков [Электронный ресурс]. – Режим достпа:https://bmu.vrn.muzkult.ru/media/2018/08/02/1225661244/Vilens

6. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта [Электронный ресурс]. - Режим доступа:https://infourok.ru/holodov-zhk-kuznecov-vs-teoriya-imetodika-fizicheskogo-vospitaniya-i-sporta-2324014.html

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G'ayrat SHOUMAROV, Ulug'bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO'MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA , Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ''Xalq ta'limi'' ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2024.